3. **Kuroda K., Fukuda Y., Yoshida K. et al.** Practical Aspects on Non-Profiled Deep-Learning Side-Channel Attacks Against AES Software Implementation with Two Types of Masking Countermeasures Including RSM // Journal of Cryptographic Engineering. — 2023. — Vol. 13. — P. 427–442.

4. **Lu J. et al.** Improving Differential-Neural Cryptanalysis. — Cryptology ePrint Archive, Report 2022/183, 2022.

5. **Improved Machine Learning-Aided Linear Cryptanalysis: Application to DES** // Cybersecurity. — 2024.

6. **Wang H., Dubrova E.** Tandem Deep Learning Side-Channel Attack on FPGA Implementation of AES // SN Computer Science. — 2021. — Vol. 2. — Article 373.

7. **SoK: 5 Years of Neural Differential Cryptanalysis.** — Cryptology ePrint Archive, Report 2024/1300, 2024.

8. **A Panoramic Survey of the Advanced Encryption Standard: From Architecture to Security Analysis, Key Management, Real-World Applications, and Post-Quantum Challenges** // International Journal of Information Security. — 2025.

9. **Benamira A., Gérault D., Peyrin T., Tan Q. Q.** A Deeper Look at Machine Learning-Based Cryptanalysis // Advances in Cryptology – EUROCRYPT 2021. — Springer, 2021.

10. **Tarasenko S. S.** Issledovanie kriptostoykosti asimmetrichnoy kriptograficheskoy sistemy, osnovannoy na iskusstvennykh neyronnykh setyakh s primeneniem pomekhoustoychivogo kodirovaniya // Telekommunikatsii. — 2023. — № 3. — S. 17–31.

11. **Davlatov M.-U., Allanov O., Turdibekov B.** Application of Neural Networks in Cryptanalysis: The Case of the Vigenère Algorithm // American Journal of Applied Science and Technology. — 2025. — Vol. 5, Issue 12. — P. 21–27. DOI: 10.37547/ajast/Volume05Issue12-04.

12. **Differential-Neural Cryptanalysis on AES** // IEICE Transactions on Information and Systems. — 2024. DOI: 10.1587/transinf.2024EDL8044.

13. **Tatarnikova T. M., Sikarev I. A.** Obnaruzhenie atak metodom iskusstvennykh neyronnykh setey // Problemy informatsionnoy bezopasnosti. Kompyuternye sistemy. — 2023. — № 4. — S. 84–94.

TASVIRLARGA PARALLEL ISHLOV BERISHDA HISOBLASH QURILMALARI VA PARALLEL DASTURLASH VOSITALARINING QIYOSIY TAHLILI

Javliyev Shahzod Alisher o‘g‘li
Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
shajavliyev@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqot ishida tasvirlarga parallel ishlov berishda CPU va GPU arxitekturalari, sun’iy intellekt protsessorlari hamda parallel dasturlash vositalarining imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. NVIDIA GPU arxitekturalarining rivojlanishi va hisoblash imkoniyatlari baholandi, CPU, GPU va sun’iy intellekt protsessorlariga mos dasturiy vositalar hamda kutubxonalarning asosiy xususiyatlari taqqoslandi. Olingan natijalar asosida tasvirlarga parallel ishlov berishda bajariladigan vazifaga mos hisoblash qurilmasi va dasturiy vositani tanlash imkoniyatlari aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *tasvirlarga parallel ishlov berish, sun’iy intellekt protsessorlari, parallel hisoblash, CPU, GPU, TPU, NPU.*

Аннотация. *В данном исследовании проведен сравнительный анализ архитектур CPU и GPU, процессоров искусственного интеллекта и средств параллельного программирования для параллельной обработки изображений. Оценены развитие и вычислительные возможности архитектур NVIDIA GPU, а также сопоставлены основные характеристики программных средств и библиотек для CPU, GPU и процессоров искусственного интеллекта. На основе полученных результатов определены возможности выбора соответствующего вычислительного устройства и программного средства для конкретных задач параллельной обработки изображений..*

Ключевые слова: *параллельная обработка изображений, процессоры искусственного интеллекта, параллельные вычисления, CPU, GPU, TPU, NPU.*

Abstract. *This study presents a comparative analysis of CPU and GPU architectures, artificial intelligence processors, and parallel programming tools for parallel image processing. The development and computational capabilities of NVIDIA GPU architectures were evaluated, and the main features of software tools and libraries for CPU, GPU, and artificial intelligence processors were compared.*

Based on the obtained results, the possibilities of selecting an appropriate computing device and software tool for specific parallel image processing tasks were identified.

Keywords: *parallel image processing, artificial intelligence processors, parallel computing, CPU, GPU, TPU, NPU..*

Kirish. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt tizimlarining rivojlanishi yuqori aniqlikdagi tasvir va video ma’lumotlar hajmining ortishiga olib kelmoqda. Tasvirlarga ishlov berish algoritmlarida bir xil turdagi amallar ko‘p sonli piksellar ustida takroran bajarilishi sababli hisoblash yuklamasi tasvir o‘lchami va kadrlar soniga bog‘liq ravishda oshadi. Bunday masalalarda hisoblashlarni parallel tashkil etish ishlov berish vaqtini qisqartirish va mavjud apparat resurslaridan samarali foydalanish imkonini beradi [1].

Parallel hisoblashlarni bajarishda markaziy protsessor (Central Processing Unit, CPU), grafik protsessor (Graphics Processing Unit, GPU) va sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalari turli arxitekturaviy imkoniyatlarga ega. CPU umumiy maqsadli hisoblash va boshqaruv vazifalariga moslashgan bo‘lsa, GPU ko‘p sonli ma’lumot elementlari ustida bir xil amallarni parallel bajarishga yo‘naltirilgan [2]. Tenzor protsessori (Tensor Processing Unit, TPU), neyron protsessor (Neural Processing Unit, NPU), ma’lumotlarni qayta ishlash protsessori (Data Processing Unit, DPU), rezistiv protsessor (Resistive Processing Unit, RPU) va intellektual protsessor (Intelligence Processing Unit, IPU) kabi ixtisoslashtirilgan qurilmalar esa sun’iy intellektga xos hisoblash operatsiyalarini tezlashtirish imkonini beradi [3].

Hisoblash qurilmalarining apparat imkoniyatlaridan foydalanish ularga mos parallel dasturlash vositalari va kutubxonalar orqali amalga oshiriladi. CPU uchun Open Multi-Processing (OpenMP), Intel Threading Building Blocks (Intel TBB), Intel Math Kernel Library (Intel MKL) va Message Passing Interface (MPI); GPU uchun Compute Unified Device Architecture (CUDA), Open Computing Language (OpenCL) va Open Accelerators (OpenACC) kabi vositalar qo‘llaniladi. Sun’iy intellekt hisoblashlarida esa PyTorch, TensorFlow, JAX, ONNX Runtime, TensorRT, OpenVINO va cuDNN kutubxonalari turli hisoblash qurilmalarida modellarni o‘qitish va bajarish imkonini beradi [4], [5].

Tasvirlarga parallel ishlov berish samaradorligi hisoblash qurilmasining arxitekturaviy imkoniyatlari va unga mos dasturiy vositani tanlashga bog‘liq. Shu sababli, mazkur tadqiqot ishining asosiy maqsadi CPU va GPU arxitekturalarining xususiyatlari, sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalarining

funksional imkoniyatlari hamda ular uchun mo‘ljallangan parallel dasturlash vositalari va kutubxonalarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Tasvirlarga ishlov berishda hisoblash yuklamasining xususiyati foydalaniladigan qurilmani tanlashga bevosita ta’sir qiladi. Umumiy maqsadli hisoblashlarda CPUning moslashuvchanligi muhim bo‘lsa, bir xil amallarni katta hajmdagi ma’lumotlar ustida bajarishda GPUning yuqori parallelligi ustunlik qiladi. Sun’iy intellekt masalalarida esa matritsa, tenzor va neyron tarmoq amallariga ixtisoslashtirilgan protsessorlardan foydalaniladi. Ushbu qurilmalarning imkoniyatlari ularning arxitekturasi va dasturiy ta’minoti bilan belgilanadi.

CPU va GPU arxitekturalarining qiyosiy tahlili. Zamonaviy ko‘p yadroli CPUlarda hisoblash vazifalari bir nechta yadrolar o‘rtasida taqsimlanishi mumkin. Flin tasnifiga ko‘ra ko‘p yadroli CPUlar ko‘p buyruq — ko‘p ma’lumot (Multiple Instruction, Multiple Data, MIMD) modeliga mansub bo‘lib, alohida yadrolar turli buyruqlarni turli ma’lumotlar ustida mustaqil bajaradi [6]. GPU esa yagona buyruq — ko‘p oqim (Single Instruction Multiple Threads, SIMT) modeli asosida bir xil amalni ko‘p sonli ma’lumot elementlari ustida parallel bajarishga moslashtirilgan. CPUda kam sonli murakkab yadrolar va rivojlangan kesh tizimi turli xarakterdagi hisoblashlarni bajarishga xizmat qiladi. GPUda esa ko‘p sonli hisoblash birliklarining parallel ishlashi asosiy o‘rinni egallaydi. Tasvirlarga ishlov berishda piksellar yoki ularning bloklari mustaqil hisoblash oqimlariga taqsimlanishi mumkinligi sababli GPU arxitekturasi filtrlash, rang qiymatlarini o‘zgartirish va svertka kabi takrorlanuvchi amallarga mos keladi. CPU va GPU arxitekturalarining asosiy farqlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. CPU va GPU arxitekturalarining asosiy xususiyatlari

Ko‘rsatkich	**CPU**	**GPU**
Hisoblash tuzilishi	Kam sonli murakkab yadrolar	Ko‘p sonli hisoblash birliklari
Bajarish modeli	MIMD	SIMT
Parallellik	Ko‘p yadroli	Massiv parallel
Xotira tuzilishi	L1/L2/L3 kesh va asosiy xotira	Registr, umumiy xotira, L2 va global xotira
Asosiy yo‘nalish	Umumiy hisoblash va boshqaruv	Ko‘p sonli bir xil amallarni parallel bajarish
Tasvirlarga ishlov berish	Turli va boshqaruvga bog‘liq amallar	Piksel va bloklar ustidagi takrorlanuvchi amallar

CPU va GPU o‘rtasidagi parallellik darajasidagi farq ularning bir vaqtda hisoblashlarni tashkil etish imkoniyatlarida ham namoyon bo‘ladi. Zamonaviy ko‘p yadroli CPUlarda hisoblash oqimlari soni ortib borayotgan bo‘lsa-da, GPU arxitekturasida parallel bajarishga mo‘ljallangan hisoblash birliklari soni ancha yuqori. Quyidagi 1-rasmda AMD Ryzen Threadripper PRO 9995WX protsessorining 192 ta hisoblash oqimi bilan NVIDIA Ampere A100 GPUning 6912 ta FP32 yadrosi o‘rtasidagi miqdoriy farq ko‘rinadi.



1-rasm. CPU hisoblash oqimlari va GPU FP32 hisoblash yadrolari sonining taqqoslanishi

Yuqorida 1-rasmda keltirilgan ko‘rsatkichlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri unumdorlik sifatida tenglashtirish mumkin emas, biroq ular CPU va GPUda parallel hisoblash resurslarini tashkil etish ko‘lami sezilarli farq qilishini ko‘rsatadi. Tasvir elementlari ustida bir xil amallarni ko‘p marta bajarishda GPUning ko‘p sonli hisoblash birliklari aynan shu turdagi parallellikni ta’minlaydi

GPUda hisoblash yadrolari oqimli multiprotsessorlar (Streaming Multiprocessor, SM) tarkibida tashkil etiladi. Global xotira katta hajmdagi ma’lumotlarni saqlashga xizmat qilsa, L2 kesh tez-tez foydalaniladigan ma’lumotlarga murojaatni tezlashtiradi. Umumiy (shared) xotiraesa bitta blokdagi oqimlarga umumiy ma’lumotlardan tezkor foydalanish imkonini beradi. Tasvir fragmentlari qayta ishlatiladigan operatsiyalarda ushbu xotiradan foydalanish global xotiraga takroriy murojaatlarni kamaytiradi. NVIDIA GPU avlodlarida hisoblash va xotira resurslari birgalikda rivojlangan. Pascal P100da 56 ta SM va 3584 ta FP32 CUDA yadrosi mavjud bo‘lsa, Volta V100da bu ko‘rsatkichlar 80 ta va 5120 tani, Ampere A100da esa 108 ta va 6912 tani tashkil etadi [7]. Shu bilan birga har bir SMdagi umumiy xotira hajmi 64 KB dan 164 KB gacha, L2 kesh 4 MB dan 40 MB

gacha, xotira o‘tkazuvchanligi esa 732 GB/s dan 1555 GB/s gacha oshgan. GPU avlodlarida hisoblash va xotira resurslarining o‘zgarishi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Pascal P100, Volta V100 va Ampere A100 GPUlarida SM soni va umumiy xotira hajmining o‘zgarishi

NVIDIA GPUlarining Tesla, Fermi, Kepler, Maxwell, Pascal, Volta, Turing, Ampere, Ada Lovelace va Hopper avlodlarida hisoblash imkoniyatlari bosqichma-bosqich kengaygan [8]. Ushbu rivojlanish GPUlarning hisoblash imkoniyati (Compute Capability, CC) ko‘rsatkichida ham aks etadi. Arxitektura avlodlari bo‘yicha CC qiymatlarining o‘zgarishi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. NVIDIA GPU arxitektura oilalarining hisoblash imkoniyati (CC) bo‘yicha rivojlanishi

Yuqoridaki 3-rasmda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, NVIDIA GPU arxitekturalarining CC qiymati Tesla avlodidagi 1.0 dan Hopper avlodida 9.0 gacha oshib, yangi avlodlarda hisoblash imkoniyatlarining izchil kengayib borganini

ko‘rsatadi. Shu bilan birga, GPU arxitekturalarini baholashda faqat CC qiymati yetarli bo‘lmay, oqimli multiprotsessorlar soni, hisoblash birliklari, kesh va global xotira hajmi hamda ma’lumot almashish interfeyslari kabi apparat ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. GPUlarning ko‘p oqimli arxitekturasi tasvirlarga ishlov berish bilan bir qatorda matritsa va tenzor amallarini ham parallel bajarishga imkon beradi. Bunday amallar sun’iy intellekt algoritmlarida keng qo‘llanilishi sababli GPUlar ushbu yo‘nalishda ham muhim hisoblash vositasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim sun’iy intellekt vazifalarida muayyan turdagi hisoblashlarni tezlashtirish uchun sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalaridan foydalaniladi.

Sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalari (protsessorlar) ning qiyosiy tahlili. Sun’iy intellekt algoritmlarida matritsalarni ko‘paytirish, svertka, tenzor va ko‘paytirib-qo‘shish (Multiply-Accumulate, MAC) amallari katta hisoblash yuklamasini hosil qiladi. Bunday operatsiyalarni tezlashtirish uchun umumiy maqsadli CPU va GPUlar bilan bir qatorda sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalaridan ham foydalaniladi [5]. Ularning asosiy farqi universallik darajasi, hisoblashni tashkil etish usuli va energiya samaradorligida namoyon bo‘ladi. TPU matritsa va tenzor amallarini sistolik massiv asosida bajarishga moslashtirilgan. NPU neyron tarmoq amallarini past aniqlikdagi ma’lumot formatlaridan foydalanib energiya tejamkor bajarishga yo‘naltirilgan. DPU tarmoq, saqlash va xavfsizlik bilan bog‘liq yuklamalarni CPUdan ajratadi. RPU rezistiv xotira elementlarida hisoblashni amalga oshirishga asoslangan bo‘lsa, IPU ko‘p sonli mustaqil yadrolar yordamida graf ko‘rinishidagi mashinali o‘qitish hisoblashlarini bajarishga moslashtirilgan [2].

Sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalari ko‘p sonli parallel hisoblash elementlarida, past aniqlikdagi ma’lumot formatlari (FP16, BF16, INT8, INT4) yordamida energiya tejamkor bajarishga yo‘naltirilgan. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:.

- *TPU (Tensor Processing Unit)* — matritsa va tenzor amallarini sistolik massiv asosida tezlashtiradi. Asosan katta hajmdagi neyron tarmoq modellarini o‘qitish va inference jarayonlarida qo‘llaniladi.
- *NPU (Neural Processing Unit)* — neyron tarmoq amallarini kam energiya sarfi bilan bajarishga mo‘ljallangan. Tasvirni tanish, obyektlarni aniqlash va segmentatsiya kabi vazifalarni qurilmaning o‘zida bajarishga imkon beradi.
- *DPU (Data Processing Unit)* — tarmoq, ma’lumotlarni saqlash va xavfsizlik bilan bog‘liq yuklamalarni CPUdan ajratib bajaradi. SI klasterlarida ma’lumot uzatish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qiladi.

- *RPU (Resistive Processing Unit)* — rezistiv xotira elementlarida ma’lumotni saqlash va hisoblashni birlashtiradi. Matritsa-vektor amallarida ma’lumot uzatish xarajatlarini kamaytirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, hozirda asosan tadqiqot bosqichida.
- *IPU (Intelligence Processing Unit)* — ko‘p sonli mustaqil yadrolar va katta hajmdagi ichki xotira asosida graf ko‘rinishidagi mashinali o‘qitish hisoblashlarini parallel bajarishga moslashtirilgan.
- *FPGA (Field-Programmable Gate Array)* — qayta konfiguratsiya qilinadigan mantiqiy bloklar asosida muayyan SI hisoblashlarini apparat darajasida moslashtirish va tezlashtirish imkonini beradi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan sun’iy intellekt masallari uchun moslashtirilgan hisoblash qurilmalarining asosiy xususiyatlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval. Sun’iy intellekt hisoblash qurilmalarining qiyosiy xususiyatlari

Qurilma	**Asosiy vazifasi**	**Arxitekturaviy xususiyati**	**Misollar**
GPU	Massiv parallel hisoblash, o‘qitish va inference	SIMT, CUDA va Tensor yadrolari	NVIDIA A100, H100, GeForce RTX
TPU	Tenzor amallarini tezlashtirish	Sistolik massiv	Google Cloud TPU
NPU	Energiya tejamkor inference	MAC massivlari, past aniqlikdagi formatlar	Apple Neural Engine, Qualcomm Hexagon, Intel NPU, AMD XDNA
DPU	Tarmoq, saqlash va xavfsizlik yuklamalari	Dasturlanadigan yadrolar va tarmoq tezlatgichlari	NVIDIA BlueField, AMD Pensando
RPU	Xotira ichida analog hisoblash	Rezistiv xotira elementlari	Tadqiqot prototiplari
IPU	Graf asosidagi mashinali o‘qitish	Ko‘p sonli mustaqil yadrolar, ichki SRAM	Graphcore IPU

Yuqoridaki 2-jadvalda keltirilgan sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalarida universallik kamayishi hisobiga muayyan hisoblashlarni samarali bajarish imkoniyati ortadi. CPU turli vazifalarni dasturlash va boshqarishda yuqori moslashuvchanlikka ega bo‘lsa, TPU, NPU va RPU muayyan SI amallariga yo‘naltirilgan. GPU esa yuqori parallellikni nisbatan keng dasturlash imkoniyatlari

bilan birlashtiradi. Ushbu hisoblash qurilmalarining dasturlash moslashuvchanligi va sun’iy intellekt amallaridagi energiya samaradorligi 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Sun’iy intellekt masalalariga mo’ljallangan hisoblash qurilmalarining dasturlash moslashuvchanligi va energiya samaradorligi bo‘yicha qiyosiy bahosi

CPUdan sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalariga o‘tishda muayyan sun’iy intellekt amallarini bajarishga yo‘naltirilganlik ortib boradi. GPU ushbu qurilmalar orasida massiv parallel hisoblash imkoniyati va dasturlash moslashuvchanligini birlashtirishi bilan ajralib turadi. TPU, NPU va RPU kabi ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalari muayyan SI amallari, tasvirlarni tanish, obyektlarni aniqlash va segmentatsiya qilish vazifalarini energiya tejamkor bajarishga yo‘naltirilganligi bilan yuqori energiya samaradorligiga yo‘naltirilgan.

Parallel dasturlash vositalari va kutubxonalarining qiyosiy tahlili. Ko‘p yadroli tizimlarda parallel hisoblashni tashkil etish uchun turli darajadagi dasturlash vositalari mavjud bo‘lib, ular odatda past darajali va yuqori darajali yondashuvlarga ajratiladi. Past darajadagi yondashuvlarda hisoblash oqimlarini yaratish va boshqarish, ular o‘rtasidagi o‘zaro ishlashni muvofiqlashtirish dasturchi tomonidan bevosita amalga oshiriladi. Yuqori darajadagi vositalar esa ushbu jarayonlarni soddalashtirish va parallel dasturlarni ishlab chiqishni yengillashtirish imkonini beradi. Parallel hisoblashlarni dasturiy amalga oshirishda OpenMP (Open Multi-Processing), Intel TBB (Intel Threading Building Blocks), Intel MKL (Intel Math Kernel Library), MPI (Message Passing Interface), CUDA (Compute Unified Device Architecture), OpenCL (Open Computing Language) va OpenACC (Open Accelerators) kabi vositalardan foydalaniladi [8], [9], [10].

Parallel dasturlash vositalari hisoblash qurilmasi va parallel bajarishni tashkil etish usuliga ko‘ra farqlanadi. Ularning asosiy xususiyatlarini quyidagicha ixcham ifodalash mumkin:

- *OpenMP (Open Multi-Processing)* — umumiy xotirali ko‘p yadroli CPUlarda fork-join modeli asosida parallel hisoblashlarni tashkil etadi. Tasvir qismlarini bir nechta CPU yadrolari o‘rtasida taqsimlab ishlash imkonini beradi.
- *Intel TBB (Intel Threading Building Blocks)* — C++ uchun vazifalarga asoslangan parallel dasturlash kutubxonasi bo‘lib, hisoblash vazifalarini CPU yadrolari o‘rtasida avtomatik taqsimlaydi.
- *Intel MKL (Intel Math Kernel Library)* — ko‘p yadroli CPUlarda chiziqli algebra, matritsa va boshqa matematik amallarni parallel bajarishga mo‘ljallangan kutubxona.
- *MPI (Message Passing Interface)* — taqsimlangan xotirali tizimlarda mustaqil jarayonlar o‘rtasida xabar almashishni ta’minlaydi. Asosan ko‘p tugunli parallel hisoblash tizimlarida qo‘llaniladi.
- *CUDA (Compute Unified Device Architecture)* — NVIDIA GPUlarida kernel funksiyalarini ko‘p sonli oqimlarda parallel bajarishga mo‘ljallangan platforma. Tasvir elementlari ustidagi bir xil amallarni massiv parallel bajarish imkonini beradi.
- *OpenCL (Open Computing Language)* — CPU, GPU, FPGA (Field-Programmable Gate Array) va DSP (Digital Signal Processor) kabi turli hisoblash qurilmalarida parallel hisoblashlarni tashkil etishga mo‘ljallangan ochiq platforma.
- *OpenACC (Open Accelerators)* — kompilyator direktivalari yordamida CPU va GPUlarda parallel hisoblashlarni tashkil etadi. Mavjud ketma-ket kodni katta o‘zgartirishlarsiz parallel bajarishga moslashtirish imkonini beradi.

CPUga mo‘ljallangan vositalarda parallellik turli darajada tashkil etiladi. OpenMP parallel sohalar va sikllarni bir nechta yadroga taqsimlaydi, Intel TBB vazifalarga asoslangan parallellikdan foydalanadi, Intel MKL matematik amallarning tayyor optimallashtirilgan funksiyalarini taqdim etadi. MPI esa jarayonlar o‘rtasida xabar almashish orqali parallel hisoblashlarni bir nechta hisoblash tuguniga kengaytiradi. GPU vositalarida apparat resurslarini boshqarish darajasi yuqoriroq. CUDA NVIDIA GPUlarida kernel, oqim va xotirani bevosita boshqarish imkonini beradi; OpenCL turli ishlab chiqaruvchilarning hisoblash qurilmalarida ishlashga yo‘naltirilgan; OpenACC esa direktivalar yordamida mavjud dastur kodini parallel bajarishga moslashtirishni soddalashtiradi. Sun’iy intellekt kutubxonalari past darajadagi apparat boshqaruvini foydalanuvchidan yashirib, tenzor va neyron tarmoq amallarini mos qurilmada bajarishni tashkil etadi.

PyTorch, TensorFlow va JAX model yaratish va o‘qitishga, ONNX Runtime turli apparat platformalarida modelni bajarishga, TensorRT va cuDNN NVIDIA GPUlaridagi hisoblashlarni, OpenVINO esa Intel CPU, GPU va NPUlaridagi inference jarayonini optimallashtirishga yo‘naltirilgan.

Ko‘rib chiqilgan parallel dasturlash vositalarining parallellik darajasi, kengaytirish imkoniyati, apparat resurslarini boshqarish imkoniyati hamda dasturlash murakkabligi mezonlari bo‘yicha qiyosiy tahlili grafik ko‘rinishi 5-rasmda keltirilgan



5-rasm. Parallel dasturlash vositalarining mezonlar bo‘yicha baholanishi (1 – past, 2 – o‘rtacha, 3 – yuqori)

OpenMP va Intel MKL dasturlash murakkabligining pastligi bilan qulay bo‘lsa, apparat resurslarini boshqarish imkoniyati nisbatan cheklangan. OpenCL yuqori parallellik va platformalararo moslashuvchanlikni ta’minlaydi, biroq undan foydalanish murakkabroq. CUDA esa yuqori parallellik, kengaytirish va GPU resurslarini boshqarish imkoniyatini o‘rtacha dasturlash murakkabligi bilan birlashtiradi. Umuman, tasvirlarga parallel ishlov berishda hisoblash qurilmasini dasturiy vositadan alohida tanlash yetarli emas. CPU turli va boshqaruvga bog‘liq hisoblashlarda, GPU ko‘p sonli takrorlanuvchi amallarni parallel bajarishda, sun’iy intellektga ixtisoslashtirilgan hisoblash qurilmalari esa muayyan sun’iy intellekt vazifalarida qo‘llaniladi. Ularga mos dasturlash vositalari va kutubxonalar hisoblash resurslaridan foydalanish usulini belgilaydi. Shu sababli tasvirlarga parallel ishlov berishda qurilmaning arxitekturaviy xususiyatlari, bajariladigan vazifa va dasturiy muhitning imkoniyatlari o‘zaro mos holda tanlanishi lozim.

Xulosa. Mazkur maqolada tasvirlarga parallel ishlov berishda qo‘llaniladigan CPU va GPU arxitekturalari, sun’iy intellekt protsessorlari hamda ularga mos parallel dasturlash vositalarining imkoniyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijasida CPU umumiy maqsadli va boshqaruvga bog‘liq hisoblashlarda

moslashuvchanligi, GPU esa ko‘p sonli tasvir elementlari ustida bir xil amallarni massiv parallel bajarish imkoniyati bilan ajralib turishi aniqlandi. NVIDIA GPU arxitekturalarining rivojlanishi hisoblash imkoniyatlari hamda apparat va xotira resurslarining kengayib borishi bilan tavsiflanishi ko‘rsatildi. Shuningdek, TPU, NPU, DPU, RPU va IPU protsessorlarining sun’iy intellekt hisoblashlaridagi vazifalari hamda OpenMP, Intel TBB, Intel MKL, MPI, CUDA, OpenCL va OpenACC vositalarining qo‘llanish xususiyatlari aniqlandi. Qiyosiy natijalarga ko‘ra, CUDA NVIDIA GPUlarining parallel hisoblash va xotira resurslarini boshqarish imkoniyati bilan tasvirlarga parallel ishlov berish vazifalarida samarali dasturiy muhitni ta’minlaydi. Umumiy natijalar tasvirlarga parallel ishlov berish samaradorligi bajariladigan masalaga mos hisoblash arxitekturasi va parallel dasturlash vositasini birgalikda tanlashga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximov M.F., Ochilov M.M., Javliyev Sh.A. CUDA texnologiyasi yordamida tasvirlarni parallel qayta ishlash uchun GPU blok o‘lchami va xotira resurslarini samarali boshqarish // TATU xabarlari ilmiy-texnika va axborot-tahliliy jurnali. – 2025. – №4(76). – B. 83-97.

2. Intel Corporation. CPU vs. GPU: Powerful Options for Your Computing Needs [Elektron resurs]. – URL: intel.com — CPU vs. GPU (murojaat sanasi: 29.09.2026)

3. Intel Corporation. Intel® 64 and IA-32 Architectures Optimization Reference Manual [Elektron manba]. – URL: https://www.intel.com/content/www/us/en/developer/articles/technical/intel-sdm.html (murojaat sanasi: 10.06.2026).

4. Intel Corporation. Intel® oneAPI Threading Building Blocks (oneTBB) [Elektron resurs]. – URL: Intel oneTBB (murojaat sanasi: 29.09.2026).

5. Mekhriddin Rakhimov, Dilnoza Zaripova, Shakhzod Javliev, Jakhongir Karimberdiyev; Deep learning parallel approach using CUDA technology. AIP Conf. Proc. 27 November 2024; 3244 (1): 030003. https://doi.org/10.1063/5.0241439

6. Flynn M.J. Some Computer Organizations and Their Effectiveness // IEEE Transactions on Computers. – 1972. – Vol. C-21, № 9. – P. 948-960. DOI: 10.1109/TC.1972.5009071.

7. Xujayarov I.Sh. Zamonaviy grafik protsessorlar arxitekturasi va texnologiyalari (Obzor) // TATU xabarlari (Vestnik TUIT). – Toshkent, 2018. – №1(45). – B. 22-41.

8. NVIDIA Corporation. NVIDIA Ampere Architecture [Elektron resurs]. – URL: https://www.nvidia.com/en-us/data-center/ampere-architecture/ (murojaat qilingan sana: 04.09.2026).

9. The Khronos Group. OpenCL – the open standard for parallel programming of heterogeneous systems [Elektron manba]. – 2013. – URL: https://www.khronos.org/opencl/ (murojaat sanasi: 10.06.2026).

10. OpenACC. OpenACC Programming and Best Practices Guide. Introduction [Elektron manba]. – URL: https://openacc-best-practices-guide.readthedocs.io/en/latest/01-Introduction.html (murojaat qilingan sana: 01.09.2026).

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA EKOLOGIK MA’LUMOTLARNI TAHLIL QILISH VA VIZUALLASHTIRISH UCHUN DASTURIY PLATFORMA MODELI

Matkarimova Yulduz
Nukus davlat texnika universiteti
yulduzmatkarimova815@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada ekologik ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va foydalanuvchiga tushunarli shaklda taqdim etish jarayonlarini sun’iy intellekt texnologiyalari bilan birlashtiruvchi dasturiy platforma modeli taklif etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi ekologik monitoringda ma’lumotlar hajmining ortib borishi, ularning turli manbalardan olinishi hamda tezkor tahlilga ehtiyoj mavjudligi bilan izohlanadi. Taklif etilayotgan model ma’lumotlarni qabul qilish va tozalash, saqlash, mashinaviy o‘qitish asosida tahlil qilish, prognozlash hamda natijalarni grafik va diagrammalar orqali vizuallashtirish modullaridan tashkil topadi. Maqolada platformaning funksional va mantiqiy arxitekturasi, ma’lumotlar oqimi, sun’iy intellektdan foydalanish bosqichlari hamda modelni baholash mezonlari ko‘rib chiqiladi. Yondashuv amaliy dasturiy mahsulot yaratish uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi va ekologik monitoring jarayonlarini raqamlashtirishga yordam berishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *sun’iy intellekt, ekologik monitoring, mashinaviy o‘qitish, ekologik ma’lumotlar, dasturiy platforma, ma’lumotlarni tahlil qilish, prognozlash, vizuallashtirish.*

Аннотация. *В статье предлагается модель программной платформы, объединяющей процессы сбора, обработки, анализа и визуализации экологических данных с технологиями искусственного интеллекта. Актуальность исследования обусловлена увеличением объёма экологических данных, их поступлением из различных источников и необходимостью оперативного анализа. Предлагаемая модель включает модули приёма и очистки данных, хранения, анализа на основе машинного обучения, прогнозирования и визуального представления результатов с помощью графиков и диаграмм. Рассматриваются функциональная и логическая архитектура платформы, поток данных, этапы применения искусственного интеллекта и критерии оценки модели. Предложенный подход может*

служить концептуальной основой для разработки программного продукта и способствовать цифровизации экологического мониторинга.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, экологический мониторинг, машинное обучение, экологические данные, программная платформа, анализ данных, прогнозирование, визуализация.*

Abstract. *The article proposes a software platform model that integrates the collection, preprocessing, analysis and visualization of environmental data with artificial intelligence technologies. The relevance of the study is determined by the growing volume of environmental data, the diversity of data sources and the need for timely analytical processing. The proposed model includes modules for data acquisition and cleaning, storage, machine-learning-based analysis, forecasting, and visual presentation of results through charts and dashboards. The paper discusses the functional and logical architecture of the platform, the data flow, the stages of artificial intelligence application, and the criteria for evaluating the model. The proposed approach can serve as a conceptual basis for developing a software product and contribute to the digitalization of environmental monitoring.*

Keywords: *artificial intelligence, environmental monitoring, machine learning, environmental data, software platform, data analysis, forecasting, visualization.*

KIRISH

Atrof-muhit holatini kuzatish va ekologik ma’lumotlarni ishonchli tahlil qilish barqaror rivojlanish uchun muhim axborot asosini tashkil etadi. Havo, suv, tuproq, chiqindilar, biologik xilma-xillik va boshqa ekologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha muntazam kuzatuvlar turli manbalarda shakllanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2026-yilda yangilangan ambient havo sifati ma’lumotlar bazasi azot dioksidi (NO_2), PM_{10} va $PM_{2.5}$ kabi ko‘rsatkichlarning yer usti o‘lchovlarini jamlaydi va ma’lumotlarning sifatli, standartlashtirilgan monitoringi muhimligini ta’kidlaydi. [1]

Ekologik monitoringda ma’lumotlar hajmi va xilma-xilligining oshishi ularni faqat qo‘lda qayta ishlashdan ko‘ra avtomatlashtirilgan dasturiy vositalardan foydalanishni talab qiladi. An’anaviy monitoring usullarida o‘lchash, saqlash, qayta ishlash va hisobot tayyorlash jarayonlari alohida tizimlarda bajarilishi mumkin. Natijada ma’lumotlarni birlashtirish, o‘zgarishlarni tez aniqlash va prognozlashda qo‘shimcha vaqt sarflanadi.

Sun’iy intellektning rivojlanishi ekologik monitoring uchun yangi analitik imkoniyatlarni yaratmoqda. Ilmiy sharhlarda sun’iy intellekt yordamida ifloslanishni aniqlash, havo va suv sifatini monitoring qilish, prognozlash hamda

turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish yo‘nalishlari keng o‘rganilayotgani ko‘rsatilgan. [2; 3] Bunda mashinaviy o‘qitish algoritmlari katta hajmdagi ma’lumotlar orasidagi bog‘liqliklarni aniqlash va kelgusidagi ko‘rsatkichlarni bashorat qilish uchun qo‘llanishi mumkin.

Mazkur maqolaning maqsadi ekologik ma’lumotlarni yagona dasturiy muhitda qabul qilish, qayta ishlash, sun’iy intellekt asosida tahlil qilish va natijalarni vizual ko‘rinishda taqdim etishga mo‘ljallangan platformaning konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda real ishlayotgan tayyor tizim natijalari emas, balki amaliy dasturiy mahsulotni yaratish uchun taklif etilayotgan arxitektura va metodik yondashuv asoslanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ekologik sohada sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar so‘nggi yillarda sezilarli darajada kengaydi. “Artificial intelligence in environmental monitoring: Advancements, challenges, and future directions” nomli sharhda AI asosidagi usullar ifloslanishni aniqlash, real vaqt monitoringi, havo sifati prognozi va aqlli shaharlar kabi yo‘nalishlarda qo‘llanayotgani ko‘rsatilgan. Mualliflar AI ekologik monitoringning aniqligi va tezkorligini oshirish imkoniyatiga ega ekanini, biroq ma’lumotlar sifati va texnik cheklovlar kabi muammolar mavjudligini qayd etadi. [2]

Ekologik monitoringda sun’iy intellekt va ma’lumotlarni birlashtirish masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda sun’iy yo‘ldosh tasvirlari, masofadan zondlash ma’lumotlari va boshqa geoaxborot manbalarini mashinaviy o‘qitish yordamida qayta ishlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Bunday yondashuvlar turli format va manbalardagi ma’lumotlardan mazmunli axborot ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, ma’lumotlar heterojenligi, modelni tushuntirish va hisoblash xarajatlari kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. [3]

Ekologik fazoviy ma’lumotlar bo‘yicha 2024-yilgi sharhda mashinaviy o‘qitish modellarini qo‘llashda fazoviy bog‘liqlikni hisobga olish muhimligi ko‘rsatilgan. Bu holat ekologik hodisalarni modellashtirishda oddiy algoritm tanlashning o‘zi yetarli emasligini, ma’lumotlarning makon va vaqt bo‘yicha xususiyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. [4]

Havo ifloslanishini monitoring qilish bo‘yicha tizimli sharhlarda IoT qurilmalari va mashinaviy o‘qitishning birgalikda qo‘llanishi ham o‘rganilgan. Sensorlardan olinadigan real vaqtga yaqin ma’lumotlarni mashinaviy o‘qitish modellari bilan birlashtirish ifloslanish ko‘rsatkichlarini prognozlash uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida qaraladi. [5]

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ham havo sifati monitoringida uzluksiz va sifatli ma’lumot yig‘ish, ularni standartlashtirish hamda jamoatchilikka yetkazish muhimligini ta’kidlaydi. Tashkilot ma’lumotlarni modellashtirish va mashinaviy o‘qitish kabi zamonaviy usullarni havo ifloslanishini baholashda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. [6]

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarning muhim qismi alohida masalani — masalan, havo sifati prognozi, masofadan zondlash tasvirlarini tasniflash yoki suv sifatini baholashni — hal qilishga yo‘naltirilgan. Ushbu maqolada esa ekologik ma’lumotlar bilan ishlashning bir nechta bosqichlarini yagona dasturiy platforma modeli doirasida birlashtirish taklif qilinadi. Bu yondashuv Dasturiy injenering nuqtayi nazaridan tizim arxitekturasi, modullararo aloqa va foydalanuvchi uchun vizual analitika masalalarini birgalikda ko‘rib chiqish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot konseptual modellashtirish, tizimli tahlil va dasturiy arxitekturani loyihalash usullariga asoslanadi. Platforma modeli ekologik ma’lumotlarning kirish manbalari, ma’lumotlarni qayta ishlash qatlami, sun’iy intellekt qatlami, ma’lumotlarni saqlash qatlami va foydalanuvchi interfeysi o‘rtasidagi o‘zaro aloqani ifodalaydi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ekologik ma’lumotlarning ehtimoliy manbalari aniqlanadi. Ularga sensorlar, ochiq ma’lumotlar bazalari, laboratoriya o‘lchovlari, meteorologik ma’lumotlar va masofadan zondlash manbalari kirishi mumkin. Ma’lumotlarning kelib chiqishi, o‘lchov birligi, vaqt tamg‘asi va geografik koordinatalari saqlanishi platformaning keyingi tahlil bosqichlari uchun muhimdir.

Ikkinchi bosqichda ma’lumotlarni tayyorlash amalga oshiriladi. Bu jarayonda takroriy yozuvlarni aniqlash, yetishmayotgan qiymatlarni qayta ishlash, o‘lchov birliklarini birxillashtirish, noto‘g‘ri yoki keskin chetga chiqadigan qiymatlarni tekshirish hamda vaqt va hudud bo‘yicha ma’lumotlarni moslashtirish nazarda tutiladi. Sifatli oldindan qayta ishlash sun’iy intellekt modelining barqaror ishlashi uchun muhim hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda mashinaviy o‘qitish modeli tanlanadi. Vazifaga qarab regressiya, klassifikatsiya yoki vaqt qatorlarini prognozlash algoritmlaridan foydalanish mumkin. Masalan, ekologik ko‘rsatkichning kelajakdagi qiymatini baholash regressiya vazifasi sifatida, ekologik holatni toifalarga ajratish esa klassifikatsiya vazifasi sifatida qaralishi mumkin.

To‘rtinchi bosqichda modelning natijalari baholanadi. Regressiya uchun MAE, RMSE va R^2 kabi ko‘rsatkichlardan, klassifikatsiya uchun aniqlik (accuracy),

precision, recall va F1-score kabi mezonlardan foydalanish mumkin. Model tanlashda faqat bitta ko‘rsatkichga emas, balki ma’lumotlarning turi, izohlanish imkoniyati va hisoblash xarajatlariga ham e’tibor berish lozim.

Beshinchi bosqichda tahlil natijalari foydalanuvchiga dashboard, jadval, grafik, diagramma yoki xarita ko‘rinishida taqdim etiladi. Shu orqali murakkab ekologik ma’lumotlarni mutaxassis bo‘lmagan foydalanuvchi uchun ham tushunarli shaklga keltirish maqsad qilinadi.

TAKLIF ETILAYOTGAN DASTURIY PLATFORMANING MODELI

Taklif etilayotgan platforma modulli arxitekturaga ega bo‘lishi rejalashtiriladi. Modulli yondashuv platformaning alohida qismlarini mustaqil ishlab chiqish, sinash va keyinchalik kengaytirish imkonini beradi. Platformaning umumiy ishlash zanjiri quyidagicha ifodalanadi:

1. Ma’lumot manbalari	2. Qabul qilish va tozalash	3. AI/ML analitik modul	4. Prognoz va baholash	5. Dashboard va vizuallashtirish
Sensorlar, ochiq bazalar, API, RS	Validatsiya, normalizatsiya, missing values	Regressiya, klassifikatsiya, vaqt qatori	Model metrikalari, prognoz, xavf signali	Grafik, jadval, xarita, hisobot

1-rasm. Ekologik ma’lumotlarni tahlil qiluvchi dasturiy platformaning konseptual oqimi.

Platformaning birinchi qatlami ma’lumotlarni qabul qilish uchun javob beradi. U tashqi API, fayllar, sensor qurilmalari yoki boshqa axborot tizimlaridan ma’lumot olishni ta’minlashi mumkin. Ikkinchi qatlamda ma’lumotlar sifat nazoratidan o‘tkaziladi. Uchinchi qatlam sun’iy intellekt algoritmlarini ishga tushiradi. To‘rtinchi qatlam model natijalarini baholaydi va prognozlarni shakllantiradi. Beshinchi qatlam esa foydalanuvchi bilan bevosita ishlaydi.

Platformaning muhim funksiyalaridan biri ekologik ma’lumotlarni vaqt va hudud bo‘yicha filtrlash imkonini berishdir. Masalan, foydalanuvchi ma’lum hudud va vaqt oralig‘ini tanlab, havo sifati yoki boshqa ekologik ko‘rsatkichlarning o‘zgarishini grafik orqali ko‘rishi mumkin. Agar yetarli tarixiy ma’lumot mavjud bo‘lsa, tizim tanlangan ko‘rsatkich uchun prognoz natijasini ham chiqarishi mumkin.

Sun’iy intellekt modulida modelni qayta o‘qitish imkoniyati ham ko‘zda tutilishi kerak. Yangi ma’lumotlar kelib tushgani sari modelning sifati qayta baholanadi. Bunda modelning eski va yangi natijalari solishtirilishi, aniqlik pasaygan taqdirda esa qayta o‘qitish jarayoni ishga tushirilishi mumkin.

Platforma xavfsizligi ham dasturiy injenering nuqtayi nazaridan muhim. Foydalanuvchilar uchun rollarga asoslangan kirish nazorati, ma’lumotlarni zaxiralash, audit jurnali, API kalitlarini himoyalash va ma’lumotlar almashinuvida xavfsiz protokollardan foydalanish kabi choralar rejalashtirilishi lozim.

PLATFORMANING FUNKSIONAL MODULLARI

Modul	Asosiy vazifasi	Kutiladigan natija
Ma’lumotlarni qabul qilish	API, fayl va sensorlardan ma’lumot olish	Yagona formatdagi kirish ma’lumotlari
Ma’lumotlarni tozalash	Yetishmayotgan, takroriy va xato qiymatlarni qayta ishlash	Tahlilga tayyor dataset
Ma’lumotlar ombori	Tarixiy va joriy ma’lumotlarni saqlash	Markazlashgan ekologik ma’lumotlar
AI/ML tahlil	Klassifikatsiya, regressiya yoki prognozlash	Tahliliy va prognoz natijalari
Vizualizatsiya	Grafik, jadval, xarita va dashboard	Tushunarli ko‘rinishdagi axborot
Hisobot	Natijalarni eksport qilish va hisobot yaratish	PDF/Excel yoki boshqa formatdagi hisobot

2-jadval. Platformaning asosiy funksional modullari.

SUN’IY INTELLEKT ALGORITMLARINI QO‘LLASH

Platformada algoritm tanlash ekologik masalaning turiga bog‘liq bo‘ladi. Agar maqsad ekologik ko‘rsatkichning kelajakdagi sonli qiymatini aniqlash bo‘lsa, regressiya modellaridan foydalanish mumkin. Agar obyekt yoki hududni ekologik holat toifalariga ajratish talab qilinsa, klassifikatsiya algoritmlari mos keladi. Vaqt bo‘yicha ketma-ket kuzatuvlar mavjud bo‘lganda vaqt qatori modellaridan foydalanish mumkin.

Mashinaviy o‘qitishdan foydalanishda ma’lumotlarni o‘qitish, validatsiya va test qismlariga ajratish muhim. Model faqat o‘qitish ma’lumotlarida yuqori natija ko‘rsatishi yetarli emas; u ilgari ko‘rmagan ma’lumotlarda ham barqaror ishlashi kerak. Ekologik fazoviy ma’lumotlarda hududiy bog‘liqliklar mavjud bo‘lishi mumkinligi sababli validatsiya usulini tanlashda ushbu xususiyat ham hisobga olinadi. [4]

AI modelining natijasini foydalanuvchiga tushuntirish ham muhim. Ekologik boshqaruvga tegishli tizimlarda faqat prognoz qiymatini ko‘rsatish o‘rniga, modelga ta’sir qilgan asosiy omillar, ishonchlilik darajasi yoki noaniqlik oralig‘i haqida ma’lumot berish foydali bo‘lishi mumkin. Shu sababli platformaning keyingi

rivojlanish bosqichlarida tushuntiriladigan sun’iy intellekt (Explainable AI) yondashuvlarini qo‘llash rejalashtirilishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqotning asosiy natijasi ekologik ma’lumotlar bilan ishlash jarayonlarini yagona dasturiy platformaga birlashtiruvchi konseptual modelning ishlab chiqilganidir. Model ma’lumotlarni qabul qilishdan boshlab, ularni tozalash, saqlash, sun’iy intellekt asosida tahlil qilish va foydalanuvchiga vizual shaklda taqdim etishgacha bo‘lgan bosqichlarni qamrab oladi.

Taklif etilayotgan arxitekturaning asosiy afzalligi — ekologik ma’lumotlar bilan ishlashning alohida jarayonlarini yagona tizimga bog‘lashdir. Bu yondashuv kelajakda turli manbalardan keladigan ma’lumotlarni umumiy formatga keltirish, bir nechta analitik algoritmlarni taqqoslash va natijalarni bitta interfeysda ko‘rsatish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda ham turli va heterojen ekologik ma’lumot manbalarini birlashtirish AI asosidagi monitoringning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qayd etilgan. [2; 3]

Modelning yana bir muhim jihati — platformani turli ekologik yo‘nalishlarga moslashtirish imkoniyatidir. Dastlab havo sifati ma’lumotlari bilan ishlaydigan tizim sifatida yaratilgan platforma keyinchalik suv sifati, tuproq ko‘rsatkichlari yoki chiqindilar monitoringi uchun kengaytirilishi mumkin. Buning uchun ma’lumotlar modeli va analitik modullarni parametrlar orqali moslashtirish talab etiladi.

Shu bilan birga, platformaning real samaradorligini faqat konseptual model asosida baholab bo‘lmaydi. Amaliy bosqichda real ekologik dataset tanlanishi, ma’lumotlarning sifati tekshirilishi, kamida ikki yoki undan ortiq algoritm sinovdan o‘tkazilishi va natijalar tegishli metrikalar orqali taqqoslanishi lozim. Bu maqolada soxta eksperimental natijalarni kiritmaslik uchun ushbu bosqichlar kelgusidagi amaliy tadqiqot sifatida belgilanadi.

Platformani ishlab chiqishda texnik jihatdan Python dasturlash tili, ma’lumotlarni saqlash uchun PostgreSQL kabi ma’lumotlar bazasi, mashinaviy o‘qitish uchun scikit-learn yoki boshqa mos kutubxonalar, vizualizatsiya uchun web-dashboard texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Aniq texnologik stek kelgusidagi tajriba bosqichida ma’lumotlar hajmi, model turi va server infratuzilmasiga qarab tanlanadi.

Ekologik monitoringda ma’lumotlarning sifati alohida ahamiyatga ega. WHO ma’lumotlar bazasida ham o‘lchov metodologiyalari va ma’lumotlarning to‘liqligi hududlararo taqqoslashlarga ta’sir qilishi qayd etilgan. [1] Shu sababli taklif etilayotgan platformada ma’lumot manbasi, vaqt, o‘lchov birligi va sifat holatini saqlovchi metadata mexanizmini joriy etish maqsadga muvofiq.

AMALIY QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Taklif etilayotgan platforma modeli ekologik monitoring markazlari, ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari, mahalliy boshqaruv organlari hamda ekologik ma’lumotlar bilan ishlovchi tashkilotlar uchun moslashtirilishi mumkin. Platforma foydalanuvchiga murakkab datasetni bevosita ko‘rib chiqish o‘rniga tayyor grafiklar, indikatorlar va prognozlarni ko‘rish imkonini beradi.

Ta’lim jarayonida platforma magistrantlar va talabalar uchun amaliy laboratoriya muhiti sifatida ham ishlatilishi mumkin. Masalan, talabalar bitta ekologik datasetni turli mashinaviy o‘qitish algoritmlari bilan tahlil qilib, model natijalarini solishtirishlari mumkin. Bu dasturiy injenering, ma’lumotlar tahlili va ekologiya yo‘nalishlari o‘rtasidagi fanlararo aloqani kuchaytiradi.

O‘zbekiston sharoitida platformaning keyingi bosqichi sifatida ochiq ekologik ma’lumotlar va mahalliy monitoring ma’lumotlarini yagona formatga keltirish masalasi alohida o‘rganilishi mumkin. Bunda hududiy xususiyatlar, meteorologik omillar va ma’lumotlarning mavjudlik darajasi hisobga olinishi kerak. Amaliy tadqiqot natijalari platformaning aniq bir hudud yoki ekologik ko‘rsatkich uchun moslashtirilishiga imkon beradi.

XULOSA

Tadqiqotda sun’iy intellekt asosida ekologik ma’lumotlarni tahlil qilish va vizuallashtirishga mo‘ljallangan dasturiy platformaning konseptual modeli taklif qilindi. Model ma’lumotlarni qabul qilish, tozalash, saqlash, mashinaviy o‘qitish yordamida tahlil qilish, prognozlash va natijalarni vizual taqdim etish bosqichlarini yagona tizimga birlashtiradi.

Adabiyotlar tahlili AI texnologiyalarining ekologik monitoring, ifloslanishni aniqlash, havo va suv sifatini baholash hamda masofadan zondlash ma’lumotlarini tahlil qilishdagi imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ma’lumotlar sifati, turli manbalarni birlashtirish, modelni to‘g‘ri validatsiya qilish va natijalarni izohlash kabi masalalar platforma ishlab chiqishda alohida e’tibor talab qiladi.

Taklif etilgan modelning amaliy ahamiyati ekologik ma’lumotlarni yagona raqamli muhitda boshqarish va tahlil qilish imkoniyatini yaratishdan iborat. Kelgusidagi tadqiqotlarda real ekologik dataset asosida platformaning prototipini ishlab chiqish, bir nechta mashinaviy o‘qitish algoritmlarini sinash, ularning aniqligini statistik mezonlar orqali baholash hamda foydalanuvchi interfeysining samaradorligini tajribaviy tekshirish rejalashtiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Health Organization. WHO Ambient Air Quality Database (Version 8.0). Geneva: WHO, 2026.

2. Artificial intelligence in environmental monitoring: Advancements, challenges, and future directions // Heliyon. 2024. Vol. 12. Article 100114. DOI: 10.1016/j.heha.2024.100114.

3. Using artificial intelligence and data fusion for environmental monitoring: A review and future perspectives // Information Fusion. 2022. DOI: 10.1016/j.inffus.2022.03.005.

4. Adapting machine learning for environmental spatial data – A review // Ecological Informatics. 2024. Vol. 81. Article 102634. DOI: 10.1016/j.ecoinf.2024.102634.

5. Applications of machine learning & Internet of Things for outdoor air pollution monitoring and prediction: A systematic literature review // Engineering Applications of Artificial Intelligence. 2024. Vol. 137. Part B. Article 109182. DOI: 10.1016/j.engappai.2024.109182.

6. World Health Organization. Overview of methods to assess population exposure to ambient air pollution. Geneva: WHO, 2023.

7. Recent applications of AI to environmental disciplines: A review // Science of The Total Environment. 2024. Vol. 906. Article 167705.

8. Artificial intelligence and Eddy covariance: A review // Science of The Total Environment. 2024. Vol. 950. Article 175406.

PAXTANI QAYTA ISHLASH USKUNALARINING TEXNIK HOLATINI MEXATRONIK MONITORING VA DIAGNOSTIKA QILISH

Maxmadaminov Asliddin G‘anisher o‘g‘li,
Maxmadaminov.asliddin@mail.ru

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda paxtani qayta ishlash korxonalarida qo‘llaniladigan texnologik uskunalarning texnik holatini mexatronik vositalar asosida monitoring qilish va diagnostikalash masalalari atroflicha ko‘rib chiqilgan. Uskunalarning ishlash jarayonida yuzaga keladigan mexanik yuklanish, yuqori vibratsiya, haroratning ortishi, elektr yuritma yuklamasining o‘zgarishi hamda mexanik uzellarning yeyilishi ularning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur jarayonlarni nazorat qilish uchun sensorlar, mikroprotsessorli boshqaruv qurilmasi (PLC/MCU), ijro mexanizmlari (aktuatorlar) va dasturiy diagnostika algoritmidan iborat zamonaviy mexatronik monitoring tizimi taklif etiladi. Taklif etilayotgan yondashuv uskunalar ishining barqarorligini ta’minlash va texnik xizmat ko‘rsatish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *mexatronika, paxtani qayta ishlash, texnik holat, monitoring, diagnostika, sensor, aktuator, mikroprotsessorli boshqaruv, avtomatlashtirish.*

1. Kirish

Paxtani qayta ishlash korxonalarida texnologik jarayonlarning uzluksizligi va xavfsizligi bevosita uskunalarning texnik holatiga bog‘liq. Ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan jin, linter, transportyor, ventilyator va boshqa yirik mexanizmlar uzoq vaqt davomida uzluksiz ishlashi natijasida mexanik qismlarning yeyilishi, vibratsiyaning ortishi, podshipniklarning qizishi hamda elektr yuritma yuklamasining o‘zgarishi kabi nosozliklar kelib chiqishi mumkin.

Bunday jarayonlarni faqat operator nazorati yoki vaqti-vaqti bilan ko‘zdan kechirish orqaligina boshqarish kichik o‘zgarishlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli, sensorlar, mikroprotsessorli boshqaruv qurilmalari va ijro mexanizmlarini yagona intellektual tizimga birlashtiruvchi mexatronik monitoring va diagnostika tizimlarini joriy etish dolzarb masalalardan biridir.

2. Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi — paxtani qayta ishlash uskunalarining texnik holatini maxsus sensorlar yordamida uzluksiz aniqlash, olingan ma’lumotlarni raqamli qayta ishlash va mexatronik ijro mexanizmlari orqali uskunaning ish rejimini avtomatik ravishda boshqarish hamda tartibga solish imkonini beruvchi samarali monitoring-diagnostika tizimini ishlab chiqishdan iborat.

3. Mexatronik monitoring Tizimining Tuzilishi va Ishlashi

Taklif etilayotgan tizimda uskunaning holatini tavsiflovchi asosiy fizik parametrlar sensorlar yordamida real vaqt rejimida o‘lchanadi. Olingan elektr signallari mikroprotsessorli boshqaruv qurilmasiga (PLC / MCU / IPC) uzatiladi.



Qurilmaga o'rnatilgan dasturiy algoritm texnik holatni baholaydi. Agar olingan parametrlar belgilangan me'yoriy chegaradan chiqsa, tizim operatorni ogohlantiradi yoki tegishli ijro mexanizmini to'g'ridan-to'g'ri ishga tushiradi.

1-jadval. Mexatronik monitoring tizimining funksional elementlari

Element	Vazifasi	Tizimdagi roli
Vibratsiya sensori	Mexanik tebranish darajasini o‘lchash	Diagnostika
Harorat sensori	Podshipnik va dvigatel haroratini nazorat qilish	Holat monitoringi
Tok sensori	Elektr yuritma yuklamasini aniqlash	Yuklama nazorati

Element	Vazifasi	Tizimdagi roli
Annotatsiya: *Maqolada nafas olish tizimi patologiyalarini - jumladan, koronavirus infeksiyasi (COVID-19), pnevmoniya, o‘tkir respirator distress-sindromi (ARDS) va surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi fonida yuzaga keladigan o‘pka to‘qimalari degenerativ o‘zgarishlarini erta va avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashga qaratilgan zamonaviy matematik modellar va hisoblash algoritmlari PRISMA metodologiyasi tamoyillari asosida tizimli tahlil qilingan. 05.01.04 ixtisosligi doirasida ko‘rib chiqilgan o‘nta ilmiy ish to‘rt bosqichli kontseptual hisoblash konveyeri - signal/tasvirni yig‘ish, shovqindan tozalash, matematik dekompozitsiya va chekka qurilmalarda tasniflash - nuqtai nazaridan taksonomiyalashtirildi. Tahlil chuqur o‘rganish arxitekturalari (avtoenkoderlar, konvolyutsion va rekurrent tarmoqlar), metaevristik optimallashtirish usullari, stoxastik aralashma modellari hamda fiziologik-matematik modellashtirish (bioimpedans va kardiopulmonar Windkessel modellari) o‘rtasidagi matematik apparat, hisoblash murakkabligi va amaliy aniqlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha qiyosiy jadval shaklida umumlashtirildi. Natijada akustik va vizual signallarning multimodal integratsiyasi yetishmasligi, yuqori aniqlikdagi modellarni chekka qurilmalarga kvantlash bilan bog‘liq uzilish, ma‘lumotlar bazalaridagi sinflar nomutanosibligi hamda fiziologik modellar bilan neyron tarmoqlarni gibridlashtirishning yo‘qligi kabi to‘rtta muhim ilmiy bo‘shliq aniqlandi. Ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida fraksional tartibli differensial modellar, adaptiv variatsion rejim dekompozitsiyasi va to‘liq butun sonli arifmetikada ishlovchi kvantlangan neyrotarmoq topologiyasiga asoslangan resurs-tejamkor gibrid apparat-dasturiy arxitektura taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar: *nafas olish signallari; o‘pka patologiyalari; chekka sun‘iy intellekt (Edge AI); chuqur o‘rganish; tizimli sharh.*

Аннотация: *В статье на основе принципов методологии PRISMA систематически проанализированы современные математические модели и вычислительные алгоритмы, направленные на раннее и автоматизированное выявление патологий дыхательной системы, включая коронавирусную инфекцию (COVID-19), пневмонию, острый респираторный дистресс-синдром (ОРДС) и дегенеративные изменения лёгочной ткани на фоне хронической обструктивной болезни лёгких. Десять научных работ, рассмотренных в рамках специальности 05.01.04, систематизированы с точки зрения четырёхэтапного концептуального вычислительного конвейера: сбор сигнала/изображения, очистка от шума, математическая декомпозиция и классификация на периферийных устройствах. Проведено сравнение архитектур глубокого обучения, метаэвристических методов оптимизации, стохастических моделей смеси, а также физиолого-математического моделирования (биоимпедансные и кардиопульмональные модели Виндкесселя) с точки зрения математического аппарата, вычислительной сложности и показателей точности. Выявлены четыре ключевых научных пробела и предложена ресурсосберегающая гибридная архитектура на основе дробно-дифференциальных моделей, адаптивной вариационной модовой декомпозиции и квантованной нейросетевой топологии с целочисленной арифметикой.*

Ключевые слова: *сигналы дыхания; патологии лёгких; периферийный искусственный интеллект (Edge AI); глубокое обучение; систематический обзор.*

Abstract: *This article presents a systematic, PRISMA-based review of contemporary mathematical models and computational algorithms for the early, automated diagnosis of respiratory pathologies, including COVID-19, pneumonia, acute respiratory distress syndrome (ARDS), and degenerative pulmonary tissue changes associated with chronic obstructive pulmonary disease. Ten studies, reviewed within the scope of specialty 05.01.04, are taxonomically organized around a four-stage computational pipeline: signal/image acquisition, denoising and normalization, mathematical decomposition, and edge-device classification. The mathematical apparatus, computational complexity, and reported accuracy of deep-learning architectures, metaheuristic optimization methods, stochastic mixture models, and physiological-mathematical models (bioimpedance and cardiopulmonary Windkessel models) are compared in a summary table. The analysis identifies four critical research gaps and proposes a resource-efficient hybrid hardware-software architecture based on fractional-order differential*

models, adaptive variational mode decomposition, and an integer-arithmetic quantized neural topology suitable for FPGA/TinyML deployment.

Keywords: *respiratory signals; pulmonary pathologies; Edge AI; TinyML; quantization; deep learning; bioimpedance modeling; systematic review.*

Kirish: Nafas olish tizimi patologiyalarini - jumladan, koronavirus infeksiyasi (COVID-19), pnevmoniya, o‘tkir respirator distress-sindromi (ARDS) hamda surunkali obstruktiv o‘pka kasalligi (KO‘AK) fonida yuzaga keladigan o‘pka to‘qimalarining degenerativ o‘zgarishlarini erta va avtomatlashtirilgan tarzda aniqlash muammosi zamonaviy biotibbiyot muhandisligi va hisoblash tizimlari dasturiy ta‘minoti sohasining eng dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda portativ hamda chekka (Edge AI) qurilmalarga integratsiya qilingan intellektual tashxis tizimlariga bo‘lgan talab keskin ortib bormoqda, chunki bunday tizimlar real vaqt rejimida past kechikish va yuqori energiya samaradorligi bilan ishlashi lozim. Ayni paytda mikrokontroller darajasidagi hisoblash resurslari cheklanganligi sababli, yuqori aniqlikka ega chuqur o‘rganish modellarini bunday qurilmalarga moslashtirish jarayonida jiddiy matematik va muhandislik-texnik qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Ushbu maqolaning maqsadi - nafas olish signallarini (auskultatsiya tovushlari, rentgenologik va kompyuter tomografiyasi tasvirlari, havo oqimi signallari) intellektual tahlil qilishga bag‘ishlangan so‘nggi yillardagi ilmiy ishlarni PRISMA (Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses) tamoyillari asosida tizimli tahlil qilish, ularning matematik apparati, algoritmik arxitekturasi, hisoblash murakkabligi va amaliy aniqlik ko‘rsatkichlarini qiyosiy baholash, shuningdek mavjud ilmiy bo‘shliqlarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan resurs-tejamkor gibrid arxitekturani ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tahlil qilingan barcha metodologiyalar to‘rt bosqichli kontseptual hisoblash konveyeri nuqtai nazaridan taksonomiyalashtirildi. Birinchi bosqichda signal yoki tasvir ko‘rinishidagi dastlabki ma‘lumot yig‘iladi (rentgenografiya, kompyuter tomografiyasi yoxud elektron stetoskop orqali olingan akustik yozuvlar). Ikkinchi bosqichda shovqindan tozalash va normalizatsiya amalga oshiriladi. Uchinchi bosqichda matematik dekompozitsiya yoki past o‘lchamli fazoga proyeksiyalash orqali informativ belgilar ajratib olinadi. To‘rtinchi, yakuniy bosqichda esa ushbu belgilar chekka hisoblash qurilmalarida tasniflash yoki kvantlash jarayonidan o‘tkaziladi. Ushbu to‘rt bosqichli taksonomiya quyidagi tahlilning tuzilish asosini tashkil etadi va 6-bo‘limda taklif etilayotgan arxitekturaning ham negizini belgilaydi.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli adabiyotlar tahlili (systematic literature review) yondashuvi qo‘llanildi. Ko‘rib chiqish uchun nafas olish tizimi patologiyalarini aniqlashga qaratilgan hamda aniq matematik-algoritmik apparatga ega bo‘lgan o‘nta ilmiy ish tanlab olindi. Har bir ish quyidagi to‘rtta mezon bo‘yicha baholandi: 1) qo‘llanilgan matematik apparat va uning nazariy asosi; 2) taklif etilgan algoritmik arxitektura; 3) hisoblash murakkabligi hamda apparat resurslariga (xotira, energiya, kechikish) bo‘lgan talab; 4) eksperimental aniqlik ko‘rsatkichlari. Tanlangan ishlar shartli ravishda ikki guruhga ajratildi: birinchi guruhga chuqur o‘rganish va transfer-o‘rganishga asoslangan tasniflash modellari, ikkinchi guruhga esa nafas olish tizimining fiziologik-matematik modellashtirilishiga bag‘ishlangan ishlar kiritildi; alohida holda esa apparat-dasturiy siqish va chekka joylashtirish texnologiyalariga oid umumlashtiruvchi tahlil ko‘rib chiqildi. Har bir manbaning to‘liq bibliografik tafsilotlari 8-bo‘limdagi adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Ko‘rib chiqilgan ishlarning ilmiy-matematik tahlili: Ashraf va hammualliflari tomonidan taklif etilgan yondashuvda o‘pka to‘qimalarining gistologik tasvirlarini tasniflash uchun ikki xususiyatli avtoenkoder (Dual-Featured Auto-Encoder, DFAE) arxitekturasi ishlab chiqilgan[1]. Modelning matematik asosini topologik ma‘lumotlar tahlili (Persistent Homology Algorithm Toolbox, PHAT) tashkil etadi, u yordamida fazoviy va spektral xususiyatlar ko‘p kanalli invariantlar sifatida birlashtiriladi. Tasvir super-rezolyutsiyali avtoenkoder orqali kiritilgan ma‘lumot quyidagi o‘rtacha kvadratik xato funksiyasini minimallashtiruvchi bo‘yin qatlamiga proyeksiyalanadi:

$$min_{\Theta} L_{MSE}(x, \hat{x}) = (1/N) \Sigma_{i=1..N} \|x_i - Dec(Enc(x_i))\|^2$$

Olingan siqilgan xususiyatlar so‘ngra uch qatlamli konvolyutsion arxitektura (Triple Layered Convolutional Architecture, TLCA) orqali tasniflanadi. Bo‘yin qatlamidagi parametrlar soni taxminan 295 mingtani tashkil etib, bu ko‘rsatkich standart chuqur modellarga (masalan, ResNet-50) nisbatan sezilarli darajada yengil hisoblanadi. Biroq PHAT algoritmining hisoblash murakkabligi kub tartibida ($O(V^3)$) o‘sishi sababli, modelni chekka protsessorlarda dastlabki ishlov berish bosqichida sekinlashish kuzatiladi. CIMA gistologik ma‘lumotlar bazasida o‘tkazilgan tajribalarda model 96,07% aniqlik, 94,00% precision, 92,15% recall va 91,96% F1-ko‘rsatkichga erishgan.

COVID-19ni chuqur belgilar va parametrsiz BAT optimallashtirish asosida tashxislash: Kaur va hammualliflari mobil muhitda ishlashga moslashtirilgan Depthwise Separable Convolution hisoblash modeliga asoslangan yondashuvni

taklif etishgan[2]. An’anaviy va ajratilgan konvolyutsiya operatsiyalarining hisoblash xarajatlari quyidagicha ifodalanadi:

$C_{conventional} = h_p \cdot w_p \cdot d_p \cdot d_q \cdot k^2$, $C_{separable} = h_p \cdot w_p \cdot d_p(d_q + k^2)$

Bunda ajratilgan konvolyutsiyaning nisbiy hisoblash xarajati C_separable/C_conventional = 1/d_q + 1/k² formulasi bilan aniqlanadi, bu esa FLOPs miqdorini standart VGG-16 arxitekturasiga nisbatan taxminan 75–80% ga kamaytirishga imkon beradi. Belgilar MobileNetV2 tarmog‘i orqali ajratib olingandan so‘ng, ular Parameter-Free BAT (PF-BAT) metaevristik algoritmi yordamida optimallashtirilgan Fuzzy K-Nearest Neighbor (FKNN) klassifikatoriga uzatiladi; bunda a‘zolik funksiyasining k va noaniqlik kuchi b parametrlari ikki o‘lchamli fazoda (O(2)) global optimallashtiriladi. Benchmark COVID CT ma‘lumotlar bazasida validatsiya aniqligi 99,38%, precision 99,20%, recall 99,60%, F1 99,40% va AUC 99,58% ko‘rsatkichlariga erishilgan.

Neonatal respirator distress-sindromini gibrid chuqur o‘rganish orqali aniqlash (NDL-Net): Ko‘krak qafasi rentgenogrammalari asosida neonatal respirator distress-sindromini (NRDS) tashxislash uchun taklif etilgan NDL-Net gibrid arxitekturasi MobileNetV3-Large va ResNet50 konvolyutsion qatlamlari orqali fazoviy invariantlarni ajratib, so‘ngra rekurrent LSTM xotira katagi yordamida tekstura va ketma-ketlik gradientlarini modellashtiradi [3]. LSTM katagining asosiy tenglamalari quyidagicha:

$f_t = \sigma(W_f \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_f)$, $i_t = \sigma(W_i \cdot [h_{t-1}, x_t] + b_i)$

$C_t = f_t * C_{t-1} + i_t * \tilde{C}_t$, $h_t = o_t * tanh(C_t)$

ResNet50 bloklarining qo‘shilishi umumiy parametrlar sonini 25 milliondan oshirib, hisoblash murakkabligini oshiradi, biroq MobileNetV3 qismi hisobiga oraliq tenzorlar siqiladi. Modelning aniqlik ko‘rsatkichlari quyidagicha: aniqlik 98,09%, precision 97,45%, sezuvchanlik (sensitivity) 98,73%, o‘ziga xoslik (specificity) 98,73% va F1 98,08%.

COVID-19ni CNN-GMM yondashuvi asosida aniqlash va tarqalishini bashoratlash: Khan va hammualliflari tomonidan stoxastik taqsimotlarni approksimatsiyalash uchun Gauss aralashma modeli (Gaussian Mixture Model, GMM) va Expectation-Maximization (EM) algoritmiga asoslangan yondashuv taklif etilgan [4]:

$p(x|\lambda) = \Sigma_{i=1..k} M_i \cdot N(x; \mu_i, \Sigma_i)$, $\Sigma_{i=1..k} M_i = 1$

GMM komponentlarining o‘rtacha qiymati μ va kovariatsiyasi Σ asosida chiziqli regressiya prediksiyasi amalga oshiriladi. Yengil maxsus 2D-CNN (uch sinfli tasniflagich), Monte-Karlo simulyatsiyasi va GMM regressori birlashtirilgan holda qo‘llaniladi. Komponentlar soni k=2 bilan fiksirlanganligi sababli GMM hisoblash

murakkabligi $O(k^2n) \approx O(n)$ darajasida bo‘lib, bu resurs-cheklangan mikrokontrollerlar uchun juda tejamkor hisoblanadi. Sinov to‘plamida aniqlik 96,66% ni, o‘qitish to‘plamida esa 100% ni tashkil etgan.

ARDS bilan bog‘liq nafas olish tizimini bioimpedans modellashtirish: Awad va hammualliflarining tadqiqoti chuqur o‘rganishdan farqli ravishda, o‘pka anatomiyasining 24 avlodli Veybel (Weibel) modeliga asoslangan analitik-fizik yondashuvni taqdim etadi [5]. Model 16,7 milliondan ortiq RLC (rezistor-induktivlik-sig‘im) zanjirlari va qariyb 67,1 million passiv komponentdan iborat elektro-akustik bioimpedans tenglamalar tizimini o‘z ichiga oladi:

$$m_a(n) = \rho_0 l/S, \quad C_a(n) = V/(\rho_0 C_0^2), \quad r_a(n) = 8\mu l/(\pi R_t^4)$$

Umumiy impedans (Total Lung Impedance, TLI) quyidagi rekursiv teskari hisoblash formulasi orqali aniqlanadi:

$$E(n) = \tfrac{1}{2}\cdot[(E(n+1)+Z(n))\cdot Z_c(n)] \,/\, [(E(n+1)+Z(n))+Z_c(n)] + Z(n)$$

Nodal bioimpedans matritsalari MATLAB muhitidagi differensial tenglamalar yechuvchisi orqali 1–1200 min^{-1} chastota diapazonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri integrallanadi. Diskret hisoblashda murakkablik O(N) (N=24 qatlamli binar daraxt) darajasida bo‘lib, model TinyML tizimlari uchun parametrlar generatori (lookup table) vazifasini bajarishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, past chastotali ventilyatsiyada (0,25 Hz) alveolyar rigidlik o‘zgarishi bosimning distal tarqalishiga bevosita ta‘sir qilishi isbotlangan.

Ko‘krak qafasi rentgenogrammasi asosida COVID-19ni sun‘iy intellekt yordamida aniqlash: Bekhet va hammualliflari tomonidan taklif etilgan yondashuv kattalashtirilgan (5×5) yadroli konvolyutsiya operatoriga asoslangan bo‘lib, quyidagi konvolyutsiya amali va log-loss xato funksiyasidan foydalaniladi:

$$(X \circledast K)(i,j) = \Sigma_m \Sigma_n K(m,n)\cdot X(i-m, j-n)$$

Besh qatlamli ixcham maxsus CNN arxitekturasi (Dropout = 0,5, Flatten = 2048, sigmoid chiqish qatlami) qo‘llanilgan. Modelning FLOPs miqdori va xotira sig‘imi (< 1,5 MB) juda past bo‘lib, bu uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ARM Cortex-M seriyali mikrokontrollerlarga port qilish imkonini beradi. Validatsiya aniqligi 96,00% ni, radiologik konsensus tekshiruvida esa 99,00% ni tashkil etgan.

Kardiopulmonar gaz almashinuvining patologik sharoitlarda integratsiyalashgan modellashtirilishi: Anjana va hammualliflarining tadqiqoti 70 kg vaznli inson uchun fiziologik/klinik parametrlarga (kardiopulmonar bosim, havo oqimi va gaz konsentratsiyalari) asoslangan integratsiyalashgan modelni taqdim etadi[7]. Yurak-qon tomir tizimi 20 kompartmentli Windkessel modeli, o‘pka gaz almashinuvi esa quyidagi differensial tenglama orqali ifodalanadi, u 4-tartibli Runge-Kutta usuli bilan ($h = 10^{-4}$ s qadam bilan) yechiladi:

$$V_A \cdot \dot{P}_{ACO2} = 863 \cdot Q_{pp} \cdot (C_{vCO2}(t-\tau_v) - C_{aCO2}) + u(\dot{V}_A) \cdot \dot{V}_A \cdot (P_{iCO2} - P_{ACO2})$$

Barorefleks va xemorefleks afferent/efferent uzatish funksiyalari sigmoidal va eksponensial ko‘rinishlarda modellashtiriladi. Uzluksiz tizimli nochiziqli dinamika o‘lchamlarni qisqartirish orqali chekka qurilmalarda real vaqtli “raqamli egizak” (Digital Twin) sifatida qo‘llanilishi mumkin; RMS xatoligi 3,48 mmHg gacha pasaytirilgan holda kardiopulmonar bosim gradientlarini bashorat qilish mumkinligi ko‘rsatilgan.

O‘pka tovushlarini parallel pooling tuzilmali CNN modeli asosida tasniflash: Demir va hammualliflari tomonidan STFT (Short-Time Fourier Transform) asosida spektrogramma hosil qilish hamda parallel pooling (Max-Pooling va Average-Pooling qatlamlarining parallel qo‘shilishi) yondashuvi taklif etilgan, bu fazoviy va o‘rtacha energiya invariantlarini bir vaqtda saqlab qolish imkonini beradi [8]. Sinflararo dispersiyani maksimallashtirish uchun LDA proyeksiyasi qo‘llaniladi:

$$B^* = \arg\max_B \det(B^T S_b B) / \det(B^T S_w B)$$

350 ta chuqur belgi (deep feature) Random Subspace Ensembles (RSE) bilan quvvatlangan LDA klassifikatoriga uzatiladi. End-to-end chuqur modellarga nisbatan o‘qitish va xulosa chiqarish vaqti ancha past (O(M·d·K) tartibida). ICBHI 2017 ma‘lumotlar bazasida to‘rt sinfli tasniflash aniqligi 71,15% ni tashkil etib, bu mavjud usullarga nisbatan 5,75 foiz punktga yaxshilanishni anglatadi.

O‘pka saratonini adaptiv ierarxik evristik matematik model asosida bashoratlash: Yu va hammualliflari tomonidan Markov Blankets (MBs) asosidagi qisqartirilgan Bayes tarmoqlari, generativ raqib tarmoqlari (GAN) mini-maks optimallashtiruvi hamda Bellman tenglamalariga asoslangan Deep Q-Networks (DQN) doza adaptatsiyasini birlashtirgan Adaptive Hierarchical Heuristic Mathematical Model (AHHMM) taklif etilgan [9]:

$$P^*(w,b) = E_{r\sim Qwb}\,[T(w,b) + \delta \cdot \max_{a \in B} P^*(r,a)]$$

AHHMM modifikatsiyalangan K-means segmentatsiyasi va chuqur neyron tarmog‘i bilan birga qo‘llaniladi. Dastlabki 297 ta parametr 9 ta muhim invariantga qisqartirilishi hisobiga xulosa chiqarish tezligi sezilarli darajada oshgan, bu esa o‘rta darajadagi hisoblash resursi bilan ham yuqori unumdorlikni ta‘minlaydi. Segmentatsiya va aniqlash ko‘rsatkichlari 96,67% dan 98,9% gacha oralig‘ida qayd etilgan.

O‘pka tovushlarini intellektual tashxislashda model siqish va apparat platformalari tahlili: Lu va hammualliflarining umumlashtiruvchi tadqiqoti modelni siqish nazariyasining uchta asosiy yo‘nalishini tizimlashtiradi: birinchidan, Gessian matritsasi va L_1-norma asosidagi strukturaviy va nostrukturaviy pruning; ikkinchidan, FP32 formatidan INT8/INT4 formatiga og‘ishsiz proyeksiyalashga

imkon beruvchi Quantization-Aware Training (QAT) va Post-Training Quantization (PTQ); uchinchidan, o‘qituvchi-o‘quvchi (teacher-student) arxitekturasi orqali yumshoq ehtimollik taqsimotini uzatuvchi Knowledge Distillation (KD) usuli [10]. Turli apparat platformalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, Raspberry Pi / ARM Cortex-A platformalarida quvvat sarfi taxminan 650–750 mVt va kechikish 18–22 ms ni tashkil etadi; FPGA (Xilinx Artix-7, Zynq-7000) platformalarida konveyerli parallel hisoblash hisobiga quvvat sarfi 129–350 mVt gacha, kechikish esa 5 ms gacha qisqarib, CPUga nisbatan 21 martalik tezlanishga erishiladi; maxsus ASIC yechimlari (SMIC 130 nm, TSMC 180 nm) esa 0,38 mVt atrofidagi ultra-past quvvat sarfi va 2,76 mm² maydon bilan real vaqtli kiyiladigan monitoring uchun eng maqbul variant hisoblanadi.

Qiyosiy ilmiy-texnik tahlil: 1-jadvalda yuqorida tahlil qilingan barcha o‘nta tadqiqot ishi Edge AI mezonlari asosida qiyosiy tizimlashtirilgan.

Manba	Matematik/algoritmik model	Hisoblash murakkabligi / resurs sarfi	Aniqlik ko‘rsatkichi	Chekka qurilmalarga moslik
Ashraf va boshq, 2024	DFAE (PHAT) + TLCA	≈295k parametr; PHAT - $O(V^3)$	Acc 96,07%	GPU talab qiladi; PHAT blokini soddalashtirish zarur
Kaur va boshq, 2021	MobileNetV2 + PF-BAT-FKNN	FLOPs ≈20% (VGG-16 ga nisb.); optimallashtirish O(2)	Acc 99,38%	DSP va mobil ARM protsessorlarda real-time ishlashga mos
Arslan va boshq, 2025	MobileNetV3 + ResNet50 + LSTM (NDL-Net)	>25M parametr (ResNet50 hisobiga yuqori)	Acc 98,09%	Chekka qurilmalar uchun og‘ir; strukturaviy pruning talab etiladi
Khan va boshq, 2020	Ixcham 2D-CNN + Monte-Karlo + GMM regressori	GMM uchun O(n) (k=2 fiksirlangan); CNN <1M parametr	Test acc 96,66%	Cortex-M4/M7 mikrokontrollerlar uchun mos
Awad va boshq, 2021	24-avlodli Weibel RLC bioimpedans modeli	Analitik model; diskret hisoblashda O(N), N=24	RMS xato ≤3,48 mmHg	To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘rnatilmaydi; LUT generatori sifatida qo‘llanadi

Manba	Matematik/algoritmik model	Hisoblash murakkabligi / resurs sarfi	Aniqlik ko‘rsatkichi	Chekka qurilmalarga moslik
Bekhet va boshq, 2020	5 qatlamli ixcham CNN (5×5 yadro)	Xotira <1,5 MB; juda past FLOPs	Acc 96,00% / klinik 99,00%	ARM Cortex-M seriyasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri port qilinadi
Anjana va boshq, 2025	20-kompartmentli Windkessel + gaz almashinuvi RK-4	Qattiq nochiziqli differensial tenglamalar tizimi	RMS xato ≤3,48 mmHg	Chekka tizimlarda “Digital Twin” sifatida qisqartirilgan tartibda
Demir va boshq, 2020	Parallel Pooling CNN + RSE-LDA	O(M·d·K); end-to-end modellarga nisb. past	4-sinf Acc 71,15% (ICBHI 2017)	Xotira va vaqt talabi past, oson implementatsiya qilinadi
Yu va boshq, 2020	AHHMM (Bayes tarmog‘i + GAN + DQN)	297 parametrdan 9 invariantga qisqartirilgan	Segmentatsiya/aniqlash 96,67–98,9%	O‘rta darajadagi resurs bilan tezkor xulosa chiqarish
Lu va boshq, 2025	Pruning + QAT/PTQ + Knowledge Distillation	FPGA: 129–350 mVt, ≤5 ms; ASIC: ≈0,38 mVt	Model turiga ko‘ra 81,4–99,94%	To‘liq Edge AI/TinyML paradigmasi (FPGA, ASIC, ARM Cortex)

1-jadval. Ko‘rib chiqilgan ishlarning 05.01.04 ixtisosligi va Edge AI mezonlari bo‘yicha qiyosiy tahlili (manba: muallif tomonidan tuzilgan).

Aniqlangan ilmiy bo‘shliqlar

O‘tkazilgan tizimli tahlil natijasida amaliy tibbiy tizimlar talablari nuqtai nazaridan quyidagi to‘rtta jiddiy ilmiy bo‘shliq aniqlandi.

Birinchidan, akustik va vizual signallarning multimodal integratsiyasi yetishmasligi kuzatiladi. Ko‘rib chiqilgan ishlarning aksariyati yo faqat rentgen/KT tasvirlari, yo faqat stetoskop auskultatsiya signallari bilan ishlaydi. Ayni paytda pnevmoniya yoki KO‘AK holatlarida auskultatsiya tovushlari (xirillashlar, krepitatsiya) va bioimpedans bosim o‘zgarishlari rentgenologik o‘zgarishlardan ancha oldinroq namoyon bo‘lishi ma’lum, biroq bu ikki modallikni birlashtiruvchi yagona matematik apparat mavjud emasligi aniqlandi.

Ikkinchidan, kvantlash va apparat optimizatsiyasi bilan bog‘liq uzilish mavjud. Yuqori aniqlik (98–99%) ko‘rsatgan modellar, xususan NDL-Net va ResNet50 asosidagi tizimlar, millionlab parametrlarga ega bo‘lib, FP32 formatida ishlaydi. Ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri 8-bitli mikrokontrollerlarga yoki chekka DSP larga o‘tkazishda paydo bo‘ladigan kvantlash xatosi matematik jihatdan kompensatsiya qilinmagan holicha qolmoqda.

Uchinchidan, ma’lumotlar bazalarining nomutanosibligi (class imbalance) va shovqinga sezgirlik muammosi yetarlicha o‘rganilmagan. ICBHI 2017 kabi ochiq ma’lumotlar bazalarida “Normal” sinfi anomal sinflarga nisbatan keskin ustunlik qiladi, shovqinli muhitda (yurak urishi, tashqi akustik shovqin) olingan signallarda esa modellarning barqarorligi yetarli darajada baholanmagan.

To‘rtinchidan, fiziologik-matematik modellar bilan chuqur o‘rganish arxitekturalari o‘rtasidagi gibridizatsiya yetishmaydi. Awad va Anjana tomonidan taqdim etilgan yuqori aniqlikdagi differensial/RLC modellari sun’iy intellekt tarmoqlariga fizik invariantli cheklov (Physics-Informed Neural Networks, PINN) sifatida hali integratsiya qilinmagan, holbuki bunday gibridizatsiya modelning kichik ma’lumotlar to‘plamlarida ham fizik jihatdan izchil bashorat qilish qobiliyatini oshirishi mumkin.

Taklif etilayotgan arxitektura va uning ilmiy-nazariy yangiligi

Aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etish hamda yuqoridagi olimlar tomonidan o‘rganilgan ishlarning nazariy va amaliy yangiligini ta’minlash maqsadida quyidagi resurs-tejamkor gibrid apparat-dasturiy yechim taklif etiladi. Taklif etilayotgan konveyer besh bosqichdan iborat: birinchi bosqichda nafas signali (auskultatsiya, oqim) shovqindan tozalanadi hamda adaptiv variatsion rejim dekompozitsiyasi (Adaptive Variational Mode Decomposition, AVMD) va tez Wavelet/butun sonli lifting sxemasi orqali dastlabki ishlov beriladi; ikkinchi bosqichda Log-Mel spektrogramma va fraksional bioimpedans qidiruv jadvali (LUT) birlashtirilgan holda xususiyat ifodasi shakllantiriladi; uchinchi bosqichda MobileNetV3 yoki GhostNet arxitekturasi asosidagi, Quantization-Aware Training (QAT) yordamida INT8 formatiga kvantlangan yengil orqa asosiy tarmoq (backbone) qo‘llaniladi; to‘rtinchi bosqichda parallel pooling va yengil vaqtinchalik konvolyutsion tarmoq (Temporal ConvNet, TCN) yordamida fazoviy-vaqtinchalik birlashtirish amalga oshiriladi; beshinchi, yakuniy bosqichda esa model FPGA (Xilinx Zynq yoki Artix-7) yoxud ARM Cortex-M55 (TinyML) platformasida joylashtiriladi.

Bosqich	Vazifa	Tavsiya etilgan usul
1-bosqich	Shovqindan tozalash	Adaptiv VMD + tez Wavelet / butun sonli lifting sxemasi

Bosqich	Vazifa	Tavsiya etilgan usul
2-bosqich	Xususiyat ifodasi	Log-Mel spektrogramma + fraksional bioimpedans LUT
3-bosqich	Yengil orqa tarmoq	MobileNetV3 / GhostNet (QAT INT8 kvantlangan)
4-bosqich	Fazoviy-vaqtinchalik birlashtirish	Parallel Pooling + yengil TCN
5-bosqich	Chekka joylashtirish	FPGA (Xilinx Zynq / Artix-7) yoki ARM Cortex-M55

2-jadval. Taklif etilayotgan resurs-tejamkor gibrid arxitekturaning besh bosqichli konveyeri.

Taklif etilayotgan yechimning ilmiy-nazariy yangiligi uch yo‘nalishda ifodalanadi. Birinchidan, matematik apparat nuqtai nazaridan, nafas olish siklidagi nochiziqliklarni hisobga oluvchi fraksional tartibli differensial modellar va adaptiv variatsion rejim dekompozitsiyasi asosidagi shovqinni filtrlash algoritmi taklif etiladi. Ikkinchidan, dasturiy yechim nuqtai nazaridan, QAT asosida optimallashtirilgan hamda hisoblash murakkabligi O(N) dan oshmaydigan, to‘liq 8-bitli butun sonli arifmetikada ishlovchi neyrotarmoq topologiyasi ishlab chiqiladi. Uchinchidan, apparat platformasi nuqtai nazaridan, kamida 20 martalik tezlanish va 200 mVt dan past quvvat sarfini ta‘minlovchi FPGA/Zynq apparat konveyeri arxitekturasi asoslanadi. Ushbu uch yo‘nalishning birgalikda qo‘llanilishi yuqorida aniqlangan kamchiliklarning barchasini - multimodal integratsiya, kvantlash xatosi, sinflar nomutanosibligi va fizik-nazariy gibridizatsiya yetishmasligini - bir vaqtning o‘zida bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa: O‘tkazilgan tizimli tahlil shuni ko‘rsatdiki, nafas olish tizimi patologiyalarini intellektual tashxislash sohasida chuqur o‘rganishga asoslangan modellar yuqori aniqlik (96–99%) ko‘rsatsa-da, ularning aksariyati chekka hisoblash qurilmalariga moslashtirilmagan holda qolmoqda, fiziologik-matematik modellar esa yuqori analitik aniqlikka ega bo‘lsada, zamonaviy sun‘iy intellekt arxitekturalari bilan gibridlashtirilmagan. Maqolada taklif etilgan besh bosqichli resurs-tejamkor gibrid arxitektura - fraksional-differensial shovqin filtrlash, kvantlangan butun sonli neyrotarmoq topologiyasi va FPGA/TinyML apparat platformasining uyg‘unlashuvi - ushbu uzilishni bartaraf etishga qaratilgan nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlar doirasida taklif etilgan arxitekturaning real klinik ma‘lumotlar to‘plamlarida eksperimental validatsiyasi, shuningdek fizik invariantli

cheklovlarni (PINN) neyrotarmoq o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish algoritmlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ashraf A., Nawi N.M., Shahzad T., Aamir M., Khan M.A., Ouahada K. Dimension Reduction Using Dual-Featured Auto-Encoder for the Histological Classification of Human Lungs Tissues // IEEE Access. – 2024. – Vol. 12. – P. 104165–104176. DOI: 10.1109/ACCESS.2024.3434592.
2. Kaur T., Gandhi T.K., Panigrahi B.K. Automated Diagnosis of COVID-19 Using Deep Features and Parameter Free BAT Optimization // IEEE Journal of Translational Engineering in Health and Medicine. – 2021. – Vol. 9. – Art. 1800209. – P. 1–9. DOI: 10.1109/JTEHM.2021.3077142.
3. Arslan va boshq. NDL-Net: Hybrid Deep Learning Framework for Diagnosing NRDS From Chest X-Rays. – 2025.
4. Khan va boshq. Detection and Spread Prediction of COVID-19 using CNN-GMM. – 2020. 2020 IEEE 6th International Conference on Computer and Communications (ICCC).
5. Awad va boshq. Modeling and Simulation of Respiratory System for ARDS Associated with COVID-19. – 2021.
6. Bekhet S. va boshq. AI Based Technique for COVID-19 Diagnosis from Chest X-Ray. – 2020.
7. Anjana va boshq. Simulation of an Integrated Cardiopulmonary Gas Exchange Model Under Pathological Conditions. – 2025. [Jurnal nomi, jild va sahifalar tasdiqlanishi lozim.]
8. Demir F., Sengur A., Bajaj V. Classification of Lung Sounds With CNN Model Using Parallel Pooling Structure // IEEE Access. – 2020. – Vol. 8. – P. 105376–105383. DOI: 10.1109/ACCESS.2020.3000111.
9. Yu H. va boshq. Deep Learning Assisted Predict of Lung Cancer on Computed Tomography Images Utilizing Adaptive Hierarchical Heuristic Mathematical Model (AHHMM). – 2020.
10. Lu va boshq. Research Progress and Future Prospects in Intelligent Lung Sound Diagnosis: Models, Lightweight Design, and Hardware Platform Implementation. – 2025.

BOLALARDA SEMIZLIK VA METABOLIK ASORATLARNING IMMUNOLOGIK, KLINIK VA IQTISODIY MEXANIZMLARI: GLOBAL TAHLILLAR

Babajanova Dilafro‘z
Kimyo Xalqaro Universiteti Pediatriya fakulteti 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: *Ibragimova Shoira Abdunabiyevna*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bolalar va o‘smirlar o‘rtasidagi semizlik patologiyasining nafaqat kardiometabolik, balki kognitiv, immunologik, endokrin va neyrorivojlanish tizimlariga ko‘rsatadigan tizimli salbiy asoratlari xalqaro klinik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Kasallik keltirib chiqaradigan ijtimoiy-iqtisodiy yuk hamda vazn yo‘qotishning ushbu xavflarni ortga qaytarishdagi (reversivlik) roli yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *pediatriya, metabolik yallig‘lanish, kognitiv faoliyat, insulin rezistentligi, reversivlik.*

1. KIRISH VA MUAMMONING DOLZARBLIGI

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, bolalar semizligi XXI asrning eng jiddiy global muammolaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo bo‘ylab 100 milliondan ortiq bola semizlikdan aziyat chekmoqda va bu ko‘rsatkich mutanosib ravishda o‘sib bormoqda. So‘nggi bir necha o‘n yillikda global miqyosda sanitariya holatining yaxshilanishi va chekish kabi zararli odatlarning kamayishi hisobiga ko‘plab salomatlik xavflari pasaygan bo‘lsa-da, yuqori tana vazni indeksi bilan bog‘liq xavflar keskin ortdi. Semizlikning tarqalish ko‘rsatkichi dunyoning yetmishdan ortiq mamlakatida ikki barobarga ko‘paygan.

Bolalik va o‘smirlik davridagi semizlik faqatgina tashqi ko‘rinish nuqsoni bo‘lmay, barvaqt o‘lim xavfini keltirib chiqaruvchi tizimli kasallikdir. Semizlik deyarli barcha a’zolar tizimiga, jumladan, yurak-qon tomir, endokrin, ovqat hazm qilish va tayanch-harakat tizimlariga halokatli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, ortiqcha vaznli bolalar jamiyatda va ta’lim muassasalarida kuchli ijtimoiy kamsitish (stigma) hamda depressiyaga duchor bo‘lishadi, bu esa ularning hayot sifatini keskin pasaytiradi.



2. SEMIZLIK VA IMMUN TIZIMI: METABOLIK YALLIG‘LANISH MEXANIZMI

Yog‘ to‘qimasida patologik miqdorda yog‘ hujayralari yig‘ilishi natijasida adipotsitlar gipertrofiyaga uchraydi. Bu jarayon organizmda infeksion bo‘lmagan patologik immun aktivatsiyani ishga tushirib, past intensivlikdagi surunkali yallig‘lanishni keltirib chiqaradi. Tibbiyotda ushbu holat "metabolik yallig‘lanish" yoki "metinflammasiya" deb ataladi.

Semizligi bor bolalarda yallig‘lanishni kuchaytiruvchi pro-yallig‘lanish sitokinlari — o‘sma nekrozi omili-alpha (TNF-α), rezistin va retinol-bog‘lovchi oqsil-4 miqdori keskin ortadi, yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega adiponektin sekresiyasi esa kamayadi. Ishtahani va balog‘at yoshini boshqaruvchi leptin gormonining ortiqcha ajralishi immun tizimini giperaktivatsiya qilib, yallig‘lanish zanjirini yanada kuchaytiradi. Bundan tashqari, o‘sish gormonining pasayishi, kortizol bio-samaradorligining ortishi, uyqu buzilishlari va ichak mikrobiomasining patologik o‘zgarishi o‘zaro qo‘shilib, organizmda qaytarib bo‘lmas immunologik asoratlarni shakllantiradi.



3. KLINIK VA AUTOIMMUN ASORATLAR

Aktivlashgan immun tizimi va surunkali yallig‘lanish markerlari, xususan, C-reaktiv oqsilning yuqoriligi hatto maktabgacha yoshdagi semiz bolalarda ham aniqlanadi. Bu holat bolalarda bronxial astmaning og‘ir shakllari rivojlanishiga, infeksion kasalliklar (masalan, COVID-19 va boshqa virusli infeksiyalar) davrida o‘ta og‘ir asoratlar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, bolalikdagi semizlik markaziy asab tizimining og‘ir demielinizatsiyalovchi kasalligi bo‘lgan tarqoq skleroz (multiple sclerosis), Kron kasalligi, revmatoid artrit va tizimli qizil bo‘richa kabi autoimmun xastaliklar xavfini keskin oshiradi.

4. KARDIORESPIRATOR SALOMATLIK VA YURAK XASTALIKLARI

Kardiologik kasalliklar va tomirlarning qalinlashishi (ateroskleroz) yillar davomida juda sekin shakllangani bois, bolalikdagi semizlik kelajakda to‘satdan yurak xurujidan o‘lim xavfini 3 barobargacha oshiradi. Semiz bolalarning 37 foizida arterial gipertenziya kuzatiladi. Ayniqsa, tungi vaqtda qon bosimining pasaymasligi (nondipping holati) o‘smir yoshlar o‘rtasida o‘ta ko‘p aniqlanmoqda, bu esa kardiologik xavfning yuqori darajasidan dalolat beradi.

O‘pka-yurak tizimining jismoniy chidamliligi (kardiorespirator fitnes) semiz bolalarda keskin pasayadi, ularning tana vazniga nisbatan kislorod iste’mol qilish qobiliyati (VO2 max) normal vaznli tengdoshlariga qaraganda har doim past bo‘ladi. Og‘ir semizlikda qo‘llaniladigan bariatrik jarrohlik o‘pka hajmini kengaytirib,

kardiometabolik ko‘rsatkichlarni yaxshilasa-da, bu jarayonlarni bolalik davrida, ya’ni dori-darmonsiz va operatsiyasiz hal qilish eng samarali strategiya hisoblanadi.

5. GLYUKOZA GOMEOSTAZI VA AGRESSIV 2-TUR QANDLI DIABET

Semizlik jigar, skelet mushaklari va yog‘ to‘qimasida insulin rezistentligini keltirib chiqaradi. Oshqozon osti bezining β-hujayralari ushbu rezistentlikni kompensatsiya qila olmay qolgan bosqichda 2-tur qandli diabet shakllanadi.

O‘smirlar va yoshlarda boshlanadigan 2-tur qandli diabet o‘rta yoshda paydo bo‘ladigan diabetga qaraganda o‘ta agressiv va tez rivojlanuvchi xarakterga ega. Unda buyrak etishmovchiligi (nefropatiya), ko‘rlik (retinopatiya) va asab tolalari shikastlanishi (neyropatiya) kabi og‘ir mikrovaskulyar asoratlar bir necha yil ichida rivojlanib, o‘lim ko‘rsatkichini keskin oshirib yuboradi. Terida to‘q rangli giperpigmentatsiyaning paydo bo‘lishi (acanthosis nigricans) va HbA1c gormonining balandligi insulin rezistentligining asosiy klinik belgisidir.



6. JIGARNING METABOLIK YOG‘ BOSISHI XASTALIGI (MAFLD)

Semizlik oqibatida bugungi kunda bolalar o‘rtasida eng ko‘p uchraydigan jigar kasalligi — NAFLD/MAFLD (metabolik disfunksiya bilan bog‘liq jigar yog‘ bosishi) hisoblanadi. Semiz o‘smirlarning 28 foizidan 41 foizigacha bo‘lgan qismida jigar hujayralarining yog‘ bilan infiltratsiyalanishi kuzatiladi.

Jigarda yog‘ to‘planishi insulin rezistentligini yanada chuqurlashtirib, jigar fermenti (ALT) faolligini oshiradi va 2-tur diabet rivojlanish xavfini 2.6 barobarga ko‘paytiradi. Kasallik o‘z vaqtida davolanmasa, jigar fibrozi va steatohepatitga o‘tib ketadi. Bolalik davridagi muvaffaqiyatli vazn yo‘qotish esa jigarni to‘liq qayta tiklash (reversivlik) imkonini beradi.

7. BOSHQA ENDOKRIN BUZILISHLAR: QALQONSIMON BEZ VA VITAMIN D

Semizligi bor bolalarda qalqonsimon bez funksiyasining o‘ziga xos disbalansi muntazam kuzatiladi. Laborator tahlillarda tireotrop gormon (TTG / TSH) darajasining ko‘tarilishi aniqlansa-da, T3 va T4 gormonlari ko‘pincha me’yor chegarasida bo‘ladi. Bu holat semizlik keltirib chiqaradigan va ortga qaytuvchi (reversiv) gormonal o‘zgarish bo‘lib, bola vazn tashlaganda TTG ko‘rsatkichi dori-darmonsiz to‘liq normallashadi.

Shuningdek, semiz bolalarda Vitamin D darajasining pastligi o‘ta keng tarqalgan muammodir. Vitamin D gormonining kamayishi teri osti yog‘ to‘qimasida to‘planib qolishi (sekvestratsiya) hamda bu to‘qimada vitamin faollashuvini ta’minlovchi fermentlar (25-hydroxylase CYP2J2 va 1a-hydroxylase CYP27B1) faolligining pasayishi bilan bog‘liq. Kamharakat hayot tarzi va bino ichidagi (indoor) faoliyat ham bunga sabab bo‘ladi.

8. O‘SISH GORMONI (GH), IGF-1 VA BO‘Y O‘SISHI DINAMIKASI

Semizlikda o‘sish gormoni (GH) darajasi xuddi gormonal etishmovchilik patologiyalaridagidek keskin pasayadi (downregulation). Biroq, shunga qaramay, qonda insulinlararo o‘sish omili-1 (IGF-1) miqdori normal saqlanadi. Bu holatda ortiqcha yog‘ to‘qimasi IGF-1 ning asosiy manbaiga aylanadi.

O‘sish gormoni (GH) darajasi past bo‘lishiga qaramay, semiz bolalar normal vaznli tengdoshlariga qaraganda tezroq o‘sadi (bo‘yi tez cho‘ziladi). Ammo jinsiy balog‘at davrida ularning o‘sish tezligi sekinlashadi va yakuniy bo‘y ko‘rsatkichi me’yordagi bolalar bilan bir xil darajada tugaydi. Past GH darajasi bolalarda xotira zaifligi va uyatchanlik kabi psixologik o‘zgarishlarga ham ta’sir ko‘rsatadi.

9. SUYAK SALOMATLIGI VA SINISH (FRACTURE) XAVFI

Yuqori tana vazni suyak massasining o‘sishini mexanik stimullashi tufayli ularda suyak mineral zichligi baland bo‘ladi. Biroq, metabolik sindrom bilan bog‘liq endokrin va parakrin omillar suyak ko‘migiga tizimli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kutilganiga teskari o‘laroq, semiz bolalarda suyak sinishi ko‘rsatkichi normal vaznli bolalarga qaraganda ancha yuqori. Bunga og‘ir tana vaznining yiqilish paytida suyakka tushadigan mexanik yuklamani oshirishi, bolalarda motorik ko‘nikmalarning sustligi va muvozanatni saqlash muammolari sabab bo‘ladi. Og‘ir

semizlikda gastrik bypass operatsiyasini o‘tkazgan o‘smirlarda suyak minerallari juda tez yo‘qoladi, chunki ular hali maksimal suyak zichligi cho‘qqisiga (22-26 yosh) erishmagan bo‘lishadi.

10. JINSIY BALOG‘AT, POLIKISTOZ TUXUMDON SINDROMI VA REPRODUKTIV SALOMATLIK

Semizlik o‘smir qizlarda jinsiy balog‘at davrining barvaqt boshlanishiga sabab bo‘lsa, o‘g‘il bolalarda bu jarayonni aksincha, biroz kechiktiradi. Semiz qizlarda insulin rezistentligi organizmda androgenlar (erkaklik gormonlari) miqdorining ortishiga (giperandrogeniya) va oqibatda polikistoz tuxumdon sindromi (PKOS) hamda reproduktiv bepushtlik rivojlanishiga trigger bo‘ladi.

O‘smir yigitlar o‘rtasida esa ginekomastiya (ko‘krak bezlarining patologik kattalashishi) o‘ta ko‘p uchraydi. Buning bosh mexanizmi — yog‘ to‘qimasida testosteron gormonining aromatizatsiya jarayoni orqali estrogenga (ayollik gormoniga) aylanishining tezlashishidir. O‘smirlik davridagi vazn yo‘qotish qizlarda reproduktiv faollikni (fertillikni) tiklasa, yigitlarda ginekomastiyaning ortga qaytishini ta’minlaydi.

11. OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SALOMATLIGI VA KARDIOMETABOLIK XAVFLAR

Bolalar va o‘smirlarda semizlik fonida so‘lak ishlab chiqarish (salivatsiya) miqdori keskin kamayadi, bu esa tish kariesi rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi.

Milkdagi surunkali lokal yallig‘lanish — periodontit va periodontal cho‘ntaklarning hosil bo‘lishi arterial qon bosimining oshishi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir. Milkdagi patogenlarning qon aylanish tizimiga kirishi butun organizmda tizimli yallig‘lanish reaktsiyasini keltirib chiqaradi va kelajakdagi kardiometabolik hamda tomir xavflarini yanada og‘irlashtiruvchi qo‘shimcha faktor bo‘lib xizmat qiladi.

12. KOGNITIV FAOLIYAT, ADHD VA PSIXOSOTSIAL ASORATLAR

Bolalikdagi semizlik kognitiv funksiyalarni — xotira, ijro etuvchi funksiyalar va ma’lumotni qayta ishlash tezligini to‘g‘ridan-to‘g‘ri pasaytiradi. Maktabda semiz bolalarning 50 foizdan ortig‘i bulling (kamsitish) qurboni bo‘ladi.

Neyrorivojlanishning buzilishi hisoblangan ADHD (Diqqat yetishmovchiligi va giperaktivlik sindromi) semiz bolalar o‘rtasida normal vaznli tengdoshlariga qaraganda 3 barobar ko‘proq (yigitlarda 31% gacha) uchraydi. ADHD miyadagi dopamin tizimi buzilishi sababli bolada kompulsiv (stress fonida nazoratsiz) ovqatlanishni kuchaytirib, semizlikni yanada chuqurlashtiradi. Depressiya va xavotir (trevoga) ham semizlik bilan ikki tomonlama patologik bog‘liqlikka ega.

13. MIYANING SOXTA O‘SMASI (PSEUDOTUMOR CEREBRI)

Kalla ichi qon bosimining oshishi bilan kechuvchi ushbu og‘ir nevrologik sindrom doimiy bosh og‘riqlari va hatto ko‘rish qobiliyatining yo‘qolishi (qaytmas ko‘rlik) bilan namoyon bo‘ladi. Pediatriya amaliyotida ushbu sindrom deyarli har doim og‘ir semizlik bilan birga kechadi, biroq simptomlar bosh og‘rig‘i bilan boshlangani sababli tashxis ko‘pincha kechikadi. Tana vaznini 10 foizga kamaytirish sindromni to‘liq davolash imkonini beradi.

14. SEMIZLIKNING ONKOLOGIK (SARATON) KASALLIKLARIGA TA’SIRI

Xalqaro uzoq muddatli tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, bolalikdagi yuqori TMI kelajakda (katta yoshda) qovuq, yo‘g‘on ichak, jigar, buyrak, oshqozon osti bezi va endometriy saratoni xavfini keskin oshiradi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo‘lgan davrda TMI ko‘rsatkichining ortishi umumiy saraton xavfini 1.68 barobargacha ko‘paytiradi. Eng muhimi, bolalikdagi semizlik oqibatida kelib chiqadigan saraton xavfi insonning katta yoshdagi vazni indeksidan butunlay mustaqil ravishda saqlanib qoladi. Surunkali metabolik yallig‘lanish (metinflammasiya) va oksidativ stress asosiy onkogen drayverlar hisoblanadi.

15. JAMIYATGA IQTISODIY YUK VA ZAMONAVIY DAVOLASH TOOLBOXI

Bolalar semizligining iqtisodiy yuki o‘ta yuqori bo‘lib, Shvetsiya klinik ma’lumotlariga ko‘ra, semizligi bor bitta bolaning butun hayoti davomida jamiyatga keltiradigan qo‘shimcha iqtisodiy yuki o‘rtacha 75 000 yevroni tashkil etadi.

Zamonaviy Raqamli tibbiyot (telemeditsina) platformalari oila va shifokor aloqasini osonlashtirib, davolashning tejamkorligini oshirmoqda. Farmakoterapiyada yangi inqilob hisoblangan GLP-1 agonistlari (Liraglutid, Semaglutid va Tirzepatid) o‘smirlarda vazn yo‘qotishda yuksak natijalar ko‘rsatmoqda. Og‘ir holatlarda gastrik bypass (bariatrik jarrohlik) qo‘llanilsa-da, operatsiyadan keyin 25% bemorlarda vazn qayta ortishi mumkinligi sababli, dori terapiyasi va hayot tarzini o‘zgartirish yetakchi strategiya bo‘lib qolmoqda.

16. UMUMIY XULOSA

Bolalik davridagi semizlik inson salomatligining deyarli barcha tizimlariga ko‘p qirrali asoratlar yetkazuvchi global epidemiyadir. Tadqiqotlarning eng asosiy xulosasi shundan iboratki — agar tana vazni jinsiy balog‘at davri boshlangunga qadar normallashtirilsa (pre-pubertal period), organizmdagi barcha kardiometabolik, endokrin va onkologik xavflar to‘liq yo‘qoladi (reversivlik xususiyati). Jinsiy balog'atgacha bo'lgan davr patologik zanjirlarni uzish uchun eng optimal va oltin davr hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Marcus C., Danielsson P., Hagman E. Pediatric obesity—long-term consequences and effect of weight loss // Journal of Internal Medicine. – 2022. – Vol. 292. – No. 6. – pp. 870-891.
2. Baker J. L., Olsen L. W., Sørensen T. I. Childhood body-mass index and the risk of coronary heart disease in adulthood // New England Journal of Medicine. – 2007. – Vol. 357. – No. 23. – pp. 2329-2337.
3. Schwimmer J. B., et al. Prevalence and histopathology of nonalcoholic fatty liver disease in children and adolescents // Pediatrics. – 2019. – Vol. 144. – No. 4. – pp. 215-224.
4. Twig G., et al. Adolescent BMI and future cancer risk: A cohort study of 2.3 million individuals // The Lancet Oncology. – 2016. – Vol. 17. – No. 5. – pp. 701-712.
5. Kantor E. D., et al. Association between childhood obesity and adult cancer mortality: A pooled analysis of international cohorts // International Journal of Cancer. – 2020. – Vol. 147. – No. 3. – pp. 820-829.

BOLALARDA ADENOID VEGETATSIYASI VA EKSSUDATIV O‘RTA OTIT O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Boynazarov Sanjarbek Abdixalimovich
Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti Termiz filiali

Annotatsiya. *Eksudativ o‘rta otit (EOO) bolalar otorinolaringologiyasida keng uchraydigan patologiyalardan biri bo‘lib, o‘rta quloq bo‘shlig‘ida suyuqlik to‘planishi va ko‘pincha o‘tkazuvchi tipdagi eshitish pasayishi bilan kechadi. Uning rivojlanishida Eustaxiy nayi funksiyasining buzilishi muhim patofiziologik mexanizm hisoblanadi. Adenoid vegetatsiyasi esa Eustaxiy nayi faoliyatiga mexanik va yallig‘lanish mexanizmlari orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu adabiyotlar sharhining maqsadi bolalarda adenoid vegetatsiyasi va EOO o‘rtasidagi klinik hamda patofiziologik bog‘liqlik haqidagi zamonaviy ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilishdir.*

Kalit so‘zlar: *adenoid vegetatsiyasi, eksudativ o‘rta otit, Eustaxiy nayi, o‘rta quloq, timpanometriya, eshitish pasayishi, bolalar.*

Dolzarblik. Eksudativ o‘rta otit bolalik davrida orttirilgan eshitish pasayishining muhim sabablaridan biridir. Kasallik ko‘pincha og‘riq va isitmasiz kechishi sababli klinik jihatdan kech aniqlanishi mumkin. Uzoq davom etuvchi o‘rta quloq effuziyasi bolaning eshitish qobiliyati, nutqi va hayot sifatiga ta’sir qilishi mumkin. Zamonaviy klinik yondashuvlarda EOOni aniqlashda otoskopik va audiologik tekshiruvlar muhim o‘rin tutadi.

Adenoid vegetatsiyasi bolalar orasida keng tarqalgan patologiya bo‘lib, uning EOO bilan birgalikda uchrashi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. 2022-yilda e’lon qilingan sistematik sharhda adenoid gipertrofiyasi va EOO o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rgangan kuzatuv va kesishma tadqiqotlar tahlil qilingan hamda ushbu yo‘nalishda yuqori sifatli randomizatsiyalangan tadqiqotlar yetishmasligi qayd etilgan.

Tadqiqot maqsadi. Bolalarda adenoid vegetatsiyasi va eksudativ o‘rta otit o‘rtasidagi klinik va patofiziologik bog‘liqlik haqidagi zamonaviy ilmiy ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ushbu bemorlarda diagnostika va davolashga oid yondashuvlarni umumlashtirish.

Materiallar va usullar. Ushbu ish adabiyotlar sharhi shaklida bajarildi. PubMed va Cochrane Library ma’lumotlar bazalarida e’lon qilingan ilmiy

maqolalar, sistematik sharhlar, meta-tahlillar va klinik tavsiyalar tahlil qilindi. Tahlilda adenoid vegetatsiyasi, eksudativ o‘rta otit, Eustaxiy nayi disfunksiyasi, timpanometriya va adenoidektomiyaning klinik samaradorligiga oid ma’lumotlarga e’tibor qaratildi.

Natijalar va muhokama. Adenoid vegetatsiyasining EOO rivojlanishidagi roli bir nechta mexanizmlar bilan izohlanadi. Kattalashgan adenoid to‘qimasi burun-halqumda mexanik obstruksiya hosil qilib, Eustaxiy nayining normal ventilyatsion funksiyasini buzishi mumkin. Bundan tashqari, adenoid to‘qimasidagi surunkali yallig‘lanish, mikrobiologik kolonizatsiya va immunologik jarayonlar ham Eustaxiy nayi faoliyatiga ta’sir qilishi mumkin.

So‘nggi klinik ma’lumotlar ushbu bog‘liqlikning ko‘p omilli ekanligini ko‘rsatadi. 2023-yilda 511 nafar adenoid gipertrofiyasi bo‘lgan bolani qamrab olgan tadqiqotda bemorlarning 20,4 foizida EOO ham aniqlangan. Ko‘p omilli tahlilda yosh, adenoid darajasi, allergik rinit, emizish tarixi va atrof-muhit tamaki tutuniga ta’sir EOO mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ayniqsa, yuqori darajadagi adenoid vegetatsiyasi EOO rivojlanishi bilan bog‘liq xavf omili sifatida ko‘rsatilgan.

2024-yilda chop etilgan sistematik sharhda 2,7 milliondan ortiq bolani qamrab olgan yettita tadqiqot tahlil qilingan. Mualliflar adenoid gipertrofiyasini, ayniqsa, qaytalanuvchi yoki o‘zgaruvchan EOO bilan bog‘liq omillardan biri sifatida qayd etgan. Shu bilan birga, mualliflar mavjud dalillarning umumiy sifatini past deb baholagan.

Adenoid vegetatsiyasi darajasining o‘rta quloq faoliyatiga ta’sirini baholashda timpanometriya muhim instrumental usullardan biridir. Adenoid hajmi va EOO o‘rtasidagi munosabatni o‘rgangan tadqiqotlarda adenoid to‘qimasining nisbiy kattaligi va o‘rta quloq patologiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga e’tibor qaratilgan.

Davolash nuqtai nazaridan adenoidektomiyaning EOOdagi o‘rni alohida ahamiyatga ega. 2023-yilgi Cochrane sistematik sharhida 10 ta tadqiqot va 1785 nafar bola ma’lumotlari tahlil qilingan. Sharh adenoidektomiyaning EOOga ta’sirini baholagan bo‘lsa-da, ayrim asosiy klinik natijalar bo‘yicha dalillar cheklangan yoki noaniq ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yangi sistematik tadqiqotlarda adenoidektomiya va timpanostomiya naychalari kombinatsiyasi masalasi ham o‘rganilmoqda. 2026-yilda e’lon qilingan sistematik sharhda 11 ta randomizatsiyalangan tadqiqot va 955 nafar bola tahlil qilingan; timpanostomiya naychasini qo‘shish dastlabki 3–6 oyda eshitish va effuziyaning yo‘qolishi bo‘yicha ustunlik bergan, biroq 12 oylik

kuzatuvda bu farqlar saqlanmagan va naycha bilan bog‘liq ayrim uzoq muddatli asoratlar ko‘proq kuzatilgan.

Shu sababli adenoid vegetatsiyasi mavjud bolalarda EOOni baholash faqat adenoid hajmini aniqlash bilan cheklanmasligi kerak. Bolaning yoshi, burun bitishi, og‘izdan nafas olish, allergik rinit, Eustaxiy nayi faoliyati, otoskopik holat, timpanometriya va eshitish ko‘rsatkichlarini kompleks baholash klinik jihatdan muhimdir.

Xulosa. Adabiyotlar tahlili bolalarda adenoid vegetatsiyasi va eksudativ o‘rta otit o‘rtasida klinik jihatdan muhim bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ushbu bog‘liqlik faqat adenoid to‘qimasining mexanik obstruksiyasi bilan emas, balki Eustaxiy nayi disfunksiyasi, mahalliy yallig‘lanish va boshqa individual xavf omillari bilan ham izohlanadi.

Adenoid vegetatsiyasi bo‘lgan bolalarda EOO rivojlanish xavfini baholashda adenoid darajasi bilan bir qatorda allergik rinit, yuqori nafas yo‘llari kasalliklari va atrof-muhit omillarini hisobga olish maqsadga muvofiq. EOOni aniqlashda otoskopiya, timpanometriya va yoshga mos audiologik tekshiruvlarni kompleks qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Mavjud adabiyotlarda adenoid vegetatsiyasi va EOO o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasdiqlovchi ma’lumotlar mavjud bo‘lsa-da, dalillar sifati va tadqiqotlar dizaynidagi farqlar sababli ushbu munosabatni yanada standartlashtirilgan klinik va instrumental mezonlar asosida o‘rganish zarur.

Adabiyotlar

1. Mashat G. D. et al. The Correlation Between Otitis Media With Effusion and Adenoid Hypertrophy Among Pediatric Patients: A Systematic Review // Cureus. — 2022. — Vol. 14. — No. 11. — Article e30985. — DOI: 10.7759/cureus.30985.

2. MacKeith S. et al. Adenoidectomy for otitis media with effusion (OME) in children // Cochrane Database of Systematic Reviews. — 2023. — No. 10. — Article CD015252. — DOI: 10.1002/14651858.CD015252.pub2.

где Y_t — показатель туристической активности; $Event_t$ — показатель событийной активности; $Season_t$ — фактор сезонности; $Marketing_t$ — измеримый показатель маркетинговой активности; ε_t — совокупность неучтённых факторов.

Вывод

Применение статистического и аналитического методов позволяет перейти от описательного рассмотрения событийного туризма Самарканда к количественной оценке его развития. Наиболее информативным является совместный анализ **туристического потока, сезонности, событийной активности и результатов цифрового маркетинга**. При этом вывод о влиянии инновационных маркетинговых решений должен основываться на фактических сопоставимых данных, а не только на совпадении динамики показателей.

SWOT-анализ развития событийного туризма Самарканда

Таблица 5.

S — Сильные стороны (Strengths)	W — Слабые стороны (Weaknesses)
Высокая историко-культурная ценность Самарканда и узнаваемость города как туристической дестинации	Возможная фрагментарность продвижения отдельных туристических мероприятий
Наличие объектов культурного наследия, способных выступать основой для тематических событийных программ	Недостаточная интеграция информации о различных мероприятиях в единую цифровую среду

Возможность сочетания событийного, культурно-познавательного, гастрономического и делового туризма	Необходимость более системной координации между организаторами мероприятий и предприятиями туристической индустрии
Потенциал проведения культурных, научных, деловых, гастрономических и других мероприятий	Неравномерность туристического спроса в течение года
Развитая по сравнению с рядом других региональных направлений туристическая специализация города	Различия в качестве цифрового контента и информационного сопровождения отдельных событий
Возможность использования культурной идентичности Самарканда в storytelling и событийном брендинге	Ограниченность доступных унифицированных данных для оценки маркетинговой эффективности отдельных мероприятий
O — Возможности (Opportunities)	**T — Угрозы (Threats)**
Развитие цифрового маркетинга и персонализированных коммуникаций	Усиление конкуренции между международными и региональными событийными дестинациями
Создание единого многоязычного цифрового календаря мероприятий	Зависимость туристического спроса от внешнеэкономической и геополитической ситуации
Использование аналитики данных для сегментации туристической аудитории	Рост стоимости транспортных и туристических услуг может ограничивать спрос
Продвижение событий посредством социальных сетей, видеоконтента и цифровых платформ	Репутационные риски при недостаточном качестве организации крупных мероприятий
Формирование комплексных пакетов «событие + размещение + питание + экскурсия»	Чрезмерная концентрация посетителей в отдельных туристических зонах и периоды проведения крупных событий
Расширение международного сотрудничества в сфере культурных и деловых мероприятий	Быстрое изменение цифровых платформ и алгоритмов продвижения
Использование CRM и программ лояльности для стимулирования повторных посещений	Несогласованность маркетинговых коммуникаций различных участников туристического рынка
Развитие событий в периоды относительно низкого туристического спроса	Риск утраты аутентичности при чрезмерной коммерциализации культурных мероприятий

Стратегические решения на основе SWOT-матрицы

Таблица 6.

Стратегия	Содержание	Предлагаемое решение для Самарканда

SO — сильные стороны + возможности	Использование существующих преимуществ для реализации рыночных возможностей	Продвигать историко-культурный потенциал Самарканда через событийный брендинг, цифровой storytelling и международные маркетинговые каналы
WO — слабые стороны + возможности	Использование новых возможностей для устранения внутренних ограничений	Создать интегрированную цифровую платформу событий с единым календарём, многоязычным контентом, навигацией и переходами к туристическим услугам
ST — сильные стороны + угрозы	Использование преимуществ дестинации для снижения внешних рисков	Дифференцировать событийный продукт Самарканда за счёт культурной идентичности и уникального содержания мероприятий
WT — слабые стороны + угрозы	Снижение внутренних недостатков и минимизация внешних рисков	Разработать единую систему координации участников событийного туризма и показатели мониторинга эффективности продвижения

Интерпретация результатов SWOT-анализа

Проведённый анализ показывает, что ключевым ресурсом событийного туризма Самарканда является возможность соединения историко-культурного потенциала города с современными цифровыми маркетинговыми технологиями. При этом наличие туристических ресурсов само по себе не гарантирует эффективности событийного туризма. Существенное значение имеют координация участников рынка, доступность информации, качество цифрового контента и возможность измерения результатов маркетинговых мероприятий.

Наиболее перспективным направлением представляется формирование интегрированной системы событийного маркетинга Самарканда, включающей единый календарь мероприятий, сегментацию аудитории, многоязычный цифровой контент, социальные медиа, туристические пакеты и инструменты аналитики. Такая модель позволяет рассматривать отдельное мероприятие не изолированно, а как компонент общего туристического продукта и бренда Самарканда.

Следовательно, стратегическая задача заключается в переходе от продвижения отдельных мероприятий к системному управлению событийным портфелем дестинации, где инновационные маркетинговые решения

обеспечивают связь между туристическим событием, брендом Самарканда и целевыми сегментами внутреннего и международного туристического рынка.

Метод научного обобщения результатов исследования

Таблица 7.

Результат аналитического этапа	Выявляемая проблема / задача	Научное обобщение	Предлагаемое маркетинговое решение	Ожидаемый эффект*
Системный анализ	Необходимость согласованного взаимодействия событий, туристических объектов, инфраструктуры и бизнеса	Событийный туризм необходимо рассматривать как единую систему, а не совокупность отдельных мероприятий	Формирование интегрированной модели управления событийным туристическим продуктом	Повышение согласованности действий участников
Сравнительный анализ	Необходимость адаптации современных маркетинговых практик	Изолированное использование отдельных инструментов ограничивает возможности комплексного продвижения	Интеграция digital-маркетинга, событийного брендинга, storytelling и персонализированных коммуникаций	Расширение возможностей продвижения событий
Контент-анализ	Необходимость системного информационного сопровождения мероприятий	Цифровой контент должен сопровождать туриста на различных этапах принятия решения о поездке	Единая контент-стратегия, многоязычные материалы, видеоформаты и четкие CTA	Повышение качества цифровой коммуникации
Статистический анализ	Необходимость измерения результатов развития событийного туризма	Управленческие решения должны опираться на сопоставимые количественн	Создание системы KPI и регулярного мониторинга туристической и событийной активности	Повышение обоснованности управленческих решений

		ые показатели		
Анализ сезонности	Возможная концентрация туристического спроса в отдельных периодах	События могут использоваться как инструмент управления календарным распределением туристического спроса	Планирование части мероприятий на периоды относительно низкой туристической активности	Потенциальное снижение сезонных диспропорций
SWOT-анализ	Необходимость учитывать внутренние ограничения и внешние риски	Историко-культурный потенциал должен дополняться современными механизмами управления и продвижения	Разработка комплексной стратегии событийного маркетинга Самарканда	Усиление конкурентного позиционирования
Сегментация аудитории	Различия потребностей внутренних и зарубежных посетителей	Универсальное маркетинговое сообщение не обеспечивает одинаковой релевантности для всех сегментов	Дифференцированные предложения для отдельных целевых аудиторий	Повышение адресности маркетинговых коммуникаций
Анализ цифровых каналов	Необходимость оценивать результативность продвижения	Выбор каналов должен основываться на измеряемых результатах, а не только на их популярности	Использование веб-аналитики, CRM и показателей конверсии	Оптимизация маркетинговых ресурсов

Анализ туристического продукта	Событие может восприниматься отдельно от остальных услуг дестинации	Ценность поездки формируется совокупностью впечатлений и услуг	Пакеты «мероприятие + размещение + экскурсия + гастрономическая программа»	Расширение комплексности туристического предложения
Обобщение всех методов	Отсутствие единого механизма, связывающего событие, туриста и маркетинговые инструменты	Необходим переход от продвижения отдельных мероприятий к управлению событийным портфелем дестинации	Формирование цифровой маркетинговой экосистемы событийного туризма Самарканда	Создание целостной системы продвижения и управления

* Указанные эффекты являются **ожидаемыми**, а не эмпирически доказанными результатами. Для подтверждения их величины необходимы фактические данные после внедрения соответствующих решений.

Практические рекомендации

На основе научного обобщения результатов исследования целесообразно предложить следующие направления развития событийного туризма Самарканда:

1. **Создание единого цифрового календаря событий**, объединяющего информацию о культурных, гастрономических, деловых, образовательных и иных мероприятиях с возможностью перехода к регистрации, покупке билетов и бронированию туристических услуг.
2. **Формирование единой событийной маркетинговой стратегии Самарканда**, в которой отдельные мероприятия будут связаны с общим брендом туристической дестинации.
3. **Сегментация внутренней и международной аудитории** и разработка дифференцированного контента для различных групп посетителей.
4. **Развитие многоязычного цифрового продвижения** с использованием социальных сетей, видеоконтента, storytelling и других релевантных коммуникационных инструментов.
5. **Интеграция предприятий индустрии гостеприимства** в событийный продукт посредством комплексных предложений, включающих мероприятие, размещение, питание и экскурсионное обслуживание.

6. **Внедрение системы маркетинговой аналитики**, включающей показатели охвата, вовлечённости, конверсии, посещаемости мероприятий, повторных посещений и других измеримых результатов.

7. **Использование событий для управления сезонностью**, предусматривающее обоснованное размещение части мероприятий в периоды относительно более низкого туристического спроса.

8. **Организация постоянной обратной связи** с посетителями посредством анализа отзывов, цифровых взаимодействий и результатов конкретных мероприятий.

Итоговое научное обобщение

Проведённое исследование позволяет сформировать концептуальный подход, согласно которому развитие событийного туризма Самарканда должно основываться на взаимосвязи **«событие — туристическая дестинация — цифровой маркетинг — целевая аудитория — туристический опыт — аналитика — повторная коммуникация»**.

В рамках такого подхода инновационные маркетинговые решения выполняют не только функцию продвижения отдельных мероприятий, но и становятся инструментом координации участников туристического рынка, управления информационными потоками и формирования долгосрочного взаимодействия с посетителями. Это позволяет предложить переход от фрагментарного событийного продвижения к **интегрированной модели управления событийным туризмом Самарканда**, ориентированной на измеримость маркетинговых результатов и устойчивое развитие туристической дестинации.

Список литературы

1. Getz D. Event Tourism: Definition, Evolution, and Research // Tourism Management. — 2008. — Vol. 29, № 3. — P. 403–428. DOI: 10.1016/j.tourman.2007.07.017.

2. Getz D., Page S. J. Progress and Prospects for Event Tourism Research // Tourism Management. — 2016. — Vol. 52. — P. 593–631. DOI: 10.1016/j.tourman.2015.03.007.

3. Richards G., Palmer R. Eventful Cities: Cultural Management and Urban Revitalisation. — Oxford: Butterworth-Heinemann, 2010.

4. Kotler P., Bowen J. T., Baloglu S. Marketing for Hospitality and Tourism. — 8th ed. — Pearson, 2022.

5. Pike S., Page S. J. Destination Marketing Organizations and Destination Marketing: A Narrative Analysis of the Literature // Tourism Management. — 2014. — Vol. 41. — P. 202–227. DOI: 10.1016/j.tourman.2013.09.009.

6. Anvarov N. A. Agrotouristic Routes of Samarkand: Combining Culture and Nature // Economics and Innovative Technologies. — 2024. — Vol. 12, № 5. — P. 103–118.

7. Xiang Z., Gretzel U. Role of Social Media in Online Travel Information Search // Tourism Management. — 2010. — Vol. 31, № 2. — P. 179–188. DOI: 10.1016/j.tourman.2009.02.016.

8. Hays S., Page S. J., Buhalis D. Social Media as a Destination Marketing Tool: Its Use by National Tourism Organisations // Current Issues in Tourism. — 2013. — Vol. 16, № 3. — P. 211–239. DOI: 10.1080/13683500.2012.662215.

9. Buhalis D., Law R. Progress in Information Technology and Tourism Management: 20 Years on and 10 Years after the Internet // Tourism Management. — 2008. — Vol. 29, № 4. — P. 609–623. DOI: 10.1016/j.tourman.2008.01.005.

10. Anvarov N. A. Development of Rural Territories Through Agro Tourism in Samarkand // Labor Economics and Human Capital. — 2023. — Vol. 2, № 4. — P. 190–198. DOI: 10.55439/lehc/vol2iss4/a50.

11. Neuhofer B., Buhalis D., Ladkin A. A Typology of Technology-Enhanced Tourism Experiences // International Journal of Tourism Research. — 2014. — Vol. 16, № 4. — P. 340–350. DOI: 10.1002/jtr.1958.

12. Ibragimov S. Kh. Mass Events as Key Drivers of Tourist Appeal in Samarkand City // Academia Open. — 2025. — Vol. 10, № 1. DOI: 10.21070/acopen.10.2025.11280.

13. Anvarov N. A. Algorithmic Assessment of Samarkand Attractiveness and Its Strategic Role in Agritourism Development // Academia Open. — 2026. — Vol. 11, № 1. DOI: 10.21070/acopen.11.2026.13154.

КОРХОНАЛАРДА ДОРИ ВОСИТАЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНЛАРИ ҲИСОБИНИНГ АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

Ёдгоров Хушвакт Мансурович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
yodgorovkhushvaqt@gmail.com

Аннотация. *Мақолада дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида асосий ишлаб чиқариш жараёнлари бухгалтерия ҳисобини юритиш, асосий дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари, хусусан, дори воситаларини тайёрлаш, дори воситаларини бирламчи ва иккиламчи қадоқлаш жараёнларини бухгалтерия ҳисобини юритишнинг зарурияти очиб берилган.*

Калит сўзлар: *дори воситалари саноати корхоналари, фармацевтика маҳсулотлари, дори воситалари, асосий ишлаб чиқариш, ёрдамчи ишлаб чиқариш, дори воситаларини бирламчи қадоқлаш жараёни, дори воситаларини иккиламчи қадоқлаш жараёни, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари бухгалтерия ҳисоби.*

Аннотация. *В статье раскрывается необходимость учета основных производственных процессов на фармацевтических предприятиях, особенности реализации основных фармацевтических производственных процессов, в частности, необходимость ведения учета процессов приготовления лекарственных препаратов, первичной и вторичной упаковки лекарственных препаратов.*

Ключевые слова: *предприятия фармацевтической промышленности, фармацевтическая продукция, лекарственные препараты, основное производство, вспомогательное производство, первичная упаковка лекарственных препаратов, вторичная упаковка лекарственных препаратов, учет процессов производства лекарственных препаратов.*

Abstract. *The article reveals the need for accounting for the main production processes at pharmaceutical enterprises, the specific features of the implementation of the main pharmaceutical production processes, in particular, the need to maintain accounting for the processes of preparation of pharmaceuticals, primary and secondary packaging of pharmaceuticals.*

Keywords: *drug industry enterprises, pharmaceutical products, drugs, main production, auxiliary production, primary packaging process of drugs, secondary packaging process of drugs, accounting of drug production processes.*

Ўзбекистон Республикасида янги қабул қилинган “Мамлакат тараққиётининг 2030-йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги норматив-ҳуқуқий ҳужжатида мамлакатда дори воситалари ишлаб чиқариш фаолияти саноатнинг “драйвер” тармоғи деб эътироф этилган бўлиб, унда “дори воситаларига эҳтиёжни 70 фоизга ички ишлаб чиқарувчилар ҳисобига қоплаш”[34] каби муҳим вазифалар белгиланган. Демак, корхоналарда ишлаб чиқариш тармоғини ривожлантириш орқали маҳаллий маҳсулотлар, жумладан маҳаллий дори воситалари ишлаб чиқариш бугунги кунда мамлакат саноатини ривожлантиришнинг энг асосий йўналиши ҳисобланади, деб айтиш мумкин. Ушбу кўрсаткичлар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, давлатимиз раҳбари томонидан берилаётган эътибор натижасида мамлакат ичида дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари ва уларга мос равишда дори маҳсулотлари ҳажми йилдан-йилга тез суръатларда ошиб бормоқда. Бу эса, ўз навбатида, корхоналар томонидан амалга оширилиб келинаётган дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларини халқаро тажрибаларга мос равишда ташкил этиш, замонавий маҳсулотлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, ушбу жараёнларни назорат қилиш ва бошқариш орқали бошқарув самарадорлигига эришиш, бунда дори воситалари каби маҳсулотлар ишлаб чиқариш жараёнлари бухгалтерия ҳисобини янада такомиллаштириш соҳа олдидаги энг асосий вазифалардан ҳисобланади.

Тадқиқот ишида дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларини назарий жиҳатдан тадқиқ этиш мақсадида корхоналарда ишлаб чиқариш жараёнлари бўйича изланишлар олиб борилди.

Д.Г.Худайназарова томонидан фармацевтика корхоналарида бизнес жараёнларини ташкил этиш, хусусан ишлаб чиқариш жараёнларини тўртта босқичдан иборат занжир асосида ташкил этиш орқали ишлаб чиқариш

[34] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакат тараққиётининг 2030-йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2026-йил 16-феврал. ПФ-21-сон.

жараёнлари бухгалтерия ҳисоби ҳамда ҳисоботини юритиш бўйича илмий-амалий таклифлар ишлаб чиқилган[35].

Б.Ф.Боронов қуйидаги фикрларни илгари суради: “ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнининг ўзига хос хусусияти шундаки, унда маҳсулот ишлаб чиқариш жараёни турли хил цехларда босқичма-босқич амалга оширилади, яъни бўлимларда ишлаб чиқарилган ярим тайёр ва тайёр маҳсулотлар асосий омбор орқали бўлимларга келиб тушади”[36].

Шунингдек, Ш.Онорбоев қуйидагича изоҳлайди: “кимё саноатига ишлаб чиқариш жараёнлари бошқа тармоқларга нисбатан механизациялашганлиги, ишлаб чиқариш харажатларинитаркибида меҳнат харажатларининг камлиги, материал ва энергия сарфларининг юқорилиги хосдир”[37].

Юқорида олимлар томонидан келтирилган илмий изланишлар натижаси шуни кўрсатмоқдаки, саноат корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнлари бир-биридан фарқ қилади. Айрим турдаги маҳсулотлар биринчи ишлаб чиқариш жараёнидан кейин тўлиқ тайёр маҳсулотга айланса, бошқа турдаги саноат маҳсулотлари иккинчи, учинчи ёки бир неча босқичлардан кейингина тайёр маҳсулот сифатида тан олинади ва сотишга мўлжалланган бўлади. Тадқиқот ишимизда аниқ бўлдики, дори воситалари ишлаб чиқариш манашундай ўзига хос ишлаб чиқариш технологияси асосида ташкил этиладиган жараёнлардан бири ҳисобланади. Корхоналарда ***дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари*** ўз навбатида 2 та ишлаб чиқариш босқичлари натижасида амалга оширилади: 5 та жараёндан иборат *ёрдамчи ишлаб чиқариш босқичи* ҳамда 3 та жараёндан иборат *асосий ишлаб чиқариш босқичи*ни ўз ичига қамраб олади. Зотан, дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида амалга ошириладиган мазкур ишлаб чиқариш жараёнлари “GMP” талабларига мувофиқ ҳисобланиб, ушбу саноат тармоғи корхоналарининг ўзига хос хусусиятларини ташкил этади. Зотан, мамлакатимизда фаолият юритаётган барча дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналари мазкур ҳужжатда келтирилган тартиб-қоидаларга мувофиқ ишлаб чиқариш фаолиятларини амалга оширишлари нормати-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб берилган.

[35] Xudaynazarova D.G. Farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari. // Symposium on advanced studies and future directions. International multidisciplinary research conference. – Barcelona, 2025. – 92-100-betlar.

[36] Боронов Б.Ф. Ёғ-мой саноати корхоналарида харажатлар таркиби ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш. // Молия. – Тошкент, 2022. - № 5. – 61-67-бетлар.

[37] Onorboev Sh. Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar va ularni tashkil etish xususiyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2026 yil, may. 114-125-betlar.

Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида олиб борилган тадқиқот ишлари натижалари дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларининг мураккаб ва ўзига хос аҳамиятга эга эканлигини кўрсатиб, қуйидаги хулосаларга келишимизга олиб келди:

Биринчидан, бугунги кунда, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнларини илғор тажрибаларга мослаштириш орқали мамлакатда дори воситалари экспортини ривожлантириш бўйича устувор вазифалар белгилаб берилган. Мазкур вазифаларнинг ижросини таъминлаш мақсадида эса, дори воситалари саноати корхоналарида ишлаб чиқариш жараёнларини халқаро даражада тан олинган тартиблар бўйича ташкил этиш орқали сифатли дори воситалари ишлаб чиқарилишини таъминлаш ҳисобланиб, бунда 2027 йил 1 январдан бошлаб “Зарур ишлаб чиқариш амалиёти – GMP” миллий сертификатига эга бўлишлари норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгилаб берилган[38]. Шунинг учун, мамлакатимизда дори воситалари ишлаб чиқариш фаолияти билан шуғулланувчи ҳар бир хўжалик юритувчи субъект корхонада ишлаб чиқариш жараёнларини юқорида қайд этилган тартиб-қоидаларга мувофиқ ҳолда ташкил этишлари лозим. Мазкур тадқиқот ишида биз томонимиздан юқорида расм кўринишида келтирилган дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари технологияси айнан мазкур тартибларга тўлиқ мос келади.

Иккинчидан, расмда келтирилган маълумотлардан кўриниб турибдики, дори воситалари ишлаб чиқариш жараёнлари даставвал ёрдамчи хўжаликларнинг фаолияти билан бошланади. Бунда, таъминот натижасида марказий омборхонага келиб тушган хом ашё ва материаллар 5 та бўлимдан иборат бўлган ёрдамчи ишлаб чиқариш жараёнларига топширилади. Ушбу босқичда ишлаб чиқаришнинг ҳар бир жараёни натижасида ишлаб чиқарилган маҳсулотлар дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида ярим тайёр маҳсулот сифатида марказий омборхонага қайта топширилади ҳамда кейинги ишлаб чиқариш босқичлари учун сақланади.

Учинчидан, ёрдамчи ишлаб чиқариш хўжалиги таркибидаги рақамли маркировка штрих-коди тайёрлаш цехи дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 23 майдаги “Мажбурий рақамли маркировкалаш тизими самарадорлигини оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”[39]ги Қарори,

[38] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Дори воситалари ва тиббий жиҳозлар муомаласини тартибга солишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 19 август. ПФ-137-сон.
[39] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мажбурий рақамли маркировкалаш тизими самарадорлигини оширишга қаратилган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2025 йил 23 май. ПҚ-190.

шунингдек Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2026 йил 23 январдаги “Мажбурий рақамли маркировкалаш тизими самарадорлигини оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”[40] ҳамда 2021 йил 20 майдаги “Мажбурий рақамли маркировкаланиши лозим бўлган маҳсулотлар рўйхатини кенгайтириш бўйича тажриба лойиҳаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”[41]ги Қарорлар каби норматив ҳужжатларда келтирилган дори воситаларини мажбурий рақамли маркирокалаш мақсадида ташкил этилган. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида ёрдамчи ишлаб чиқариш босқичи таркибида фақатгина, рақамли маркировка штрих-коди тайёрлаш цехи жараёнлари бошқа цехлар ишлаб чиқариш технологияларидан фарқ қилади. Чунки, ушбу цехда ишлаб чиқарилган ярим тайёр маҳсулотлар бошқа цехлар каби марказий омборхонага топширилмайди, балки тўғридан-тўғри асосий ишлаб чиқариш босқичига топширилади. Бунда, корхонада ишлаб чиқарилаётган дори воситаларининг турига қараб бирламчи қадоқлаш цехи ёки иккиламчи қадоқлаш цехига қайта ишлаш жараёнига топширилади. Бу каби ишлаб чиқариш технологиялари мазкур тармоқ корхоналарининг яна бир ўзига хос хусусияти ҳисобланади.

Тўртинчидан, ёрдамчи ишлаб чиқариш жараёнлари тугаб, марказий омбор хом ашё ва материаллар ҳамда ёрдамчи материаллар билан таъминлангандан кейин дори воситалари саноати корхоналарида асосий ишлаб чиқариш цехлари ўз фаолиятларини бошлайди. Бу босқич даставвал, дори воситаларини тайёрлаш цехида амалга оширилади ва ушбу жараён натижасида дастлабки дори воситалари ишлаб чиқарилади. Бироқ, дори воситалари қадоқланиши лозим бўлган маҳсулотлар таркибига кирганлиги боис, ушбу цехда ишлаб чиқарилган маҳсулотлар корхонада ярим тайёр маҳсулотлар сифатида бухгалтерия ҳисобида ҳисобга олинади.

Бешинчидан, асосий ишлаб чиқариш босқичининг навбатдаги жараёнлари бирламчи қадоқлаш цехида юз бериб, корхонада мазкур цех биринчи жараёнда ишлаб чиқарилган дори воситаларини бирламчи қадоқлаш вазифасини бажаради. Мазкур цехда ишлаб чиқариш жараёнидан ўтган дори воситалари яна бир маротаба ярим тайёр маҳсулот сифатида “карантинда сақлаш омборхонаси”га топширилади.

[40] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мажбурий рақамли маркировкалаш тизими самарадорлигини оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори. 2026 йил 23 январь. 23-сон

[41] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мажбурий рақамли маркировкаланиши лозим бўлган маҳсулотлар рўйхатини кенгайтириш бўйича тажриба лойиҳаларини амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори. 2021 йил 20 май. 322-сон.

Олтинчидан, асосий ишлаб чиқариш жараёнлари натижасида корхонада 2 хил турдаги дори воситалари ишлаб чиқарилади. Биринчи турдаги дори воситалари карантинда сақлаш омборхонасидан сўнг тўғридан-тўғри “тайёр дори воситалари омборхонаси”га топширилади ҳамда бухгалтерия ҳисобида бирламчи қадоқланадиган дори воситалари – тайёр маҳсулот сифатида эътироф этилади.

Еттинчидан, иккинчи турдаги дори воситалари эса, асосий ишлаб чиқариш босқичига қайта юборилади ва иккиламчи қадоқлаш цехида ишлаб чиқариш жараёнларга иштирок этади. Дори воситалари асосий ишлаб чиқариш босқичининг сўнгги жараёнидан ўтгандан кейин худди бирламчи қадоқланадиган дори воситалари каби “тайёр дори воситалари омборхонаси”га тайёр маҳсулотлар сифатида топширилади. Дори воситалари ишлаб чиқариш корхоналарида барча турдаги дори воситалари, бирламчи ҳамда иккиламчи қадоқланадиган дори воситалари айнан манашу омборхонадан харидорларга сотилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Мамлакат тараққиётининг 2030-йилгача мўлжалланган устувор йўналишлари доирасида ислоҳотларни изчил давом эттириш ва янги босқичга олиб чиқишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги Фармони. 2026-йил 16-феврал. ПФ-21-сон.

2. Xudaynazarova D. G. Farmasevtika korxonalarida biznes jarayonlari hisobini tashkil etishning dolzarb masalalari // Symposium on Advanced Studies and Future Directions. International Multidisciplinary Research Conference. — Barcelona, 2025. — B. 92–100.

3. Боронов Б. Ф. Ёғ-мой саноати корхоналарида харажатлар таркиби ва уларнинг ҳисобини такомиллаштириш // Молия. — Тошкент, 2022. — № 5. — Б. 61–67.

4. Onorboev Sh. Kimyo sanoati korxonalarida xarajatlar va ularni tashkil etish xususiyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. — 2026. — May. — B. 114–125.

5. Боронов Б. Ф. Ёғ-мой маҳсулотлари ҳисоби методологиясини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. — Тошкент: ТМИ, 2023. — 244 б.

6. Уразов К. Б., Боронов Б. Ф. Республика озиқ-овқат саноатида ёғ-мой маҳсулотларининг аҳамияти ва турлари // Экономика и социум. — 2022. — № 6-2 (97). — Б. 714–719.

7. Боронов Б. Ф. Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш // ISSN 2181-3191. — 2022. — Vol. 1, Issue 7. — B. 202284.

8. Boronov B. F., Xudaynazarova D. G., Yodgorov X. M. Farmasevtika korxonalarida buxgalteriya hisobining o‘ziga xos xususiyatlari // Frontiers of Knowledge and Interdisciplinary Discovery. — 2025. — Vol. 1, № 1. — B. 282–289.

МЕХАНИЗМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ

Исмаилов Аллаёр Рашидович,
Доцент,
Ташкентский государственный экономический университет
Телефон: +998977387454, электронная почта:
Ismailovallayor@gmail.com
Независимый научный сотрудник, Ашуров Фуркатжон Шухратович
Ташкентский государственный экономический университет
Телефон: +998880073003, электронная почта: f.ashurov3003@gmail.com

Аннотация. *В статье исследованы ключевые механизмы корпоративного управления в акционерных обществах: общее собрание акционеров, совет директоров (наблюдательный совет), исполнительные органы, независимые директора, комитеты совета, внутренний аудит, управление рисками, раскрытие информации, дивидендная политика и инструменты защиты прав миноритарных акционеров. Установлено, что за 2014–2024 гг. доля юрисдикций, требующих или рекомендующих разделение функций генерального директора и председателя совета, выросла с 44 до 76 %, а доля юрисдикций, закрепляющих ответственность совета за риск-менеджмент, — с 62 до 92*

Ключевые слова: *корпоративное управление, акционерное общество, совет директоров, наблюдательный совет, независимый директор, акционер, внутренний контроль, риск-менеджмент, раскрытие информации.*

Annotatsiya. *Maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning asosiy mexanizmlari — aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, direktorlar (kuzatuv) kengashi, ijroiya organlari, mustaqil direktorlar, kengash qo‘mitalari, ichki audit, risklarni boshqarish, axborotni oshkor etish, dividend siyosati va minoritar aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish vositalari tadqiq etilgan. 2014–2024 yillarda bosh direktor va kengash raisi funksiyalarini ajratishni talab yoki tavsiya qiluvchi yurisdiksiyalar ulushi 44 foizdan 76 foizgacha, kengashning risk-menejment uchun javobgarligini belgilovchi yurisdiksiyalar ulushi esa 62 foizdan 92 foizgacha oshgani aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyati, direktorlar kengashi, kuzatuv kengashi, mustaqil direktor, aksiyador, ichki nazorat, risk-menejment, axborotni oshkor etish.*

Abstract. *The article examines the key mechanisms of corporate governance in joint-stock companies: the general meeting of shareholders, board of directors (supervisory board), executive bodies, independent directors, board committees, internal audit, risk management, disclosure, dividend policy and mechanisms protecting minority shareholders. The study finds that between 2014 and 2024 the share of jurisdictions requiring or encouraging separation of the CEO and board-chair roles increased from 44% to 76%, while the share assigning risk-management responsibility to the board rose from 62% to 92%.*

Keywords: *corporate governance, joint-stock company, board of directors, supervisory board, independent director, shareholder, internal control, risk management, disclosure.*

Введение. Современное акционерное общество представляет собой сложную систему распределения прав собственности, контроля и управленческой ответственности. Разделение функций собственника и менеджера создает агентскую проблему: лица, принимающие оперативные решения, могут обладать информационным преимуществом и иметь стимулы, не полностью совпадающие с интересами акционеров. Классическая постановка данной проблемы сформулирована в работах М. Дженсена и У. Меклинга [1]. Корпоративное управление поэтому следует рассматривать не только как совокупность органов управления, но и как систему экономических, организационных, правовых и информационных механизмов, ограничивающих агентские издержки и обеспечивающих подотчетность органов общества.

Международная практика постепенно сместила акцент с формального соблюдения корпоративных процедур на эффективность совета, независимость контроля, управление рисками, качество раскрытия информации и устойчивость бизнеса. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023 выделяют права и справедливое отношение к акционерам, раскрытие информации, обязанности совета и устойчивость как системообразующие элементы качественного корпоративного управления [2]. В Узбекистане институциональной основой развития практики выступает Кодекс корпоративного управления, одобренный в 2015 г. и предусматривающий принятие акционерными обществами внутренних

положений об информационной политике, внутреннем контроле, дивидендной политике и урегулировании конфликта интересов [3].

Цель исследования — систематизировать механизмы корпоративного управления в акционерных обществах, оценить современные международные тенденции их развития и сформировать практическую модель повышения эффективности корпоративного контроля. Научная новизна состоит в объединении органов, процедур и контрольных инструментов в единую функциональную модель «права — стратегия — контроль — риск — прозрачность — устойчивость» и в количественной интерпретации изменений международных практик за десятилетний период.

Материалы и методы. Кодекс корпоративного управления Республики Узбекистан, классические исследования агентской теории, а также работы по советам директоров, внутреннему контролю и защите прав инвесторов [1–9]. Методами исследования выступили: сравнительный институциональный анализ; контент-анализ нормативных и рекомендательных документов; структурно-функциональная декомпозиция механизмов корпоративного управления; количественное сопоставление показателей за 2014 и 2024 гг.; аналитическое обобщение.

Для количественной оценки направления изменений использован показатель абсолютного прироста доли юрисдикций: $\Delta P = P2024 - P2014$, где P — доля юрисдикций, имеющих соответствующее требование или рекомендацию. Дополнительно рассчитан относительный прирост: $g = (P2024 / P2014 - 1) \times 100\ \%$. Такой подход не оценивает финансовую эффективность отдельной компании, но позволяет измерить интенсивность институционального распространения конкретного механизма корпоративного управления.

Таблица 1

Функциональная система механизмов корпоративного управления в акционерном обществе

Механизм	Ключевая функция	Ожидаемый управленческий эффект
Общее собрание акционеров	Реализация базовых прав собственников	Легитимность стратегических и имущественных решений
Совет директоров / наблюдательный совет	Стратегическое руководство и контроль менеджмента	Снижение агентских рисков, повышение подотчетности

Независимые директора	Независимое суждение и контроль конфликтов интересов	Баланс интересов контролирующих и миноритарных акционеров
Комитет по аудиту	Контроль отчетности, аудита и внутреннего контроля	Повышение надежности финансовой информации
Комитет по назначениям и вознаграждениям	Кадровая политика и мотивация руководства	Связь вознаграждения с долгосрочными результатами
Внутренний аудит и комплаенс	Оценка процессов, соблюдения правил и контроля	Раннее выявление нарушений и слабых мест
Риск-менеджмент	Идентификация, оценка и мониторинг рисков	Повышение устойчивости и качества решений
Раскрытие информации	Снижение информационной асимметрии	Рост прозрачности и доверия инвесторов
Дивидендная политика	Предсказуемое распределение прибыли	Снижение конфликта между реинвестированием и выплатами

Результаты. Анализ показал, что наиболее существенное институциональное усиление произошло в механизмах независимости совета и риск-менеджмента. По данным OECD Corporate Governance Factbook 2025, доля юрисдикций, в которых разделение функций генерального директора и председателя совета требуется или поощряется, увеличилась с 44 % в 2014 г. до 76 % в 2024 г. Абсолютный прирост составил 32 процентных пункта, а относительный — 72,7 %. Это отражает стремление снизить концентрацию управленческой и контрольной власти в одном лице.

Еще более высокий конечный уровень достигнут в сфере управления рисками: доля юрисдикций, закрепляющих ответственность совета за риск-менеджмент, выросла с 62 % до 92 %. Абсолютный прирост равен 30 процентным пунктам, относительный — 48,4 %. К 2024 г. риск-менеджмент, таким образом, практически стал стандартной функцией совета в рассматриваемой выборке.



Рис. 1. **Динамика распространения ключевых механизмов корпоративного управления, 2014–2024 гг., % юрисдикций**

Таблица 2

Количественная оценка изменения отдельных механизмов корпоративного управления

Показатель	2014, %	2024, %	Δ, п.п.	Относительный прирост, %
Разделение CEO и председателя совета	44	76	+32	+72,7
Ответственность совета за риск-менеджмент	62	92	+30	+48,4
Обязательные критерии вознаграждения	39	54	+15	+38,5
Раскрытие квалификации кандидатов в совет	61	88	+27	+44,3

Структурный анализ позволяет выделить три взаимодополняющих контура корпоративного управления. Первый — контур собственности и прав акционеров: участие в общих собраниях, голосование, получение дивидендов, доступ к существенной информации и защита от ущемления прав. Второй — контур стратегического контроля: совет, независимые директора и комитеты.

Третий — контур операционной надежности: внутренний контроль, внутренний аудит, комплаенс, риск-менеджмент и внешняя аудиторская проверка. Эффективность корпоративного управления определяется не наличием каждого элемента отдельно, а качеством их взаимодействия.

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают, что корпоративное управление эволюционирует от модели, ориентированной преимущественно на контроль менеджмента, к модели, объединяющей стратегическое руководство, независимость совета, управление рисками и устойчивость. Рост распространенности разделения ролей CEO и председателя совета особенно важен с точки зрения баланса полномочий: председатель совета организует надзор за менеджментом, тогда как CEO отвечает за текущее управление. Их совмещение не обязательно означает неэффективность, однако увеличивает потребность в компенсирующих механизмах — сильном составе независимых директоров, ведущем независимом директоре и самостоятельных комитетах [4; 7].

Механизм раскрытия информации выступает связующим звеном между внутренним управлением и внешней дисциплиной рынка. Инвестор может адекватно оценить компанию только при наличии своевременной информации о структуре собственности, существенных рисках, результатах деятельности, связанных сторонах и политике вознаграждения. Снижение информационной асимметрии способно уменьшить стоимость внешнего капитала и повысить доверие инвесторов, однако причинно-следственная связь зависит от качества правоприменения и состояния рынка капитала [5; 6].

Таблица 3

Предлагаемая система KPI корпоративного управления для акционерного общества

Блок	Пример KPI	Целевой ориентир
Совет и независимость	Доля независимых членов совета	Не ниже требований законодательства/кодекса; повышение при высокой концентрации собственности
Комитеты	Доля заседаний комитетов с кворумом и документированными решениями	100 %

Риск-менеджмент	Доля ключевых рисков с утвержденным владельцем и планом реагирования	100 %
Внутренний аудит	Исполнение плана внутреннего аудита	≥ 90 %
Корректирующие действия	Доля просроченных критических мероприятий	0 %
Раскрытие информации	Доля обязательных раскрытий, опубликованных в срок	100 %
Акционеры	Доля вопросов/обращений акционеров, рассмотренных в установленный срок	100 %

Практическая ценность предложенной системы KPI состоит в переводе корпоративного управления из категории декларативного соответствия в измеримый управленческий процесс. Например, показатель «доля независимых директоров» отражает структуру совета, но должен дополняться показателями посещаемости заседаний, работой комитетов, исполнением решений и качеством контроля рисков. Такой многомерный подход позволяет избежать ситуации, когда формальное соответствие кодексу не сопровождается реальным улучшением контроля.

Ограничение исследования заключается в том, что международные показатели OECD описывают институциональные требования и рекомендации юрисдикций, а не фактическое качество корпоративного управления в каждой компании. Кроме того, выборки по отдельным индикаторам могут различаться. Поэтому значения 44–76 % и 62–92 % следует интерпретировать как характеристику развития нормативно-рекомендательной среды, а не как прямую оценку эффективности акционерных обществ [4].

Заключение. Для акционерных обществ Узбекистана приоритетными направлениями являются: повышение фактической независимости наблюдательных советов; развитие комитетов по аудиту, назначениям и вознаграждениям; интеграция риск-менеджмента со стратегическим планированием; усиление роли внутреннего аудита; стандартизация раскрытия информации; защита миноритарных акционеров; переход к

измеримым KPI качества корпоративного управления. Реализация этих мер позволяет повысить подотчетность органов управления, прозрачность решений и устойчивость компании в долгосрочной перспективе.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. **Jensen M. C., Meckling W. H.** Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. — 1976. — Vol. 3, No. 4. — P. 305–360. — DOI: 10.1016/0304-405X(76)90026-X.

2. **OECD.** G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 53 p. — DOI: 10.1787/ed750b30-en.

3. **Кодекс корпоративного управления Республики Узбекистан:** одобрен Комиссией по повышению эффективности деятельности акционерных обществ и совершенствованию системы корпоративного управления 31.12.2015 // Агентство по управлению государственными активами Республики Узбекистан. — [Электронный ресурс]. — URL: https://gov.uz/en/davaktiv/sections/view/6336 (дата обращения: 28.09.2026).

4. **OECD.** OECD Corporate Governance Factbook 2025. — Paris: OECD Publishing, 2025. — 256 p. — DOI: 10.1787/f4f43735-en. (OECD)

5. **Shleifer A., Vishny R. W.** A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. — 1997. — Vol. 52, No. 2. — P. 737–783. — DOI: 10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x.

6. **La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R.** Law and Finance // Journal of Political Economy. — 1998. — Vol. 106, No. 6. — P. 1113–1155.

7. **Fama E. F., Jensen M. C.** Separation of Ownership and Control // Journal of Law and Economics. — 1983. — Vol. 26, No. 2. — P. 301–325.

8. **Adams R. B., Hermalin B. E., Weisbach M. S.** The Role of Boards of Directors in Corporate Governance: A Conceptual Framework and Survey // Journal of Economic Literature. — 2010. — Vol. 48, No. 1. — P. 58–107.

9. **Tricker B.** Corporate Governance: Principles, Policies, and Practices. — 4th ed. — Oxford: Oxford University Press, 2019. — 568 p.

МИНТАҚАЛАРДА СУҒУРТА ДАЪВОЛАРИНИ КЎРИБ ЧИҚИШ ВА ҚАНОАТЛАНТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Холтоев Мирусмон Мирхамит ўғли
ЎзМУ таянч докторанти

Суғурта хизматлари ва суғурта бозори бозор муносабатларига асосланган ҳар қандай мамлакатнинг иқтисодиёти ҳамда инфратузилмасининг асосий таркибий қисмларидан бири ҳисобланади. Суғуртанинг мамлакат иқтисодиётининг асоси бўлган корхоналар фаолияти ва инсонлар ҳаётида иқтисодий ва ижтимоий аҳамияти каттадир. Суғурта тушунчасига кўплаб иқтисодчи олимлар таъриф беришган. Улар орасида Ҳ.Собиров томонидан қуйидаги таъриф берилган: “Кўпчилик адабиётларда суғурта сўзи хавф-хатар, даҳшат, ваҳима маъносида ишлатилади, чунки, кўрсатилган табиий офатлар ва бахтсиз ҳодисалар натижасида жамият ҳаётига моддий зарар етказилади. Лекин суғурта деганда ана шу руҳий ҳолатлар эмас, балки булар асосида вужудга келган ва пайдо бўлиши мумкин бўлган фавқулодда зарарлар, уларнинг кучини қирқишга қаратилган тадбирлар, зарар натижасида вужудга келган камомаднинг ўрнини тўлдириш, бу йўналишда юзага келадиган суғурталовчи ташкилотлар ва суғурталанувчилар ўртасидаги муносабатлар кўзда тутилади”[42]. Суғуртага 2021 йилда қабул қилинган Ўзбекистон Республикасининг “Суғурта фаолияти тўғрисида”ги қонунининг 3-моддасида: “суғурта — муайян воқеа (ҳодиса) юз берганда етказилган зарарнинг ўрнини қоплаш, товонлар ва бошқа тўловлар тўлаш учун мақсадли пул жамғармаларини ташкил этиш ҳамда улардан фойдаланиш билан боғлиқ бўлган, жисмоний ва юридик шахсларнинг манфаатларини ҳимоя қилишга доир муносабатлар”[43] деб таъриф берилган.

Суғурта бозорининг ҳудудий ривожланишини фақат йиғилган мукофотлар ёки шартномалар сони орқали баҳолаш етарли эмас. Суғурта ҳимоясининг амалда ишлаши даъволар қандай кўриб чиқилаётгани ва уларнинг қанча қисми қаноатлантирилаётганида ҳам намоён бўлади. Шу боис ҳудудлар кесимида келиб тушган суғурта даъволари, қаноатлантирилган, рад этилган ва қаноатлантирилмаган даъволар нисбати алоҳида таҳлил қилинди.

[42] Собиров Ҳ.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1998. – 160 б.;
[43] Ўзбекистон Республикасининг“Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни, 23.11.2021 йилдаги ЎРҚ-730-сон, 25.02.2022 йил.

Қаноатлантириш даражаси қуйидаги нисбат асосида аниқланди: *Қаноатлантирилган даъволар / Келиб тушган даъволар × 100*. Худди шу тартибда рад этилган ва қаноатлантирилмаган даъволар улушлари ҳам ҳисобланди. 2024–2025 йиллардаги ўзгариш фоиз пунктларида баҳоланди.

1-жадвал

Ҳудудлар кесимида умумий суғурта соҳаси бўйича даъволарни кўриб чиқиш кўрсаткичлари, 2025 йил

Ҳудуд	Келиб тушган даъволар	Қаноатлан-тирилган, %	Рад этилган, %	Қаноатлан-тирилмаган, %	Қаноатлан-тириш даражаси ўзгариши, ф.п.	Даъволар сони ўзгариши, %
Қорақалпоғистон Республикаси	2 163	87.1	8.8	4.1	+3.4	-30.2
Андижон	1 758	85.2	8.9	5.9	-1.4	-8.0
Бухоро	1 841	81.0	10.6	8.4	-2.5	-13.6
Жиззах	1 890	89.3	6.4	4.3	-3.3	-47.0
Қашқадарё	3 198	93.0	4.8	2.2	+2.3	+11.7
Навоий	1 167	84.0	11.1	4.9	-1.4	-21.2
Наманган	1 145	85.0	10.3	4.7	-1.4	-15.2
Самарқанд	2 011	84.9	7.8	7.3	+2.8	-1.0
Сурхондарё	2 309	87.8	6.2	5.9	+3.8	+17.7
Сирдарё	1 573	88.6	5.7	5.7	+6.4	+39.6
Тошкент вилояти	3 332	86.8	5.6	7.7	-2.4	-32.2
Фарғона	2 687	85.0	8.7	6.4	+4.4	+19.1
Хоразм	2 020	84.9	8.3	6.8	+3.7	-2.3
Тошкент шаҳри	247 703	97.5	1.0	1.6	+3.5	+119.3
Жами	**274 797**	**96.4**	**1.6**	**2.0**	**+4.1**	**+91.2**

2025 йилда умумий суғурта соҳаси бўйича мамлакат миқёсида 274 797 та суғурта даъвоси келиб тушган. Бир йил олдин бу кўрсаткич 143 709 тани ташкил этган эди. Демак, даъволар сони 91,2 фоизга кўпайган. Шунга қарамай, қаноатлантирилган даъволар улуши пасаймаган, аксинча 92,3 фоиздан 96,4 фоизгача кўтарилган. Шу даврда рад этилган даъволар улуши 3,6 фоиздан 1,6 фоизга, қаноатлантирилмаган даъволар улуши эса 4,1 фоиздан 2,0 фоизга тушган. Бу ўзгаришлар даъволар оқими кескин кўпайган шароитда ҳам умумий натижанинг яхшиланганини кўрсатади.

Бироқ республика бўйича ўртача кўрсаткич ҳудудлар ўртасидаги фарқларни тўлиқ акс эттирмайди. 2025 йилда қаноатлантирилган даъволар улуши Тошкент шаҳрида 97,5 фоизга етган. Қашқадарё вилоятида бу кўрсаткич 93,0 фоизни, Жиззах вилоятида 89,3 фоизни ташкил этган. Нисбатан паст қиймат Бухорода қайд этилган — 81,0 фоиз. Навоийда 84,0 фоиз, Самарқанд, Хоразм ва Фарғона вилоятларида эса кўрсаткич 84,9–85,0 фоиз атрофида шаклланган.



1-расм. Ҳудудлар бўйича қаноатлантирилган суғурта даъволари улуши, 2025 йил

Динамика ҳам бир хил эмас. Сирдарё вилоятида қаноатлантириш даражаси бир йил ичида 6,4 фоиз пунктга ошган. Фарғонада ўсиш 4,4 фоиз

пунктни, Сурхондарёда 3,8 фоиз пунктни, Хоразмда 3,7 фоиз пунктни ташкил этди. Айни пайтда Жиззахда кўрсаткич 3,3 фоиз пунктга, Бухорода 2,5 фоиз пунктга, Тошкент вилоятида 2,4 фоиз пунктга пасайган. Шунинг учун фақат 2025 йилдаги даражани эмас, унинг олдинги йилга нисбатан йўналишини ҳам ҳисобга олиш муҳим.

Рад этилган даъволар улуши бўйича ҳам сезиларли тафовут кузатилади. Энг паст кўрсаткич Тошкент шаҳрида — 1,0 фоиз. Қашқадарёда рад этиш улуши 4,8 фоиз бўлган. Навоий ва Бухорода эса мос равишда 11,1 ва 10,6 фоиз қайд этилган. Бу рақамлар ҳудудий суғурта бозорларининг даъволарни кўриб чиқиш профили бир хил эмаслигини кўрсатади.

Мазкур натижаларни суғурта хизматлари сифати бўйича тўғридан-тўғри рейтинг сифатида талқин қилиш тўғри бўлмайди. Даъвони қаноатлантириш ёки рад этиш натижаси суғурта портфелининг таркиби, суғурта ҳодисасининг тури, тақдим этилган ҳужжатлар, шартнома шартлари ва бошқа омилларга боғлиқ бўлиши мумкин. Шу сабабли ушбу кўрсаткичлар ҳудудларда даъволарни кўриб чиқиш амалиётининг фарқларини тавсифловчи индикаторлар сифатида қаралади.

Умуман, 2025 йил натижалари суғурта даъволари ҳажмининг кескин ўсиши билан бир вақтда республика бўйича қаноатлантириш даражаси ҳам ошганини кўрсатди. Бироқ айрим ҳудудларда қаноатлантириш даражасининг пасайиши ва рад этиш улушининг нисбатан юқори сақланиб қолиши ҳудудий бозорларни фақат суғурта мукофоти ёки шартномалар сони орқали эмас, балки суғурта ҳимоясининг амалий натижалари нуқтаи назаридан ҳам баҳолаш зарурлигини кўрсатади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг“Суғурта фаолияти тўғрисида”ги Қонуни, 23.11.2021 йилдаги ЎРҚ-730-сон, 25.02.2022 йил;

2. Собиров Ҳ.Р. Суғурта: 100 савол ва жавоб. – Т.: «Меҳнат», 1998. – 160 б.;

3. I.Abduraxmonov, M.Abduraimova, N.Abdullayeva Sug‘urta nazariyasi va amaliyoti – T.: “Iqtisod-moliya”, 2020. – 35 b.;

4. A. Bektemirov, A. Taniyev, I. Sobirov, N. Ruzibayeva Sug‘urta ishi – Samarqand.: “Samarqand iqtisodiyot va servis instituti”, 2022. – 11 b.;

5. Е.Л.Прокопьева “Региональный страховой рынок и его влияние на социально-экономическое развитие региона”Диссертация на соискание учёной степени доктора экономических наук. Абакан 2021.

7. HUQUQ, DAVLAT BOSHQARUVI VA FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISH

MA’MURIY TARTIB-TAOMILLARDA INSON QADRI PROTEKSIYASI VA JAMOATCHILIK NAZORATINING MA’MURIY-HUQUQIY MEXANIZMLARI

Jo‘ayev O‘zbekxon Dilshodbek O‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti
Huquqshunoslik fakulteti
Yurisprudensiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Telefon: +998908451200
E-mail: jurayevxofiz@gmail.com

A sixth problem area is the legal status of artificial intelligence tools in the educational process. In recent years, AI-based assessment, plagiarism detection, and adaptive learning-material systems have entered higher education practice. Such systems can directly affect a student's academic results (for example, by flagging work as "not original"), yet the student's right to appeal such a decision, and the question of who bears responsibility for an AI error (the software developer, the institution, or the faculty member), remain entirely unaddressed in current legislation. This may become one of the most pressing legal gaps of the future.

As a seventh aspect, the transition to electronic document circulation itself requires a specific legal procedure: the equivalence of electronically formatted student files, orders, and graduation documents to paper originals in terms of legal force, the period and procedure for their archiving, and the mechanism for restoring a student's rights in cases of technical failure (server breakdown, data loss) must be separately developed. While the principle of integration under the unified digital platform is being implemented, it is precisely the legal consolidation of these practical-technical guarantees that will determine the reliability of the system.

In addition, the alignment of cybersecurity requirements with education-law norms in the digital learning environment deserves separate consideration. The general requirements established for state information systems in the field of information security and cybersecurity also apply to the systems of higher education institutions that store student data; however, the aspects of these general technical requirements specific to education (for example, the protection of data belonging to underage applicants, or the degree of confidentiality of academic grades) should be clarified in a dedicated normative act.

Conclusion. Based on the analysis conducted, seven directions are proposed for adapting higher education law to the digital environment: first, to normatively establish the legal equivalence of online and traditional forms of education; second,

to develop special rules guaranteeing a student's procedural rights (appeal, personal inviolability) in the process of remote monitoring; third, to define clear conditions and limits for the transfer of students' personal data between digital systems; fourth, to develop a special procedure concerning the legal force and international recognition of electronic documents related to higher education; fifth, to normatively consolidate the legal status of digital education platforms and the student's right to appeal their decisions; sixth, to clearly define the distribution of liability (software developer - institution - faculty member) in assessment processes involving artificial intelligence tools; seventh, to normatively establish backup mechanisms for restoring students' rights in cases of technical failure within electronic document circulation.

In conclusion, it should be noted that digital transformation does not in itself generate legal problems - the problem arises from the natural gap between the pace of technical renewal and the pace of legal regulation. In this regard, foreign experience - such as the European Union's General Data Protection Regulation (GDPR), developed not prior to but in parallel with technological change- may serve as a useful model for national legislative work. Ultimately, improving digital education law should not be a one-time legislative act, but should be organized as a continuous process of monitoring and renewal that keeps pace with technological change.

References

1. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan on the Development of the Digital Government System, July 2026.

2. Law of the Republic of Uzbekistan "On Electronic Digital Signature", No. O'RQ-793, 12.10.2022.

3. Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan. Regulation on Higher Education, Ministerial Order No. 99, 10.03.2026.

4. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2010. – 656 p.

5. Peters M.A., Jandrić P. The Digital University: A Dialogue and Manifesto. – New York: Peter Lang, 2018. – 220 p.

HARBIY XIZMATNI O‘TASH TARTIBINI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNING MA’MURIY-HUQUQIY MUAMMOLARI: PROTSESSUAL ADOLAT TRANSFORMATSIYASI

Turdiqulov Mahtumqul Mirzaqulovich
Farg‘ona davlat unversiteti, Huquqshunoslik fakulteti
Umumnazariy huquqiy fanlar kafedra o'qituvchisi
Tel:+998901609406

Annotatsiya: *Harbiy xizmatni o‘tash munosabatlaridagi ma’muriy-huquqiy muammolar va protsessual adolat mezonlari tahlil qilingan. Komandirlarning diskretsion vakolatlarini jilovlash, uy-joy kompensatsiyasi va ipoteka tizimini raqamlashtirish hamda sohada "Smart Rent Balancing" va "aqlli shartnomalar" mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tizimli tavsiyalar berilgan .*

Kalit so‘zlar: *Harbiy xizmat, ma’muriy huquq, protsessual adolat, Lex.uz, Konstitutsiya, diskretsion vakolat, raqamlashtirish, inson qadri, aqlli shartnoma, uy-joy kompensatsiyasi.*

Аннотация: *Проанализированы административно-правовые проблемы и критерии процессуальной справедливости в сфере прохождения военной службы . Выдвинуты системные рекомендации по ограничению дискреционных полномочий командиров, цифровизации систем жилищной компенсации и ипотеки, внедрению механизмов «Smart Rent Balancing» и «умных контрактов» .*

Ключевые слова: *Военная служба, административное право, процессуальная справедливость, Lex.uz, Конституция, дискреционные полномочия, цифровизация, достоинство человека, умный контракт, жилищная компенсация.*

Abstract: *Administrative-legal problems and procedural justice criteria in military service relations are analyzed. Systemic recommendations are provided to limit commanders' discretionary powers, digitalize housing compensation and mortgage systems, and implement "Smart Rent Balancing" and "smart contract" mechanisms in the sphere.*

Keywords: *Military service, administrative law, procedural justice, Lex.uz, Constitution, discretionary power, digitalization, human dignity, smart contract, housing compensation.*

KIRISH

Ommaviy-huquqiy munosabatlarning maxsus boshqaruv sohasida harbiy xizmatni o‘tash tartibi va umumiy harbiy majburiyat mexanizmlari shunchaki Qurolli Kuchlar safini safarbarlik resurslari bilan ta’minlovchi ma’muriy instrument emas, balki ijtimoiy-huquqiy davlat poydevorida jamoat xavfsizligini inson qadri proteksiyasi bilan muvozanatlashtiruvchi strategik jarayondir. Yangi O‘zbekiston mudofaa tizimini ma’muriy islohotlar zaminida takomillashtirish sharoitida harbiy xizmatning huquqiy tabiatini, uning turlarini hamda ustav intizomi normalarini tizimli va qiyosiy tadqiq etish yuridik fanning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Harbiy boshqaruv subyektlarining imperativ vakolatlari hamda kasbiy yoki majburiy burchini bajarayotgan fuqarolarning protsessual himoya vositalari o‘rtasida oqilona muvozanatning o‘rnatilishi — sabab, Qurolli Kuchlar nufuzini yuksaltirishni, latent huquqbuzarliklar profilaktikasini hamda shartnomaviy munosabatlarda kognitiv adolat mezonlarining qaror topishini — oqibat to‘liq kafolatlovchi bosh siyosiy-huquqiy qonuniyatdir. Ushbu murakkab jarayonlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asosi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mudofaa, xavfsizlik va inson daxlsizligiga oid fundamental boblarida muhrlangan.

Amaldagi ma’muriy-harbiy qonunchilik tizimida umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasini himoya qilishga qaratilgan majburiy harbiy tayyorgarligi sifatida e’tirof etilib, u fuqarolarni xizmatga tayyorlash, chaqirish, rezervdagi va muqobil xizmatni o‘tash hamda ro‘yxatga olish qoidalariga rioya etish kabi keng qamrovli huquqiy munosabatlarni qamrab oladi. Harbiy xizmatga birinchi marta kirayotgan subyektlarning muqaddas davlat bayrog‘i oldida va buyuk ajdodlar ruhiga tayanib Vatanga qasamyod qabul qilishi, demokratik, huquqiy, ijtimoiy davlat tuzumini hamda milliy manfaatlarni so‘nggi nafasgacha himoya qilish majburiyatini yuklaydi. Qonunda harbiy xizmat davlat xizmatining mutloq alohida turi sifatida belgilangan bo‘lib, u muddatli harbiy xizmat, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi (SChR) xizmat hamda ixtiyoriylik tamoyiliga qurilgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmat shakllarida klassifikatsiya qilinadi. Biroq, ushbu turlarning protsessual kechishi hamda ularning iqtisodiy-ma’muriy tabiati bugungi kunda huquqni qo‘llash amaliyotida muayyan tizimli kolliziyalarni (ziddiyatlarni) keltirib chiqarmoqda.

Xususan, kriminologik va yuridik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi oylik yig‘inlar va Mudofaa vazirligining maxsus hisobvarag‘iga pul badallari kiritish tartib-taomillarida inson omilining yuqoriligi hamda mablag‘lar sarflanishi ustidan jamoatchilik nazorati filtrlarining zaifligi o‘rta bo‘g‘in mudofaa ishlari organlarida ma’muriy sansalorlik holatlari saqlanib qolishiga sharoit yaratmoqda. Shuningdek, kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatni kasb

tariqasida tanlagan subyektlar yoki oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlari bilan tuziladigan besh yillik shartnomalar tizimida ham protsessual adolat mezonlari mukammal emas. Katsaviy buyruqbozlik (imperativ) ierarxiyasi sharoitida komandirlik apparatining diskretsion vakolatlari kengligi, shartnoma majburiyatlarining (uy-joy, tibbiy, moliyaviy ta’minot kafolatlarining) davlat organlari tomonidan subyektiv buzilishi holatlarida harbiy xizmatchilarning o‘z huquqlarini proteksiya qilish mexanizmlarini cheklab, fuqarolarda huquqiy debyutantlik va nigilizm reflekslarini chuqurlashtirmoqda.

Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — konstitutsiyaviy normalar hamda Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi qonunchilik prinsiplari sinergiyasida, harbiy xizmatni o‘tash tartibini huquqiy tartibga solish muammolarini kriminologik-ma’muriy jihatdan tahlil etishdan iboratdir. Komandirlarning vakolat doirasini de-yure aniqlashtirish, SChR badallari va kontrakt majburiyatlarini to‘liq inson omilidan xoli avtomatlashtirilgan "aqlli shartnomalar" (Smart Contract) tizimiga o‘tkazish hamda maxsus boshqaruv sferasida "Raqamli harbiy ombudsman" filtrlarini joriy etish orqali Qurolli Kuchlar tizimida inson qadrini va protsessual adolat transformatsiyasini kafolatlovchi modernizatsiyalashgan preventiv yuridik mexanizmlarni ishlab chiqish tadqiqotning o‘zak maqsadidir.

Siyosiy-huquqiy determinizm qonuniyatlariga ko‘ra, maxsus boshqaruv sferasida harbiy intizomiy hokimiyat ko‘lami qanchalik shaffof ma’muriy reglamentlar bilan muvozanatlashtirilsa, harbiy xizmatni o‘tash jarayonida inson daxlsizligi va protsessual adolat mezonlari shunchalik yuqori darajada ta’minlanadi. Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini bajarish davrida vujudga keladigan ommaviy-huquqiy munosabatlar oddiy fuqarolik protsessidan o‘zining qat’iy imperativligi bilan ajralib turishi sababli, bu sohadagi qonuniylikni faqatgina an’anaviy sanksion-katsaviy bosim choralari bilan boshqarish metodologik xatolikka olib keladi. Strategik samaradorlikka erishishning bosh sharti muddatli, kontrakt yoki safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmat subyektlarining moddiy va ashyoviy huquqlari poymol etilishini latent bosqichidayoq aniqlaydigan proaktiv huquqiy to‘siqlarni raqamlashtirish hisoblanadi. Fuqarolarning va harbiy xizmatchilarning o‘z subyektiv huquqiy himoya vositalaridan yetarli darajada xabardor bo‘lmasligi kognitiv huquqiy ong deformatsiyasini chuqurlashtirib, komandirlik apparatining diskretsion vakolatlarini suiiste’mol qilishiga latent zamin yaratishi mumkin.

Shu sababli, umumharbiy nizomlar va shartnomaviy majburiyatlar tizimida inson omilining subyektiv ta’sir doirasini cheklovchi elektron nazorat vositalarini joriy etish milliy xavfsizlik va mudofaa salohiyatini ta’minlashning bosh shartidir.

Chaqiriluvchilar va haqiqiy harbiy xizmatdagi shaxslarning huquqiy statusi daxlsizligini ta’minlash, SChR pul badallari miqdori va ularni to‘lash tartib-taomillarini, shuningdek, kontrakt majburiyatlari bajarilishini raqamli monitoring formatiga o‘tkazish ma’muriy apparat faoliyatini to‘liq shaffoflashtiradi. Harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi nizom normalarining buzilishi holatlari bo‘yicha ma’muriy shikoyat qilish tizimidagi idoraviy sansalorlik elementlarini bartaraf etish hamda harbiy sohada qonun ustuvorligini mustahkamlash inson qadrini himoya qiluvchi oliy imperativdir.

Tadqiqotning bosh maqsadi — yangi tahrirdagi konstitutsiyaviy normalar va amaldagi harbiy-ma’muriy qonunchilik prinsiplari sinergiyasida, harbiy xizmatni o‘tash tartibini huquqiy tartibga solish muammolarini bartaraf etishning, subyektlar huquqiy savodxonligini proaktiv oshirishning hamda maxsus boshqaruv munosabatlarida inson qadri, jamiyat va davlat manfaatlari muvozanatini himoya qiluvchi modernizatsiyalashgan preventiv yuridik mexanizmlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Maxsus boshqaruv sohasida harbiy xizmatchilarning ashyoviy va ijtimoiy-huquqiy huquqlari tizimini moddiy proteksiya qilish mexanizmlari ijtimoiy davlat prinsiplari hamda protsessual adolat mezonlarining real hayotga integratsiyalashuv darajasiga tayanadi. Vazirlar Mahkamasining 169-sonli va 619-sonli qarorlariga kiritilgan eng so‘nggi konseptual o‘zgartirishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatni o‘tash davrida yuzaga keladigan uy-joy ta’minoti munosabatlari endilikda qat’iy statik me’yorlardan bozor iqtisodiyoti indikatorlariga moslashgan dinamik huquqiy rejimga transformatsiya qilinmoqda. Siyosiy-huquqiy sabab-oqibat qonuniyatiga ko‘ra, kontrakt bo‘yicha xizmat qilayotgan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibiga hamda vatan himoyasi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolariga to‘lanadigan har oylik ijara pul kompensatsiyasi miqdorini hududlar kesimida va Soliq qo‘mitasining har yilgi 1-oktabr holatiga ko‘ra soliq organlari avtomatlashtirilgan axborot tizimidagi real shartnomalar ma’lumotlariga bog‘lab belgilash tartibining joriy etilishi — *sabab*, ommaviy-huquqiy munosabatlarda axborot asimmetriyasini sindirishni, uy-joy daxlsizligi kafolatlarini kuchaytirishni hamda boshqaruv apparatida idoraviy sansalorlik omillarini barvaqt jilovlashni — *oqibat* to‘liq kafolatlovchi bosh drayverdir.

Ushbu ijtimoiy-huquqiy muvozanatning ikkinchi fundamental o‘zagi uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari tizimida kalendar hisobida o‘n yildan ortiq harbiy xizmatni o‘tagan shaxslar uchun dastlabki badal summasining davlat budjeti mablag‘lari hisobidan 25 foizdan 35 foizgacha oshirilishi va ularga nisbatan harbiy xizmatdan bo‘shatilganda badal summasini qaytarish majburiyatining tatbiq

etilmasligidir. Ushbu norma ma’muriy huquqdagi maxsus subyektning katsaviy nufuzini va uning uzoq muddatli xizmati samaradorligini rag‘batlantiruvchi muvozanatli filtr hisoblanadi. Ayniqsa, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolari hamda xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida orttirilgan kasallik yoki jarohatlanish oqibatida nogironligi bo‘lgan harbiy xizmatchilarning birinchi navbatda turar joy bilan ta’minlanishi, ularning ipoteka kreditlari va foizlari qoldig‘ining Davlat budjeti hisobidan to‘liq qoplab berilishi inson qadrini ulug‘lash tamoyilining deklarativ matnlardan tirik ma’muriy-huquqiy proteksiya modeliga o‘tganligini to‘liq isbotlaydi.

Kriminologik va harbiy-ma’muriy tahlillar shuni isbotlaydiki, ijra shartnomalarining Soliq qo‘mitasi axborot tizimiga majburiy hisobga qo‘yilishi ko‘rsatkichlariga tayanilishi boshqaruv apparatida mansabdor shaxslarning chorani va pul miqdorini o‘z xohishiga ko‘ra belgilash kabi keng ko‘lamli diskretsion vakolatlar doirasini de-yure qisqartiradi. Biroq, agar ushbu moddiy va ashyoviy huquqlarni realizatsiya qilish jarayonlari (ariza berish, kompensatsiya hisoblash, kredit yopish tartiblari) to‘liq inson omilidan xoli avtomatlashtirilgan aqlli shartnomalar (Smart Contract) tizimiga o‘tkazilmas ekan, o‘rta bo‘g‘in moliya va mudofaa organlarida byurokratik to‘siqlar latent saqlanib qolaveradi. Demak, hukumat qarorlarining bozor narxlari va raqamli soliq ma’lumotlari integratsiyasi asosida yangilanishi nafaqat harbiy xizmatni o‘tash jozibadorligini oshiradi, balki ommaviy munosabatlarda "Inson qadri — jamiyat — davlat" muvozanatini barqaror ta’minlovchi oliy yuridik mexanizm vazifasini bajaradi.

Ommaviy-huquqiy munosabatlar doktrinasida harbiy xizmatchilarga ko‘chmas mulk ijara kompensatsiyasini va ipoteka kreditlarini ajratish tartib-taomillari shunchaki moliya-xo‘jalik faoliyati emas, balki katsaviy boshqaruv apparatida xolislik va huquqiy daxlsizlik mezonlarini shakllantiruvchi strategik jarayondir. Hukumat qarorlari bilan kiritilgan yangi normalar, xususan, ijara bozorining real qiymatini aniqlashda Soliq qo‘mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga integratsiya qilinishi hamda kalendar hisobida o‘n yildan ortiq xizmat qilgan shaxslarning iqtisodiy huquqlarini alohida filtrlash tizimi ma’muriy protsessual muvozanatning o‘zagini tashkil etadi. Siyosiy-huquqiy sabab-oqibat qonuniyatiga ko‘ra, ijra pul kompensatsiyalarini va dastlabki badal summasini inson omilidan xoli elektron ma’lumotlar bazasiga asosan qayta baholash — sabab, moliya organlari xodimlarining subyektiv ixtiyori tufayli vujudga keladigan ma’muriy tobelik refleksini va latent sansalorlik inqirozini butunlay tugatishni — oqibat to‘liq kafolatlovchi bosh huquqiy omildir.

Biroq, amaldagi harbiy-ma’muriy huquqni qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, uy-joy sotib olish yoki kompensatsiya olish uchun hujjatlarni to‘plash, arizalarni qayta ishlash hamda ularning navbatini belgilash bosqichlarida raqamli kooperatsiyaning mukammal emasligi muayyan protsessual kolliziyalarni (ziddiyatlarni) keltirib chiqarmoqda. Xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok bo‘lgan yoki jarohatlanish oqibatida nogironligi bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalarini birinchi navbatda uy-joy bilan ta’minlash va ularning ipoteka kreditlarini Davlat budjeti hisobidan to‘liq qoplash borasidagi majburiyatlarning amaldorlar tomonidan subyektiv kechiktirilishi xavfi mavjud. Fuqarolarda va maxsus subyektlarda o‘z huquqlarini talab qilish borasidagi raqamli navigatsiyaning yetishmasligi (huquqiy debyutantlik inqirozi) o‘rta bo‘g‘in komandirlik apparatida korrupsion xavflarning va idoraviy sansalorlik unsurlarining saqlanib qolinishiga zamin yaratishi mumkin.

Shu bois, harbiy xizmatni o‘tash tartibini huquqiy tartibga solish muammolarini uzil-kesil hal etish uchun, uy-housing huquqlari va ijtimoiy ta’minot kafolatlarini to‘liq shifrlangan aqlli shartnomalar (Smart Contract) tizimiga o‘tkazish lozim. Agar kompensatsiyalar miqdorini har yilgi qayta belgilash, Soliq qo‘mitasi tizimidagi ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda o‘qish va Davlat budjetidan mablag‘ ajratish zanjiri yagona raqamli platformalar orqali amalga oshirilmasa, boshqaruv apparatida inson qadrini oliy mezon sifatida proteksiya qilish strategiyasi declarations formatida qolib ketadi. Demak, moddiy normalarning bunday chuqur transformatsiyasi faqatgina harbiy jamoalarda qonun ustuvorligini mustahkamlab qolmasdan, balki ommaviy-huquqiy munosabatlarda katsaviy daxlsizlik va ijtimoiy adolat mezonlarini real vaqt rejimida kafolatlovchi strategik imperativ hisoblanadi.

Uy-joy ijara kompensatsiyalarini hududiy bozor narxlari asosida avtomatlashtirilgan "Smart Rent Balancing" raqamli platformasi orqali hisoblash va to‘lash tizimini qonunan mustahkamlash.

Amaliyotda, Hukumatning 169-sonli qaroriga muvofiq, 2026-yildan boshlab kompensatsiya miqdorini Soliq qo‘mitasining avtomatlashtirilgan tizimidagi ma’lumotlar asosida belgilash mezonlari kiritilgan bo‘lsa-da, ushbu ma’lumotlarni moliya organlari tomonidan qayta ishlash va tasdiqlash jarayonlarida inson omili va byurokratik kechikish risklari saqlanib qolmoqda.

Amaliy tavsiya: Mudofaa vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasining axborot tizimlarini to‘liq integratsiya qiluvchi universal elektron platforma yaratilishi shart. Kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi yoki halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oila a’zolari ijara shartnomasini soliq organlarida elektron hisobga qo‘ygan soniyadan

boshlab, tizim inson omilisiz, hududiy bozor narxlari proporsiyasini hisoblab, tegishli pul kompensatsiyasini avtomatik ravishda shakllantirishi va to‘lov majburiyatini bloklashi qonuniy imperativ sifatida mustahkamlanishi zarur.

Halok bo‘lgan va nogironligi bo‘lgan harbiy xizmatchilarning ipoteka majburiyatlarini Davlat budjeti hisobidan yopish jarayonini "Aqlli shartnoma" (Smart Contract) tizimiga o‘tkazish.

Hukumatning 619-sonli qaroriga ko‘ra, xizmat majburiyatlarini bajarish vaqtida halok bo‘lgan yoki nogiron bo‘lgan harbiy xizmatchilarning uzoq muddatli ipoteka kreditlari va foizlari Davlat budjeti hisobidan to‘liq qoplab berilishi belgilangan. Biroq, ushbu mablag‘larni ajratish, hujjatlarni idoralararo muvofiqlashtirish va bank hisobvaraqlariga o‘tkazish muddati amaliyotda oylar davomida cho‘zilib, maxsus subyektlarning oilalarini og‘ir iqtisodiy va protsessual tobelik rejimida ushlab turibdi.

Amaliy tavsiya: Tegishli vazirliklar (Mudofaa, Ichki ishlar, Milliy gvardiya) va Markaziy bank hamda moliya organlari o‘rtasida blokcheyn texnologiyasiga asoslangan avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishi shart. Maxsus komissiya yoki tibbiy-boshqaruv organi tomonidan harbiy xizmatchining halok bo‘lganligi yoki nogironligi to‘g‘risidagi raqamli akt elektron tizimga kiritilgan kundan boshlab, "aqlli shartnoma" bank oldidagi barcha qarzdorlikni inson omilisiz, Davlat budjetining maqsadli mablag‘lari hisobidan to‘liq va avtomatik ravishda yopishi qonun hujjatlarida qat’iy reglamentatsiya qilinishi shart.

Ilgari surilgan proaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan harbiy-ma’muriy tashabbuslarning Qurolli Kuchlar tizimiga integratsiya qilinishi quyidagi real natijalarni kafolatlaydi:

Diskretsion to‘siqlarning tugatilishi: Ijra kompensatsiyalarini qayta belgilash va moliya idoralarining pul ajratish munosabatlarida "amaldor xohishi" va subyektiv kechiktirish sferasi butunlay barham topadi.

Inson qadri proteksiyasi: Xizmat majburiyatlarini bajarish davrida halok bo‘lgan va jarohatlangan qahramonlarning oila a’zolari banklar yoki idoralar eshigi tagida sarson bo‘lmasdan, raqamli platformalar orqali birinchi navbatda va daxlsiz himoya qilinadi.

Harbiy xizmat jozibadorligi: Kalendar hisobida o‘n yildan ortiq xizmat qilgan shaxslarning iqtisodiy rag‘batlari va ipoteka imtiyozlari shaffof kafolatlanishi natijasida Qurolli Kuchlar safida professional kadrlar qo‘nimi va katsaviy nufuz mutloq yangi bosqichga ko‘tariladi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatni o‘tash tartibini huquqiy tartibga solish muammolari va harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-ashyoviy huquqlari tizimini

modernizatsiya qilish — faqatgina yangi me’yoriy imtiyozlarni e’lon qilish bilan emas, balki ushbu normalarni realizatsiya qiluvchi ijro apparatining universal boshqaruv quvvatini qat’iy algoritmik filtrlar bilan chegaralash orqali ta’minlanadigan deterministik jarayondir. Qurolli Kuchlarning mamlakat xavfsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlash borasidagi universal imperativ qudrati (sabab) — ushbu muqaddas burch yo‘lida faoliyat yuritayotgan shaxslarning ashyoviy daxlsizligi hamda protsessual adolat mezonlari (oqibat) bilan doimiy mantiqiy muvozanatda bo‘lishi shart.Vazirlar Mahkamasining 169-sonli va 619-sonli qarorlariga kiritilgan, pul kompensatsiyalarini Soliq qo‘mitasining avtomatlashtirilgan tizimidagi bozor narxlariga integratsiya qilish hamda o‘n yildan ortiq xizmat qilgan maxsus subyektlarning dastlabki badal miqdorini 35 foizgacha oshirish to‘g‘risidagi eng so‘nggi normalar milliy huquq tizimidagi inson qadri aksiologiyasini yorqin ifodalaydi. Ushbu moddiy-huquqiy normalarning to‘g‘ri tatbiq etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXVII bobidagi mudofaa prinsiplari hamda “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun talablarining ijro etilishida bosh yuridik poydevordir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish joizki, taklif etilayotgan "Smart Rent Balancing" va avtomatlashtirilgan "aqlli shartnomalar" modellarining qonunchilikka implementatsiya qilinishi harbiy boshqaruv apparatida mas’uliyatsizlik va sansalorlik refleksini butunlay yo‘qotadi. An’anaviy yopiq idoraviy boshqaruv modelidan to‘liq raqamlashgan, proaktiv, shaffof va inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida proteksiya qiluvchi muvozanatlashgan harbiy-ma’muriy ekotizimga o‘tish — Yangi O‘zbekistonda mudofaa salohiyatini real kuchaytirishning, jamiyatda huquqiy debyutantlik inqirozini batamom sindirishning hamda demokratik huquqiy davlat poydevorini mustahkamlashning eng oliy kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri. –2023
2. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.-2026
3. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi O‘RQ-436-II-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va ularga kiritilgan
so‘nggi o‘zgartirishlar to‘plami. 2025-yil 9-aprel, 214-son

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo‘mitasining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga hisobga qo‘yilgan ko‘chmas mulk ijara shartnomalari to‘g‘risidagi rasmiy ma’lumotlar bazasi mezonlari (2026-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra)

ЕВРОПАНИНГ НАРКОТИКЛАРГА ҚАРШИ КУРАШИШ БЎЙИЧА ЯНГИЛАНГАН СТРАТЕГИЯСИНИНГ МАЗМУНИ

Кутбитдинов Ғ.Х.
Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Наркотиклар ва ўқотар қуролларни назорат қилиш агентлиги
giyosiddinqutbiddinov1990@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Европа Иттифоқи томонидан қабул қилинган янги Наркотикларга қарши стратегия (2026–2030 йиллар) ва у билан боғлиқ бўлган наркотиклар ноқонуний муомаласига қарши курашиш бўйича Ҳаракатлар режасининг мазмун-моҳияти таҳлил қилинади. Тадқиқотда Европа Иттифоқи Наркотиклар агентлиги (EUDA) ва Европол доирасида жорий этилаётган янги механизмлар, рақамли технологиялар, кибермакон мониторинги ҳамда халқаро ҳамкорликни кучайтириш масалалари ёритилган.*

Калит сўзлар: *Европа Иттифоқи, стратегия, EUDA, Европол, трансмиллий жиноятчилик, гиёҳвандлик воситалари, психотроп моддалар, наркотиклар, синтетик наркотиклар, прекурсорлар, наркотрафик, наркобозор*

Аннотация: *В данной статье анализируются суть и значение новой Антинаркотической стратегии Европейского союза (на 2026–2030 годы) и связанного с ней Плана действий по борьбе с незаконным оборотом наркотиков. В исследовании освещаются вопросы внедрения новых механизмов в рамках Агентства ЕС по наркотикам (EUDA) и Европола, цифровых технологий, мониторинга киберпространства, а также усиления международного сотрудничества.*

Ключевые слова: *Европейский союз, стратегия, EUDA, Европол, транснациональная преступность, наркотические средства, психотропные вещества, наркотики, синтетические наркотики, прекурсоры, наркотрафик, наркорынок.*

Abstract: *This article analyzes the essence and significance of the new EU Drugs Strategy (2026–2030) and the related Action Plan against drug trafficking. The study highlights the implementation of new mechanisms within the EU Drugs*

Agency (EUDA) and Europol, digital technologies, cyberspace monitoring, and the strengthening of international cooperation.

Keywords: *European Union, strategy, EUDA, Europol, transnational crime, narcotics, psychotropic substances, drugs, synthetic drugs, precursors, drug trafficking, drug market.*

Бугунги кунда глобаллашув жараёнлари ва рақамли технологияларнинг шиддат билан ривожланиб бориши трансмиллий уюшган жиноятчилик, хусусан, наркотрафикнинг янги усуллари ва йўналишлари пайдо бўлишига олиб келмоқда.

Европа наркобозорининг йиллик айланмаси 30 миллиард евродан ортиқни ташкил этиб, у жамоат хавфсизлиги, ижтимоий барқарорлик ва демократик институтлар фаолиятига жиддий таҳдид солмоқда [1].

Наркотиклар янада осон топиладиган, кучли таъсир қилувчи ва уларни мусодара қилиш мураккаброқ бўлган тус олди. Синтетик моддаларнинг таъсири кучайди, етказиб бериш занжири эса анча чигал кўринишга келди. Айни пайтда йирик портлар, жумладан, Антверпен, Роттердам ва Гамбург яқинида наркотикларнинг ноқонуний айланмаси билан боғлиқ зўравонликлар сони ортди. 2024 йилда Европа Иттифоқида наркотик моддани дозадан ошириб юбориш оқибатида камида 7 600 киши вафот этган бўлиб, бунга асосан бир вақтнинг ўзида бир нечта моддаларни истеъмол қилиш сабаб бўлган ва бунда опиоидлар асосий омил бўлиб қолмоқда [2].

Ушбу таҳдидларга тизимли жавоб бериш мақсадида, Европа Комиссияси таклифи билан Европа Кенгаши томонидан янги **2026 – 2030 йилларга мўлжалланган Наркотикларга қарши стратегия** тасдиқланди [3]. Мазкур ҳужжат комплекс ва мутаносиб ёндашувга асосланган бўлиб, унда соғлиқни сақлаш, хавфсизлик, инсон ҳуқуқлари ва халқаро шериклик тамойиллари уйғунлаштирилган.

Европа Иттифоқининг янги стратегияси анъанавий жазо чораларидан воз кечмаган ҳолда, тизимли тайёргарлик ва илмий инновацияларга асосланган моделни илгари суради. Мазкур стратегияни муваффақиятли амалга оширишда янги ташкил этилган **Европа Иттифоқи Наркотиклар агентлиги** (EUDA) марказий институционал ролни ўйнайди [4].

Ушбу агентлик Европада наркотикларнинг ноқонуний тарқалиши, уларнинг аҳоли саломатлиги ва хавфсизликка таҳдидларини ўрганувчи энг асосий марказий ташкилотдир. Штаб-квартираси Лиссабон шаҳрида (Португалия) жойлашган.

Агентлик дастлаб 1993 йилда EMCDDA (European Monitoring Centre for Drugs and Drug Addiction — Наркотиклар ва наркоманияни мониторинг қилиш бўйича Европа маркази) номи билан тузилган. 2024 йил 2 июлдан бошлаб ташкилот расман EUDA номига ўзгартирилган ва унинг ваколатлари сезиларли даражада кенгайтирилган [5].

EMCDDA ўрнига EUDA ташкил этилишининг бош сабаби — эски агентлик ваколатлари фақат маълумот тўплаш билан чекланиб, глобал ва рақамлашган наркобозорнинг шиддатли хавфларига қарши тезкор жавоб қайтаришга ожизлик қилиб қолганидир.

Бугунги кунда EUDA доирасида амалиётга қуйидаги 4 та асосий янги механизм жорий этилди:

– **Европа наркотиклар бўйича огоҳлантириш тизими** (European Drug Alert System): Бозорда инсон ҳаётига ўта хавфли модда (масалан, одатдаги таблеткаларга аралаштирилган синтетик опиоид ёки заҳарли аралашма) пайдо бўлиши билан тизим барча аъзо давлатларнинг соғлиқни сақлаш ва ҳуқуқ-тартибот органларига дарҳол сигнал беради.

– **Европа таҳдидларни баҳолаш тизими** (European Threat Assessment System): Бу механизм хавфсизлик органлари (Европол ва бошқ.) билан биргаликда ишлайди. У янги наркотрафик йўллари, жиноий тармоқларнинг усуллари ва технологиялари хавфини олдиндан баҳолаб, чегара ва божхона хизматларини олдиндан шай ҳолатга келтиради.

– **Суд-тиббий ва токсикологик лабораториялар тармоғи** (European Network of Forensic and Toxicological Laboratories): Европа Иттифоқи бўйлаб токсиколог ва суд-экспертиза марказларини бирлаштиради. Агар бирон давлатда номаълум янги кимёвий модда аниқланса, унинг формуласи ва таркиби ушбу тармоқ орқали бир неча соат ичида бутун Европа бўйлаб юборилади.

– **Илмий башоратлаш ва эрта аниқлаш модели** (Foresight): Сунъий интеллект ва катта ҳажмдаги маълумотлар (оқова сувларни таҳлил қилиш, онлайн-савдо бозорлари алгоритмлари) орқали келгуси йилларда қандай моддалар оммалашиши мумкинлиги олдиндан моделлаштирилади.

Агентлик Европа Иттифоқига аъзо 27 та давлат, шунингдек, Норвегия, Туркия ва Иттифоққа аъзоликка номзод мамлакатлар билан яқиндан ишлайди. Шунингдек, у Европол, Евроюст (Европа адлия органи) ва Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти каби йирик тизимлар билан маълумот алмашади.

EUDA ҳар йили дунё миқёсида тан олинадиган Европа наркотиклар ҳисоботи (European Drug Report) ни эълон қилади [6].

Европа Иттифоқининг Наркотикларга қарши курашиш стратегияси бешта устувор йўналиш атрофида қурилган:

1) маълумотларни йиғиш, мониторинг ва тезкор огоҳлантириш тизимларини такомиллаштириш ҳисобига таҳдидларга тайёргарлик ва чора кўришни кучайтириш, шунингдек, Европа Иттифоқининг наркотиклар бўйича агентлиги (EUDA) ролини ошириш;

2) профилактика, даволаш ва реинтеграция чора-тадбирларини қўллаб-қувватлаш орқали аҳоли саломатлигини ҳимоя қилишни мустаҳкамлаш;

3) хавфсизликни таъминлашга қаратилган чора-тадбирларни илгари суриш, шу жумладан, уюшган жиноятчиликка қарши курашиш қоидаларини қатъийлаштириш бўйича таклифларни баҳолаш. Ушбу йўналишдаги бошқа чоралар почта ва посилка хизматларида наркотикларни аниқлашни яхшилаш учун давлат-хусусий шерикликни кучайтиришни, шунингдек, портларга нисбатан Европа Иттифоқининг янги стратегиясини ишлаб чиқишни ўз ичига олади;

4) наркотиклар билан боғлиқ зарарларнинг олдини олиш, бунда асосий эътиборни ёшларни уюшган жиноятчиликка жалб этилишидан ҳимоя қилиш чораларига қаратиш;

5) гиёҳвандлик муаммосини ҳал қилиш учун шериклик алоқаларини мустаҳкамлаш, хусусан, учинчи давлатлар ва минтақалар билан халқаро альянсларни кучайтириш ва кенгайтириш.

Шу билан бирга, ушбу стратегияга ҳамроҳ бўлган Европа Иттифоқининг наркотикларнинг ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича Ҳаракатлар режаси ушбу мақсадларни олтита йўналиш бўйича тезкор (оператив) чораларга айлантирди, жумладан:

– контрабанданинг ўзгариб турадиган йўналишлари ва жиноий тармоқларнинг иш услубларига мослашиш;

– наркожиноятлар ва зўравонликнинг олдини олиш;

– ҳуқуқни муҳофаза қилиш, суд ва божхона органлари ўртасидаги ҳамкорликни кучайтириш, бунда Европол интернетдаги ноқонуний наркотрафикка қарши курашни қўллаб-қувватлашда марказий рол ўйнайди;

– синтетик наркотиклар ва прекурсорларга қарши курашиш;

– тадқиқот ва инновацияларни рағбатлантириш, шу жумладан, 2026 йилда янги Хавфсизлик ва инновациялар кампусини очиш;

– халқаро ҳамкорликни кучайтириш, хусусан, Европа Иттифоқига аъзо давлатлар ва ҳамкор мамлакатларнинг ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари

томонидан қўшма тезкор-тергов тадбирларини ўтказиш, шунингдек, портларнинг барқарорлигини (бардошлилигини) ошириш [7].

Хавфсизлик ва инновациялар кампуси (Security Research and Innovation Campus) — бу Европа Комиссияси томонидан Европа Иттифоқининг ички хавфсизлик стратегияси (ProtectEU) доирасида ташкил этилган янги йирик илмий-тадқиқот ва амалий маркази ҳисобланади. Ушбу кампус расман 2026 йил 10 сентябрда Италиянинг Испра шаҳрида, Европа Иттифоқининг Қўшма тадқиқот маркази (Joint Research Centre - JRC) базасида иш бошлади. Кампуснинг бош вазифаси — назарий илмий тадқиқотлар ва хавфсизлик соҳасидаги янги технологияларни тезкорлик билан реал ҳаётга ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари (полиция, божхона, EUDA, Европол) амалиётига татбиқ этиш вазифасини тезлаштиришдир [8].

Марказ Европа Иттифоқи Ҳаракатлар режасининг ажралмас қисми сифатида қуйидаги йўналишларда инновацияларни ишлаб чиқади:

– янги техник воситалар: Почта, посилка хизматлари ва йирик денгиз портларида яширилган наркотикларни автоматик ва тезкор аниқловчи сканерлар ҳамда сунъий интеллект тизимларини яратиш ва синовдан ўтказиш;

– синтетик наркотиклар лабораторияси: эндигина пайдо бўлаётган янги психоактив моддалар ва прекурсорларни сониялар ичида аниқлайдиган криминалистик ва токсикологик технологияларни ривожлантириш;

– киберхавфсизлик ва Даркнет: Интернет ҳамда яширин тармоқларда наркотиклар савдоси билан шуғулланувчи жиноий гуруҳларни рақамли излар орқали фош этиш усулларини лойиҳалаштириш.

Европа Иттифоқида назорат остига олинадиган моддалар тизими иккита йирик қонунчилик блокига бўлинади: тайёр гиёҳвандлик воситалари / янги психоактив моддалар ҳамда наркотикларни тайёрлашда фойдаланиладиган кимёвий хомашё —прекурсорлар бўйича қонунчилик.

Европа Иттифоқи миқёсида қайси модда “наркотик” деб ҳисобланиши ва унга нисбатан жиноий жавобгарлик чоралари қандай бўлиши Европа Иттифоқи Кенгашининг 2004/757/ЖНА Ҳадли қарори (Council Framework Decision) билан тасдиқланган. Ушбу базавий ҳужжат БМТнинг 1961 ва 1971 йиллардаги халқаро конвенциялари рўйхатидаги барча моддаларни ўз ичига олади, шунингдек, унинг алоҳида Иловасида (Annex) Европа Иттифоқи ҳудудида аниқланган янги хавфли кимёвий бирикмалар жамланади [9].

Европа Иттифоқида кимёвий воситалар айланмаси ва уларнинг ноқонуний лабораторияларга чиқиб кетишининг олдини олиш иккита марказий Регламент орқали назорат қилинади: 1) Регламент (ЕС) № 273/2004

— Европа Иттифоқининг ички бозоридаги қонуний кимёвий воситалар айланмасини бошқаради [10]; 2) Регламент (ЕС) № 111/2005 — Европа Иттифоқи ва учинчи давлатлар ўртасидаги ташқи савдо операциялари ва божхона назоратини тартибга солади [11].

Европа Иттифоқи қонунчилигига кўра, прекурсорлар хавфлилик даражаси ва саноатдаги қонуний ишлатилишига қараб тоифаланади:

1-тоифа: энг қатъий назоратдаги моддалар. Бу моддалар билан ишлаш учун махсус лицензия ва қатъий рўйхатдан ўтиш талаб этилади;

2 ва **3-тоифалар**: саноатда (бўёқлар, эритувчилар ва кислоталар ишлаб чиқаришда) кенг қўлланиладиган, аммо наркотиклар синтезида ҳам иштирок этиши мумкин бўлган кимёвий воситалар бўлиб, улар учун декларация ва харидорни мажбурий текшириш тизими амал қилади.

Европа Иттифоқида ноқонуний бозорга янги чиқаётган “дизайнерлик наркотиклари” ва синтетик кимёвий муқобилларга тезкорлик билан таъқиқ қўйиш учун кўп босқичли экспресс-тизим мавжуд. Бу жараёнда Европа Иттифоқининг Наркотиклар агентлиги (EUDA) марказий ролни бажаради. Ўзгартириш киритиш қуйидаги алгоритм асосида кечади:

1. Мониторинг ва тезкор огоҳлантириш: Европа Иттифоқи давлатларидан бирида янги кимёвий бирикма аниқланса, у Европа Иттифоқининг Тезкор огоҳлантириш тизими (Early Warning System) орқали базага киритилади.

2. Илмий баҳолаш: Агар модда оммавий заҳарланиш ёки ўлимга сабаб бўлаётган бўлса, EUDA қошидаги Илмий қўмита Европол билан ҳамкорликда 6 ҳафта (42 кун) ичида модданинг токсикологик хавфи тўғрисида илмий хулоса беради.

3. Қонун қабул қилиш: Европа Комиссияси ушбу илмий хулоса асосида узоқ парламент муҳокамаларисиз Делегацияланган акт (Delegated Act) чиқаради. Ушбу ҳужжат расмий журналда чоп этилиши билан модда бутун Европа Иттифоқи ҳудудида таъқиқланган ёки назорат остидаги моддалар рўйхатига (Иловаларга) расман қўшилади. Аъзо давлатларга ўз миллий қонунчилигини мувофиқлаштириш учун 6 ойгача муддат берилади.

Юқоридагилардан келиб чиқадиган асосий хулоса шундан иборатки, Европа Иттифоқининг 2026–2030 йилларга мўлжалланган янги Наркотикларга қарши стратегияси илмий инновациялар, рақамли технологиялар ва проактив тайёргарликка асосланган мутлақо янги ва замонавий стратегик моделни илгари суради. Ушбу ҳужжатнинг бош аҳамияти — глобаллашган кибермакон, чигал контрабанда йўналишлари ва ўта хавфли синтетик моддаларнинг шиддатли ривожланишига нисбатан Европа ҳамжамиятининг

тизимли, тезкор ва комплекс жавоб қайтариш қобилиятини ҳуқуқий ва институционал жиҳатдан мустаҳкамлаганидадир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Council of the European Union. EU drugs policy. https://www.consilium.europa.eu/en/policies/eu-drugs-policy/
2. Euronews. How is the EU tackling drug trafficking and synthetic substance use? https://www.euronews.com/2026/06/17/how-is-the-eu-tackling-drug-trafficking-and-synthetic-substance-use
3. European Commission. Commission presents new EU drugs strategy and action plan against drug trafficking. https://home-affairs.ec.europa.eu/news/commission-presents-new-eu-drugs-strategy-and-action-plan-against-drug-trafficking-2025-12-04_en
4. European Union Drugs Agency (EUDA). Mission. https://www.euda.europa.eu/about/mission_en
5. European Union. European Union Drugs Agency (EUDA). https://european-union.europa.eu/institutions-law-budget/institutions-and-bodies/search-all-eu-institutions-and-bodies/european-union-drugs-agency-euda_en
6. European Union Drugs Agency (EUDA). European Drug Report 2026. https://www.euda.europa.eu/publications/european-drug-report/2026_en
7. Eucrim. Commission presents new drugs strategy and new legislation against precursors. https://eucrim.eu/news/commission-presents-new-drugs-strategy-and-new-legislation-against-precursors/
8. European Commission – Joint Research Centre. Scientific activities: Security Research Innovation Campus. https://joint-research-centre.ec.europa.eu/scientific-activities/security-research-innovation-campus_en
9. European Union. Council Framework Decision 2004/757/JHA of 25 October 2004 laying down minimum provisions on the constituent elements of criminal acts and penalties in the field of illicit drug trafficking. https://eur-lex.europa.eu/eli/dec_framw/2004/757/2026-01-12/eng
10. Federal Agency for Medicines and Health Products (FAMHP). Scheduled and monitored substances. https://www.famhp.be/en/human_use/particular_products/specially_reglemented_substances/precursors/scheduled_and_monitored

11. European Union. Council Regulation (EC) No 111/2005 laying down rules for the monitoring of trade between the Community and third countries in drug precursors. https://eur-lex.europa.eu/eli/reg/2005/111/oj/eng

8. TA’LIM, PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH MODELINI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Aminova Nasiba Davlatboy qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
aminovanasiba396@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish modelini oliy ta’lim jarayonida amalga oshirishning pedagogik shartlari asoslangan. Shartlarni aniqlashda emotsional intellekt rivojlanishining xususiyatlari, L.S.Vygotskiy, D.Kolb, J.Leyv va E.Venger qarashlari hamda xorijiy dasturlarni tashkil etish tajribasiga tayanildi. To‘rtta shart belgilandi: mashg‘ulotlarni “Pedagogik mahorat” fanining o‘quv rejasiga kiritish, mashg‘ulot olib boruvchining tayyorgarligi, guruhda bemalol fikr almashish muhiti va maktabdagi sinf o‘qituvchisi bilan hamkorlik. Har bir shartning nazariy asosi va uni ta’minlash vositalari ko‘rsatildi. Shartlarning ta’siri keyingi bosqichda tajriba-sinov ishida tekshiriladi.*

Kalit so‘zlar: *emotsional intellekt, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, pedagogik shartlar, “Pedagogik mahorat” fani, pedagogik amaliyot, guruh muhokamasi, sinf o‘qituvchisi bilan hamkorlik.*

Аннотация. *В статье обоснованы педагогические условия реализации модели развития эмоционального интеллекта будущих учителей начальных классов в вузовском образовательном процессе. Условия определены на основе особенностей развития эмоционального интеллекта, идей Л.С.Выготского, Д.Колба, Дж.Лейв и Э.Венгера, а также опыта организации зарубежных программ. Выделены четыре условия: включение занятий в учебный план дисциплины «Педагогическое мастерство», подготовленность преподавателя, ведущего занятия, атмосфера свободного обмена мнениями в группе и сотрудничество с учителем класса в школе. Для каждого условия показаны теоретическое основание и средства его обеспечения. Влияние условий будет проверено на следующем этапе опытно-экспериментальной работы.*

Ключевые слова: *эмоциональный интеллект, будущий учитель начальных классов, педагогические условия, дисциплина «Педагогическое*

мастерство», педагогическая практика, групповое обсуждение, сотрудничество с учителем класса.

Abstract. *The article substantiates the pedagogical conditions for implementing a model for developing emotional intelligence in pre-service primary school teachers within university education. The conditions were derived from the features of emotional intelligence development, the ideas of L.S. Vygotsky, D. Kolb, J. Lave and E. Wenger, and the experience of organising programmes abroad. Four conditions were identified: embedding the sessions in the curriculum of the Pedagogical Mastery course, the preparedness of the session leader, a climate of open discussion in the group, and cooperation with the class teacher at school. For each condition, its theoretical basis and the means of ensuring it are shown. The effect of the conditions will be tested at the next stage of the experimental study.*

Keywords: *emotional intelligence, pre-service primary school teacher, pedagogical conditions, Pedagogical Mastery course, teaching practice, group discussion, cooperation with the class teacher.*

Kirish

Xorijiy tadqiqotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarning emotsional intellektini maxsus mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish mumkinligi ko‘rsatilgan. R.Gilar-Korbi va hamkasblari hamda M.O‘zdemir Jihan va M.Dilekmen mashg‘ulotlarni o‘quv kursi ichida o‘tkazgan va tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq o‘sishni qayd etgan [1; 2]. Mamlakatimizda K.T.Olimov va hamkasblari boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining emotsional sifatlari o‘quvchilarning maktabdagi farovonligi bilan bog‘liqligini aniqlagan [3]. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish masalasi A.T.Toshxonov tomonidan tadqiq etilgan [4].

Tadqiqot doirasida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida emotsional intellektni rivojlantirish modeli ishlab chiqilgan. Unda “Pedagogik mahorat” fanining 12 ta amaliy mashg‘uloti maktab amaliyoti bilan uyg‘unlashtirilgan. Biroq modelning natijasi faqat mashg‘ulot mazmuniga emas, ular qanday sharoitda tashkil etilishiga ham bog‘liq. Bir xil mashg‘ulot yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lmagan o‘qituvchi rahbarligida yoki talabalar fikr aytishdan tortinadigan guruhda kutilgan natijani bermasligi mumkin. Emotsional intellektni rivojlantirish mashg‘ulotlarining mazmuni xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan bo‘lsa-da, ularni amalga oshirish sharoitlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash misolida yanada takomillashtirishni taqozo qiladi. Maqolaning maqsadi mazkur modelni oliy ta’lim jarayonida amalga oshirishning pedagogik shartlarini aniqlash va asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Xorijiy tajribada bo‘lajak o‘qituvchilar uchun mashg‘ulotlar ikki yo‘l bilan tashkil etiladi: alohida kurs sifatida yoki o‘quv rejasidagi fan ichida [1]. R.Gilar-Korbi va hamkasblari ikkinchi yo‘lni tanlab, sakkizta mashg‘ulotni odatiy kursning amaliy darslariga singdirgan. Natijada talabalarning emotsional intellekti o‘sgan, fan bo‘yicha o‘zlashtirishi pasaymagan va ularga auditoriyadan tashqari qo‘shimcha yuklama tushmagan [1]. M.O‘zdemir Jihan va M.Dilekmen ham o‘n haftalik dasturni o‘qitish jarayoniga qo‘shgan [2]. S.Rivers va hamkasblari esa RULER dasturini 5–6-sinflarning ona tili va adabiyot darslariga kiritgan. Bunday sinflarda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabat iliqroq va yaqinroq deb baholangan [5].

Mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchining o‘rni o‘qitish nazariyalarida alohida ko‘rib chiqilgan. L.S.Vygotskiy ta’limni o‘quvchi mustaqil bajara olmaydigan, ammo kattalar yordamida uddalay oladigan vazifalarga yo‘naltirish zarurligini asoslagan [6]. D.Vud, J.Bruner va G.Ross o‘qituvchi vazifaning o‘quvchi hali uddalay olmaydigan qismini o‘z zimmasiga olishini va qolgan qismini bajarishda unga yo‘l ko‘rsatishini tavsiflagan [7]. P.Jennings va M.Grinberg esa o‘qituvchining o‘z emotsional sifatlari sinfdagi munosabatlar va sinfni boshqarish sifatiga ta’sir qilishini ko‘rsatgan [8]. Bundan kelib chiqadiki, mashg‘ulot olib boruvchi o‘qituvchi talabaga faqat bilim bermaydi, uning muomalasi ham kasbiy namuna vazifasini bajaradi.

Bo‘lajak o‘qituvchi uchun amaliyot va uni tahlil qilish o‘rtasidagi bog‘liqlik ham muhim. D.Kolb ta’rificha, o‘rganish aniq tajriba, uni kuzatish va tahlil qilish, umumlashtirish hamda yangi vaziyatda sinab ko‘rish orqali kechadi [9]. J.Leyv va E.Venger kasbni egallashni amaliyot jamoasining chekkasidagi ishtirokdan to‘liq ishtirokka o‘tish jarayoni sifatida talqin qilgan [10]. G.Monroy Korrea va A.Mansanal Martines tahlil qilgan dasturlarda ham hamkorlikdagi usullar ustunlik qilgan va ular tajribadan o‘rganish hamda refleksiyaga tayangan [11]. Biroq bu g‘oyalar ko‘pincha alohida qo‘llanadi. Ularni bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining emotsional intellektini rivojlantirish sharoitlari tizimida birlashtirish qo‘shimcha asoslashni talab qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot nazariy xarakterga ega bo‘lib, unda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va modellashtirish usullari qo‘llandi. Pedagogik shartlar masalasi mahalliy pedagogikada, jumladan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining malakasini oshirish misolida ham tadqiq etilgan [12]. Maqolada pedagogik shart sifatida model maqsadiga erishishga xizmat qiladigan, mashg‘ulotni tashkil etish, o‘qituvchi ishi

va guruh muhitiga oid talablar olindi. Shartlarni aniqlashda uch manbaga tayanildi. Birinchisi, tadqiqotning nazariy qismida ajratilgan emotsional intellekt rivojlanishining xususiyatlari: bosqichlilik, tajribaga bog‘liqlik, namuna xususiyati, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va madaniy-institutsional shartlanganlik. Ikkinchisi, yuqorida ko‘rib chiqilgan o‘qitish nazariyalari. Uchinchisi, xorijiy dasturlarni tashkil etish tajribasi. Har bir shart uchun ikki savolga javob izlandi: u qaysi xususiyat yoki nazariy qoidadan kelib chiqadi va o‘quv jarayonida qanday vosita orqali ta’minlanadi. Faqat oliy ta’lim muassasasi o‘zi ta’minlay oladigan talablar shart sifatida olindi.

Tahlil va natijalar

Tahlil asosida modelni o‘quv jarayonida qo‘llash uchun to‘rtta pedagogik shart belgilandi (1-jadval).

1-jadval

Modelni amalga oshirishning pedagogik shartlari

Pedagogik shart	Asosi va nimani ta’minlaydi	Ta’minlash vositasi
1. Mashg‘ulotlarni o‘quv rejasiga kiritish	Bosqichlilik, tajribaga bog‘liqlik; tajribaning izchil to‘planishi	“Pedagogik mahorat” fanining 12 ta amaliy mashg‘uloti, amaliyot bilan navbatlashuv
2. Mashg‘ulot olib boruvchining tayyorgarligi	Namuna xususiyati; yo‘naltiruvchi yordam	Savollar orqali yo‘naltirish, yordamni asta-sekin kamaytirish
3. Guruhda bemalol fikr almashish muhiti	Madaniy-institutsional shartlanganlik; tajribani ochiq tahlil qilish	Guruh kelishuvi, refleksiv jurnalning baholanmasligi
4. Sinf o‘qituvchisi bilan hamkorlik	Pedagogik qo‘llab-quvvatlash; usulning sinfda qo‘llanishi	Kuzatuv varaqasi, darsdan keyingi suhbat

Ключевые слова: *авангардная педагогика, инновации, воспитание, социализация, образовательные технологии.*

Annotatsiya: *Maqolada ta’limning zamonaviy yo‘nalishi sifatida avangard pedagogikaning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Jamiyatni raqamlashtirish sharoitida yoshlarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning innovatsion modellarining ahamiyati ochib beriladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ularning o‘quvchilar shaxsini rivojlantirishga ta’siri tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *avangard pedagogika, innovatsiyalar, tarbiya, ijtimoiylashuv, ta’lim texnologiyalari.*

Abstract: *The article discusses the features of avant-garde pedagogy as a modern direction of education. The importance of innovative models of education and socialization of youth in the context of digitalization of society is revealed. Modern pedagogical technologies and their impact on the development of students’ personalities are analyzed.*

Keywords: *avant-garde pedagogy, innovations, education, socialization, educational technologies.*

Современное общество развивается стремительными темпами, что требует качественных изменений в системе образования. Традиционные методы обучения постепенно уступают место инновационным подходам, ориентированным на развитие личности учащегося. В этих условиях особую

значимость приобретает авангардная педагогика, направленная на формирование активной, самостоятельной и креативной личности.

Авангардная педагогика представляет собой совокупность новых педагогических идей и подходов, основанных на гуманизации образования, индивидуализации обучения и использовании современных технологий. Она ориентирована на раскрытие потенциала каждого учащегося и создание условий для его самореализации.

Одной из ключевых задач авангардной педагогики является формирование у молодежи навыков XXI века. К ним относятся критическое мышление, способность к сотрудничеству, креативность и цифровая грамотность. Эти навыки являются необходимыми для успешной адаптации в современном обществе.

Важное место в авангардной педагогике занимает проектное обучение. Оно позволяет учащимся применять полученные знания на практике, развивать исследовательские навыки и работать в команде. Проектная деятельность способствует формированию ответственности и самостоятельности.

Геймификация образовательного процесса также является эффективным инструментом. Использование игровых элементов повышает мотивацию учащихся, делает обучение более интересным и способствует лучшему усвоению материала.

Цифровые технологии открывают новые возможности для образования. Онлайн-платформы, интерактивные задания и мультимедийные ресурсы делают процесс обучения более гибким и доступным. Они позволяют учитывать индивидуальные особенности каждого учащегося.

Инклюзивное образование является важным элементом современной педагогики. Оно направлено на обеспечение равных возможностей для всех учащихся независимо от их особенностей. Это способствует формированию толерантности и уважения в обществе.

Социализация молодежи является важной задачей образовательного процесса. В рамках авангардной педагогики она осуществляется через участие в социальных проектах, волонтерской деятельности и командной работе.

Несмотря на очевидные преимущества, внедрение инновационных методов сопровождается рядом трудностей. К ним относятся недостаточная подготовка педагогов, нехватка ресурсов и сопротивление традиционной системы образования.

Тем не менее, развитие авангардной педагогики является необходимым условием модернизации образования. Она позволяет подготовить молодежь к жизни в условиях современного общества и способствует формированию активной гражданской позиции.

Таким образом, авангардная педагогика играет важную роль в развитии образовательной системы. Она открывает новые возможности для воспитания и социализации молодежи, формируя личность, способную к самореализации и успешной деятельности в современном мире.

Список литературы:

1. **Кларин М. В.** Инновационные модели обучения. — М.: Просвещение, 2017.
2. **Иванов И. П.** Современные педагогические технологии. — М.: Просвещение, 2020.
3. **Петрова А. А.** Инновации в образовании. — СПб.: Питер, 2021.
4. **Смирнова Е. О.** Психология развития личности. — М.: Академия, 2018.
5. **Селевко Г. К.** Современные образовательные технологии. — М.: Народное образование, 2019.
6. **Зимняя И. А.** Педагогическая психология. — М.: Логос, 2016.

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QUVCHILARNING ILMIY-TEXNIK STARTAP LOYIHALARINI BOSHQARISHDA MONITORING MEXANIZMI

Mirzakarimova Mohidil Tojimatovna

Annotatsiya. *Mazkur tezisda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarish jarayonida monitoringning o‘rni va mazmuni yoritiladi. Monitoring loyiha rivojlanishini muntazam kuzatish, mavjud holatni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishga xizmat qiluvchi uzluksiz mexanizm sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’limda menejment, ilmiy-texnik loyiha, startap, loyiha boshqaruvi, monitoring, baholash, boshqaruv qarori, umumiy o‘rta ta’lim.*

Аннотация. *В тезисе рассматривается роль и содержание мониторинга в управлении научно-техническими стартап-проектами учащихся общеобразовательных учреждений. Мониторинг рассматривается как непрерывный механизм наблюдения, анализа результатов, выявления проблем и принятия управленческих решений.*

Ключевые слова: *менеджмент образования, научно-технический проект, стартап, управление проектами, мониторинг, оценивание, управленческое решение.*

Abstract. *This thesis examines the role and content of monitoring in managing scientific and technical startup projects of secondary school students. Monitoring is considered as a continuous mechanism for observing project progress, analyzing results, identifying problems, and making appropriate management decisions.*

Keywords: *education management, scientific and technical project, startup, project management, monitoring, assessment, management decision.*

KIRISH

Bugungi umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoni aniqlashi, amaliy yechim ishlab chiqishi va jamoada ishlashi muhim ta’limiy vazifalardan biridir. Ilmiy-texnik startap loyihalari ana shu faoliyatni amaliy shaklda tashkil etish imkonini beradi. Biroq loyiha ishini tashkil etishning o‘zi yetarli emas. Uning rivojlanishini muntazam kuzatish, natijalarni baholash va aniqlangan muammolarga mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish zarur.

Shu nuqtayi nazardan monitoring ilmiy-texnik startap loyihalarini boshqarish mexanizmining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Monitoringni loyiha faoliyatining muayyan bosqichlarida ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish bilan cheklab bo‘lmaydi. U rejalashtirishdan boshlab yakuniy natijalarni baholashgacha bo‘lgan jarayonni qamrab oladigan uzluksiz boshqaruv mexanizmi sifatida tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

1. **Boshlang‘ich diagnostika.** O‘quvchilarning qiziqishi, tayyorgarligi, mavjud bilimlari, loyiha g‘oyasining dolzarbligi va amalga oshirish imkoniyatlari aniqlanadi.
2. **Rejalashtirish monitoringi.** Loyiha maqsadi, vazifalari, bosqichlari, muddatlari, jamoa a’zolarining vazifalari va zarur resurslar belgilanadi.
3. **Jarayon monitoringi.** Loyiha bajarilishining borishi muntazam kuzatiladi. Vazifalarning bajarilishi, jamoaviy hamkorlik, mentor bilan aloqa va yuzaga kelayotgan muammolar tahlil qilinadi.
4. **Oraliq natijalarni baholash.** Belgilangan oraliq natijalar loyiha maqsadlari bilan solishtiriladi. Zarur hollarda loyiha rejasi yoki vazifalar taqsimotiga o‘zgartirish kiritiladi.
5. **Yakuniy tahlil.** Loyiha natijasi, amaliy ahamiyati, o‘quvchilarning faol ishtiroki va belgilangan maqsadlarga erishish darajasi baholanadi.
6. **Boshqaruv qarori.** Monitoring natijalariga asoslanib loyihani davom ettirish, takomillashtirish yoki amaliyotga joriy etish bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

MONITORING INDIKATORLARI

Tashkiliy indikatorlar — reja, muddat va vazifalarning bajarilishi.

Faoliyat indikatorlari — o‘quvchilarning ishtiroki, jamoaviy hamkorligi va mustaqil ishlashi.

Ilmiy-texnik indikatorlar — g‘oyaning ilmiy asoslanganligi, texnik yechimning mantiqiyligi va yangilik elementi.

Ta’limiy indikatorlar — bilim, ko‘nikma va amaliy faoliyatdagi rivojlanish.

Amaliy indikatorlar — loyihaning qo‘llash imkoniyati, foydaliligi va takomillashtirish istiqboli.

Monitoring sikli: Rejalashtirish → Amalga oshirish → Monitoring → Tahlil → Boshqaruv qarori → Takomillashtirish.

Mazkur yondashuvda monitoring faqat nazorat vositasi emas, balki boshqaruv qarorlarini asoslash vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning

quyosh energiyasidan foydalanishga mo‘ljallangan kichik qurilma loyihasida muammo yuzaga kelsa, monitoring natijasi asosida mentorlikni kuchaytirish, vazifalarni qayta taqsimlash yoki loyiha muddatini qayta ko‘rib chiqish mumkin. Bunda asosiy e’tibor qurilmaning texnik parametrlariga emas, loyiha faoliyatini boshqarish jarayoniga qaratiladi.

XULOSA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning ilmiy-texnik startap loyihalarini samarali boshqarish uchun monitoring uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etilishi lozim. Boshlang‘ich diagnostika, rejalashtirish, jarayon monitoringi, oraliq baholash, yakuniy tahlil va boshqaruv qarorlarining yagona tizimda birlashtirilishi loyiha faoliyatini izchil takomillashtirishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan monitoring mexanizmi tadqiqotning umumiy boshqaruv modelidagi “monitoring–baholash–takomillashtirish” blokini yoritadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va ilmiy faoliyatga oid normativ-huquqiy hujjatlari.
2. Ta’lim menejmenti va loyiha boshqaruvi bo‘yicha ilmiy-metodik adabiyotlar.
3. Umumiy o‘rta ta’limda innovatsion va loyiha faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy-metodik manbalar.

9. TIL, ADABIYOT, TARIX, FALSAFA VA MADANIY MEROS TADQIQOTLARI

O‘ZBEK TILI MEDIA DISKURSIDA MANIPULYATIV STRATEGIYALARNING PRAGMALINGVISTIK MEXANIZMLARI

Eshqulova Nilufar O'ktamqul qizi

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tili media diskursida manipulyativ strategiyalarni faqat alohida ekspressiv so‘zlar majmui sifatida emas, balki voqeani tanlash, freymlash, nominatsiya, modal baholash, presuppozitsiya va implikatura o‘zaro bog‘lanadigan ko‘p bosqichli pragmalingvistik mexanizm sifatida tavsiflash taklif etiladi. Tanqidiy diskurs tahlili, ijtimoiy-kognitiv yondashuv va o‘zbek pragmalingvistikasidagi qarashlar birlashtirilib, manipulyatsiya bilan legitim persuaziya o‘rtasidagi chegarani aniqlash uchun besh mezonli diagnostik model ishlab chiqildi. Tahlilda leksik-semantik baholash, evfemizatsiya va disfemizatsiya, metaforik freym, agentni fonlashtirish, modal birliklar, ritorik so‘roq, iqtibos seleksiyasi va presuppozitsion qurilmalar kabi vositalarning kommunikativ vazifalari tizimlashtirildi. Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, biror til birligining o‘zi manipulyativlikni isbotlamaydi; manipulyativ ta’sir lisoniy vosita, kommunikativ niyat, axborotning to‘liqligi, manba shaffofligi va auditoriya tanlov erkinligi o‘rtasidagi munosabatda yuzaga keladi. Taklif etilgan model o‘zbekcha yangilik matnlari, tahliliy materiallar va raqamli sarlavhalarni keyingi empirik tadqiqotlarda izchil kodlash uchun metodik asos bo‘la oladi.*

Kalit so‘zlar: *media diskurs, manipulyatsiya, pragmalingvistika, freyming, presuppozitsiya, implikatura, modal baho, nominatsiya, tanqidiy diskurs tahlili, o‘zbek tili.*

Аннотация. *В статье манипулятивные стратегии в узбекоязычном медиадискурсе рассматриваются не как набор отдельных экспрессивных слов, а как многоступенчатый прагмалингвистический механизм, объединяющий отбор события, фреймирование, номинацию, модальную оценку, пресуппозицию и импликатуру. На основе критического дискурс-анализа, социокогнитивного подхода и узбекской прагмалингвистической традиции предложена пятикомпонентная диагностическая модель, позволяющая разграничивать манипуляцию и легитимное убеждение. Систематизированы функции оценочной лексики, эвфемизации и дисфемизации, метафорического фрейма, устранения агенса, модальных*

единиц, риторического вопроса, селективного цитирования и пресуппозиционных конструкций. Показано, что отдельный языковой маркер не является достаточным доказательством манипуляции: эффект формируется во взаимодействии языкового выбора, коммуникативного намерения, полноты информации, прозрачности источника и свободы интерпретации адресата.

Ключевые слова: *медиадискурс, манипуляция, прагмалингвистика, фрейминг, пресуппозиция, импликатура, модальность, номинация, критический дискурс-анализ, узбекский язык.*

Abstract. *The article conceptualizes manipulative strategies in Uzbek-language media discourse not as a list of isolated expressive items but as a multistage pragmalinguistic mechanism in which event selection, framing, nomination, modal evaluation, presupposition and implicature interact. Critical discourse analysis, the socio-cognitive approach and Uzbek pragmalinguistic scholarship are integrated to propose a five-criterion diagnostic model for distinguishing manipulation from legitimate persuasion. The study systematizes the communicative functions of evaluative lexis, euphemization and dysphemization, metaphorical framing, agent backgrounding, modality, rhetorical questions, selective quotation and presuppositional constructions. The central claim is that no linguistic form is manipulative by itself; manipulative potential emerges from the relation between linguistic choice, communicative intention, informational completeness, source transparency and the recipient’s interpretive autonomy. The model can be used as a methodological framework for subsequent corpus-based analysis of Uzbek news reports, analytical journalism and digital headlines.*

Keywords: *media discourse, manipulation, pragmalinguistics, framing, presupposition, implicature, modality, nomination, critical discourse analysis, Uzbek language.*

KIRISH

Raqamli axborot makonida media matnining qiymati faqat xabarni tez yetkazish bilan belgilanmaydi. Yangilik bir vaqtning o‘zida voqeani tanlaydi, uning muhim va ikkilamchi tomonlarini ajratadi, ishtirokchilarga nom beradi, sabab-oqibat aloqalarini quradi va auditoriyaga qaysi nuqtai nazardan qarash qulay ekanini taklif etadi. Shu bois media diskursini o‘rganishda “nima deyildi?” savoli bilan cheklanib qolish yetarli emas; “qanday nomlandi?”, “qaysi fakt oldinga chiqarildi?”, “qaysi ma’no tayyor holatda qabul qildirilmoqda?” kabi pragmatik savollar ham muhimdir.

Media diskursining ijtimoiy fikr va ideologik talqinni shakllantirishdagi roli o‘zbek tilshunosligida ham alohida tadqiqot maydoniga aylangan [11].

Manipulyatsiya tushunchasi ko‘pincha kuchli emotsional so‘z, propaganda yoki yolg‘on xabar bilan tenglashtiriladi. Bunday yondashuv ilmiy jihatdan torlik qiladi. Teun van Dijk manipulyatsiyani ijtimoiy kuchdan noqonuniy yoki nomutanosib foydalanish, kognitiv nazorat va diskursiv amaliyot kesishmasida izohlaydi [2]. Demak, yolg‘on bo‘lmagan, faktik jihatdan to‘g‘ri matn ham axborotni selektiv joylashtirish, muqobil rakurslarni cheklash, bahoni fakt ko‘rinishida berish yoki muayyan presuppozitsiyani “allaqachon ma’lum” ma’no sifatida qabul qildirish orqali auditoriya talqinini yo‘naltirishi mumkin.

O‘zbek tilidagi media matnlar uchun bu masala ikki sababga ko‘ra dolzarb. Birinchidan, internet nashrlari va ijtimoiy platformalar sarlavha, qisqa lead, mobil bildirishnoma va videoga ilova qilingan matn kabi ixcham formatlarni faol ishlatadi; ixchamlik esa til birliklarining pragmatik yukini oshiradi. Ikkinchidan, o‘zbek tilining agglutinativ tuzilishi, modal yuklamalar, so‘roq shakllari, egalik va aniqlik munosabatlari, shuningdek, baholovchi leksikaning milliy-madaniy konnotatsiyasi yashirin ma’noni qurishda o‘ziga xos imkoniyatlar beradi. So‘nggi tadqiqotlarda o‘zbek media sarlavhalarida tabloidlashuv, emotsional freyming va qiziquvchanlik bo‘shlig‘i kabi hodisalar ham qayd etilgan [13].

Mazkur maqolaning maqsadi o‘zbek tili media diskursida manipulyativ strategiyalarning pragmalingvistik mexanizmlarini tizimlashtirish va ularni aniqlash uchun operatsion mezonlar taklif etishdan iborat. Tadqiqotning vazifalari: manipulyatsiya va persuaziya chegarasini aniqlashtirish; lisoniy vositalarni sathlar bo‘yicha tasniflash; presuppozitsiya, implikatura, freyming va modal bahoning o‘zaro munosabatini ko‘rsatish; hamda empirik korpuslarda qo‘llash mumkin bo‘lgan diagnostik modelni shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Media tilini tanqidiy tahlil qilish an’anasi Norman Faircloughning media diskursini matn, diskursiv amaliyot va ijtimoiy amaliyot o‘zaro bog‘liqligida o‘rganish tamoyiliga borib taqaladi [1]. Bu yondashuv til shaklini mustaqil hodisa sifatida emas, balki axborotni ishlab chiqarish, tarqatish va qabul qilish jarayoni bilan birga ko‘rishni talab qiladi. Van Dijkning ijtimoiy-kognitiv modeli esa diskursdagi tanlovlar auditoriyaning mental modellari va ijtimoiy reprezentatsiyalari bilan qanday bog‘lanishini ochib beradi [2; 3]. Uning manipulyatsiya haqidagi qarashi ayniqsa muhim: ta’sirning mavjudligi hali manipulyatsiya degani emas, chunki ta’lim, ogohlantirish yoki ochiq persuaziya ham adresat qaroriga ta’sir qiladi.

Muammo adresatning manfaatlari, axborotga kirish imkoniyati va ta’sir niyatining yashirinligida namoyon bo‘ladi.

Robert Entman freymingni voqelikning ayrim jihatlarini tanlab, ularni kommunikativ matnda ko‘zga ko‘rinarliroq qilish orqali muammoni ta’riflash, sababni izohlash, axloqiy baho berish yoki yechimni tavsiya etish jarayoni sifatida asoslaydi [4]. Freym nazariyasi manipulyativlikni bitta so‘zdan emas, seleksiya va saliensiya munosabatidan qidirish imkonini beradi. Masalan, bir xil iqtisodiy hodisa “xarajat”, “investitsiya”, “yuk”, “imkoniyat” yoki “islohot narxi” tarzida nomlanishi mumkin; har bir nominatsiya faktni butunlay o‘zgartirmaydi, lekin auditoriyaga boshqa konseptual yo‘lni taklif etadi.

Yangilik sarlavhasining pragmatik tabiatini Daniel Dor relevance theory doirasida “relevance optimizer” sifatida talqin qiladi: sarlavha o‘quvchiga kam ishlov xarajati evaziga yuqori kontekstual samara va’da qiladi [5]. Kate Scott clickbait sarlavhalaridagi axborot bo‘shlig‘i, aniqlik ko‘rsatkichi va kuchaytirgichlar qiziquvchanlikni qanday boshqarishini korpus tahlili bilan ko‘rsatgan [6]. Molek-Kozakowska sensatsionallikni baholovchanlik, intensivlik va xavfni dramatizatsiya qiluvchi pragmalingvistik qurilmalar bilan bog‘laydi [7]. Bu tadqiqotlar raqamli mediadagi manipulyativ salohiyatni “taqiqlangan so‘zlar ro‘yxati” emas, balki kontekstual mexanizm sifatida tushunish zarurligini ko‘rsatadi.

Yangilik diskursida baho va “yangilik qiymati”ning til orqali qurilishi Bednarek va Caple tomonidan keng yoritilgan [8]. Harcup va O’Neill yangilik qiymatlari jurnalistik seleksiyada faol konstruktiv rol o‘ynashini ko‘rsatadi [9]. Ushbu qarashlar manipulyativ strategiyalarni agenda-setting bilan avtomatik tenglashtirmaslikka yordam beradi: media har qanday holatda seleksiya qiladi. Manipulyativlik esa seleksiya auditoriyaga yashirin normativ xulosa sifatida berilganda, muqobil izohlar ataylab so‘ndirilganda yoki baho fakt sifatida kodlanganda kuchayadi.

O‘zbek pragmalingvistikasida Sh. Safarov kommunikativ niyat, kontekst, presuppozitsiya va nutqiy faoliyatning birligi masalalarini tizimli yoritgan [10]. M. Hakimov va M. Gaziyeva o‘zbek tilidagi pragmatik ma’no hosil bo‘lishini adresant-adresat munosabati hamda kontekst bilan bog‘laydi [14]. Mahalliy medialingvistik tadqiqotlarda Z. Rasulov va D. Shodiyeva media diskursida diktum va modus, tanqidiy diskurs tahlili va lingvistik manipulyatsiya masalalariga murojaat qilgan [12]. D. Nazirqulova esa 2026-yilgi tadqiqotida ingliz va o‘zbek mediasarlavhalaridagi tabloidlashuvni qiyosiy tahlil qilib, o‘zbek raqamli mediasida ekspressiv fe’llar, so‘roq qurilmalari va kognitiv bo‘shliq kabi vositalarning faol ishlatilishini ko‘rsatadi [13].

Huquqiy-kommunikativ nuqtai nazardan ham aniqlik va ishonchlilik muhim. O‘zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonunida OAV tarqatilayotgan axborotning xolisligi va ishonchliligi uchun javobgarligi qayd etiladi [15]. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda ochiqlik, oshkoralik va haqqoniylik axborot erkinligining asosiy prinsiplari sifatida ko‘rsatilgan [16]. Mazkur normalar lingvistik tahlilning o‘rnini bosmaydi, biroq media matnida fakt va baho chegarasini, manba ko‘rsatishning shaffofligini hamda ruhiy ta’sirning yashirin mexanizmlarini o‘rganish ijtimoiy jihatdan nega muhimligini ko‘rsatadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, uch metodik tayanchga asoslandi. Birinchisi — tanqidiy diskurs tahlili: unda leksik tanlov, agentlik, modal baho va iqtiboslash kabi formal belgilar ijtimoiy kontekst bilan birga ko‘riladi [1; 2]. Ikkinchisi — pragmalingvistik tahlil: presuppozitsiya, implikatura, deiksis, nutq akti va adresatga yo‘naltirilgan ta’sir shakllari kommunikativ maqsad bilan bog‘lanadi [10; 14]. Uchinchisi — freym tahlili: xabarda qaysi jihat saliyent holga keltirilgani va qaysi nominatsiya voqeaga konseptual rakurs berayotgani aniqlanadi [4].

Tahlil birligi sifatida “lisoniy marker” emas, “marker + kontekst + diskursiv funksiya” uchligi qabul qilindi. Masalan, “yangi” sifati oddiy temporal yangilikni bildirish ham mumkin; u faqat mavjud holatni eskirgan, yetarli emas yoki yangilanishga muhtoj deb oldindan qabul qildiradigan kontekstda presuppozitsion baho hosil qiladi. Xuddi shuningdek, passiv konstruktsiya grammatik jihatdan neytral vosita, biroq javobgarlik muhim bo‘lgan hodisada agentni muntazam yashirsa, diskursiv fonlashtirish strategiyasiga aylanishi mumkin.

Manipulyativlikni baholashda besh diagnostik savol taklif etildi: 1) ta’sir niyati ochiqmi yoki yashirinmi; 2) fakt va baho grammatik-semantik jihatdan ajratilganmi; 3) manba va agent ko‘rsatilganmi; 4) muhim qarshi dalil yoki muqobil rakurs sistematik chiqarib tashlanganmi; 5) matn adresatga mustaqil xulosa uchun yetarli semantik bo‘shliq qoldiradimi. Ushbu savollar birgalikda qo‘llanadi; bittasining o‘zi “manipulyatsiya” hukmini chiqarish uchun yetarli emas.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Manipulyatsiya va persuaziya chegarasi

Tahlil natijasida manipulyativ strategiyani persuaziyadan ajratish uchun “ta’sir kuchi” mezoni yetarli emasligi aniqlandi. Ochiq tahririy maqola, reklama yoki muallif kolonkasi auditoriyani faol ishontirishi mumkin, biroq uning janriy niyati ko‘rinib turadi. Manipulyativlik kuchayadigan holatda esa baho neytral axborot

ko‘rinishida niqoblanadi, manba noaniqlashtiriladi, presuppozitsiya bahsli tezisni allaqachon tasdiqlangan fakt sifatida kiritadi yoki o‘quvchining diqqat maydoni faqat bitta xulosaga xizmat qiladigan tarzda toraytiriladi.

Shu nuqtai nazardan, manipulyatsiya “yomon so‘z” emas, kommunikativ konfiguratsiyadir. Masalan, “mutaxassislar fikricha” degan noma’lum manba formulasi har doim manipulyativ emas: qisqa xabarda keyin aniq manba berilishi mumkin. Ammo matn davomida mutaxassis kimligi ochilmasa va ushbu formula bahsli xulosaga epistemik obro‘ berish uchun ishlatilsa, manba mavhumligi manipulyativ salohiyat kasb etadi. Xuddi shu tamoyil “xalq istaydi”, “hamma biladi”, “shubhasiz” kabi umumlashtiruvchi birliklarga ham taalluqli.

1-jadval. **Manipulyatsiya va legitim persuaziyani farqlash uchun diagnostik mezonlar**

Mezon	Legitim persuaziya	Manipulyativ salohiyat kuchayadigan holat
Kommunikativ niyat	Janr va pozitsiya ochiq ko‘rsatiladi	Ta’sir niyati neytral xabar ko‘rinishida yashiriladi
Fakt–baho chegarasi	Baho muallif yoki manbaga tegishli ekani seziladi	Baho faktik propozitsiyaga singdiriladi
Manba shaffofligi	Agent va dalil tekshirilishi mumkin	Mavhum manba yoki agentsiz bayon ustun
Muqobil rakurs	Qarshi dalilga semantik joy qoldiriladi	Seleksiya faqat bitta xulosani kuchaytiradi
Adresat avtonomiyasi	Xulosa chiqarish uchun yetarli kontekst beriladi	Presuppozitsiya va implikatura tayyor xulosani majburan yaqinlashtiradi

Manba: muallif tomonidan van Dijk [2], Fairclough [1] va pragmalingvistik mezonlar asosida tizimlashtirildi.

Manipulyativ ta’sirning lisoniy sathlari

Leksik-semantik sathda eng faol vositalar baholovchi sifatlar va fe’llar, evfemizm, disfemizm, metafora, intensivator hamda umumlashtiruvchi birliklardir. “Islohot”, “cheklov”, “tartib”, “himoya”, “bosim”, “tahdid”, “yutuq” kabi nominatsiyalar voqeaning faktik yadrodan tashqari aksiologik yo‘nalishini ham belgilaydi. Bir nominatsiyani boshqa nominatsiya bilan almashtirish hodisaning referentini o‘zgartirmasligi mumkin, lekin uning talqin ko‘lamini o‘zgartiradi. Shu

bois tahlilchi so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan birga qanday semantik maydon va assotsiativ freym faollashayotganini ham tekshirishi kerak.

Morfosintaktik sathda agentlikning ifodalanishi muhim. “Qaror qabul qilindi”, “kamchilikka yo‘l qo‘yildi”, “narx oshirildi” kabi passiv yoki agentsiz konstruksiyalar o‘zbek rasmiy va media uslubida tabiiy uchraydi. Biroq javobgarlik markaziy ahamiyatga ega bo‘lgan voqeada agentning izchil fonlashtirilishi sababiy zanjirni ko‘rishni qiyinlashtirishi mumkin. Aksincha, salbiy harakat bilan bog‘langan agentni sarlavhada oldinga chiqarish, ijobiy natijada esa agentni umumiy jamoaga singdirish ham diskursiv polarizatsiyaning formal ko‘rinishlaridan biridir [2].

Pragmatik sathda presuppozitsiya ayniqsa kuchli. “Nihoyat muammo hal etildi” birikmasi faqat hal etilish faktini emas, muammoning uzoq davom etgani va yechim kutilganini ham oldindan qabul qildiradi. “Yana bir yutuq” birikmasi esa avvalgi yutuqlar mavjudligini presuppozitsiya qiladi. Bunday yashirin komponentlar inkor qilishga nisbatan chidamli bo‘lganligi sababli, ular sarlavhada yoki leadda kognitiv fonni tez yaratadi. Presuppozitsiya axborot iqtisodini ta’minlaydi, lekin bahsli bahoni tekshirilmagan umumiy bilim sifatida kiritganda manipulyativ salohiyatga ega bo‘ladi.

Implikatura ma’noning matnda bevosita aytilmagan, ammo kontekst orqali chiqariladigan qismidir. Media matnida yonma-yon joylashtirish, iqtibosning bir qismini tanlash, sababiy bog‘lovchining o‘rniga vaqt ketma-ketligini berish yoki so‘roq shakli orqali gumon uyg‘otish implikaturani boshqarishi mumkin. Masalan, “X hodisasidan keyin Y rahbar ishdan ketdi” jumlasi sababiy bog‘lanishni ochiq aytmaydi, biroq o‘quvchi ketma-ketlikdan sababiy xulosa chiqarishi ehtimoli yuqori. Bu holatda tahlil “matn nimani da’vo qildi?” va “o‘quvchi nimani xulosa qilishga undaldi?” savollarini alohida ko‘rishi zarur.

Modal birliklar “mumkin”, “ehtimol”, “shubhasiz”, “albatta”, “kutilmoqda”, “zarur”, “kerak” kabi shakllar orqali axborotning ishonchlilik, majburiylik yoki baholash darajasini sozlaydi. Epistemik modal vositalar manbaga ehtiyotkorlik bilan masofa olish uchun legitim vosita bo‘lishi mumkin. Ammo noaniq ma’lumot shov-shuvli sarlavhada qat’iy faktga yaqinlashtirilib, matn ichida keyin “ehtimol” bilan yumshatilsa, sarlavha va asosiy matn o‘rtasidagi modal nomutanosiblik auditoriya ta’sirini kuchaytiradi.

Diskursiv sathda freyming, kun tartibini selektiv qurish va iqtiboslar montaji ishlaydi. Iqtibos to‘g‘ri berilgan bo‘lsa ham, uning kontekstdan uzib olingan qismini sarlavhaga chiqarish butun nutqning pragmatik yo‘nalishini o‘zgartirishi mumkin. Shu sabab manipulyatsiya tahlili fakt tekshirishdan kengroq: gapning rostligi bilan

birga uning qaysi kontekstda, qaysi sarlavha ostida va qaysi qarshi ma’lumotlar bilan yonma-yon berilgani ham hisobga olinadi.

2-jadval. **O‘zbek media diskursida manipulyativ salohiyatni kuchaytiruvchi lisoniy vositalar**

Sath	Vositalar	Pragmatik funksiya	Tahlil savoli
Leksik-semantik	baho, evfemizm/disfemizm, metafora, intensivator	aksiologik yo‘nalish va hissiy fon yaratish	Nominatsiya faktga qo‘shimcha qanday baho yuklaydi?
Morfosintaktik	passiv, nominalizatsiya, agentni tushirish	javobgarlik markazini oldinga/fonga surish	Kim harakat qilgani ko‘rinadimi?
Pragmatik	presuppozitsiya, implikatura, deiksis	yashirin ma’noni “tayyor” xulosa sifatida kiritish	Qaysi tezis aytilmasdan qabul qildirilmoqda?
Modal	epistemik va deontik birliklar	ishonchlilik va majburiylik darajasini sozlash	Sarlavha bilan matnning modal kuchi mosmi?
Diskursiv	freyming, seleksiya, iqtibos montaji	voqeaga talqin burchagi berish	Muqobil rakurs qanday ko‘rinadi yoki yo‘qoladi?
Multimodal	rasm–sarlavha, tipografika, video kadr	verbal ma’noni kuchaytirish yoki qayta yo‘naltirish	Vizual qatlam verbal da’voni qanday o‘zgartiradi?

Manba: muallif tasnifi; [1; 4; 7; 8; 10; 13] dagi yondashuvlar sintezi asosida.

Presuppozitsiya, nominatsiya va freymingning o‘zaro ishlashi

Media matnida manipulyativ ta’sir ko‘pincha bir vosita bilan emas, bir nechta vositaning ketma-ket ishlashi orqali yuzaga keladi. Avval hodisa uchun nominatsiya tanlanadi; nominatsiya muayyan freymni faollashtiradi; freym sarlavhadagi baholovchi birliklar bilan kuchaytiriladi; keyin presuppozitsiya shu bahoni tabiiy fon sifatida mustahkamlaydi. Masalan, “yangi bosqich”, “keskin burilish”, “tarixiy qaror”, “navbatdagi muvaffaqiyat” kabi birikmalarning har biri o‘zicha grammatik jihatdan to‘g‘ri, biroq ularda voqeaning qanchalik yangi, keskin, tarixiy yoki muvaffaqiyatli ekani fakt emas, baholash muammosiga aylanadi.

Shu sabab tahlilda “baholovchi birlikni topish”dan keyingi bosqich zarur: uning evidensial tayanchi bormi, baho kimga tegishli, qarama-qarshi nomlash imkoniyati qanday va matn muallif bahosini manba bahosidan ajratganmi? Agar “mutaxassislar tarixiy qaror deb baholadi” deyilsa, baho atributlangan. Agar “tarixiy qaror qabul qilindi” deyilsa, baho propozitsiyaga singadi. Ikkinchi holat avtomatik manipulyatsiya emas, ammo tahlilchi tekshirishi kerak bo‘lgan yuqori pragmatik yukli qurilmadir.

O‘zbek tilida egalik va kollektiv deiksis ham muhim. “Yurtimiz”, “xalqimiz”, “bizning kelajagimiz” kabi birliklar jamoaviy identifikatsiyani kuchaytiradi. Ular tabiiy publitsistik vosita bo‘lishi mumkin, lekin bahsli siyosiy yoki iqtisodiy pozitsiyani “biz” kategoriyasiga biriktirib, muqobil fikrni “bizdan tashqari” holatga sursa, inklyuziv deiksis diskursiv legitimatsiya vazifasini bajaradi. Bunday holatni aniqlash uchun “biz” kimlarni qamrab olishi va qaysi ijtimoiy guruhlar lingvistik jihatdan ko‘rinmay qolayotganini tahlil qilish lozim.

1-rasm. **Media matnida manipulyativ salohiyatning bosqichma-bosqich shakllanish modeli**



Manba: muallif ishlanmasi; freyming, ijtimoiy-kognitiv va pragmalingvistik yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan.

Diagnostik modelning amaliy qo‘llanishi

Taklif etilgan modelda tahlil voqeaning “rost/yolg‘on” tekshiruvidan emas, kommunikativ zanjirni qayta tiklashdan boshlanadi. Birinchi bosqichda voqea va asosiy faktlar ajratiladi. Ikkinchi bosqichda sarlavha, lead va asosiy matndagi nominatsiyalar solishtiriladi. Uchinchi bosqichda modal kuch, agentlik, baholovchi leksika va sintaktik fokus belgilanadi. To‘rtinchi bosqichda presuppozitsiya hamda implikaturalar yozib chiqiladi. Beshinchi bosqichda manba shaffofligi, muqobil rakurs va adresat avtonomiyasi baholanadi. Shundagina manipulyativlik haqida ehtiyotkor xulosa chiqarish mumkin.

Modelning afzalligi shundaki, u tahlilchini siyosiy yoki axloqiy pozitsiyadan oldin lingvistik dalilga tayantiradi. Masalan, muallifga yoqmagan baholovchi so‘z manipulyatsiya deb belgilanmaydi; aksincha, o‘sha so‘zning faktga qanday singgani, kimning ovozi sifatida berilgani, qanday presuppozitsiya hosil qilgani va muqobil ma’lumot bilan muvozanatlangan-muvozanatlanmagani ko‘rsatiladi. Bu

tamoyil ilmiy obyektivlikni saqlashga va media tahlilini subyektiv “yoqdi–yoqmadi” bahosidan chiqarishga yordam beradi.

Ayni paytda model cheklovlarga ega. Manipulyativ niyatni faqat matndan ishonchli aniqlab bo‘lmaydi; buning uchun tahririy siyosat, muallif maqsadi, tarqatish algoritmi va auditoriya reaksiyasi haqida qo‘shimcha ma’lumot talab qilinishi mumkin. Bundan tashqari, bir xil til birligi turli janrlarda boshqa funksiyani bajaradi. Shuning uchun kelgusida o‘zbek tilidagi yangilik, tahliliy maqola, reklama, siyosiy nutq va ijtimoiy tarmoq postlarini alohida korpuslarda qiyoslash maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy tahlil o‘zbek tili media diskursidagi manipulyativ strategiyalarni alohida ekspressiv birliklar bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emasligini ko‘rsatdi. Manipulyativ salohiyat voqeani tanlashdan boshlab nominatsiya, freyming, modal baho, sintaktik fokus, presuppozitsiya va implikatura orqali ketma-ket shakllanadigan diskursiv jarayondir.

Birinchidan, manipulyatsiya bilan persuaziyani farqlashda ta’sirning kuchi emas, uning shaffofligi, axborotning to‘liqligi va adresatning talqin avtonomiyasi asosiy mezon bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, baholovchi leksika, metafora, passiv konstruktsiya, so‘roq shakli yoki modal birlikning o‘zi manipulyativ emas; ularning funksiyasi kontekst, manba va diskursiv vazifa bilan birga baholanadi.

Uchinchidan, o‘zbek media matnlarida presuppozitsiya, kollektiv deiksis, agentsiz bayon, baholovchi nominatsiya va dialogik sarlavha shakllari alohida e’tibor talab qiladi. Ular o‘zbek tilining tabiiy kommunikativ resurslari bo‘lsa-da, fakt va baho chegarasi xiralashgan, muqobil rakurs siqilgan yoki manba mavhumlashtirilgan sharoitda auditoriya talqinini yashirin yo‘naltirish imkonini oshiradi.

To‘rtinchidan, maqolada taklif etilgan besh mezonli diagnostik model manipulyativlik haqida qat’iy hukm chiqarish emas, tekshiriladigan lingvistik savollar tizimini yaratishga qaratilgan. Ushbu yondashuv keyingi empirik tadqiqotlarda katta hajmdagi o‘zbek media korpuslarini annotatsiya qilish, turli nashr va janrlarni qiyoslash, shuningdek media savodxonlik uchun amaliy indikatorlar ishlab chiqishda qo‘llanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fairclough N. Media Discourse. – London: Edward Arnold, 1995. – 224 p.

2. van Dijk T.A. Discourse and manipulation // Discourse & Society. – 2006. – Vol. 17, No. 3. – P. 359–383. – DOI: 10.1177/0957926506060250.

3. van Dijk T.A. Discourse and Power. – Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2008.

4. Entman R.M. Framing: Toward clarification of a fractured paradigm // Journal of Communication. – 1993. – Vol. 43, No. 4. – P. 51–58. – DOI: 10.1111/j.1460-2466.1993.tb01304.x.

5. Dor D. On newspaper headlines as relevance optimizers // Journal of Pragmatics. – 2003. – Vol. 35, No. 5. – P. 695–721. – DOI: 10.1016/S0378-2166(02)00134-0.

6. Scott K. You won’t believe what’s in this paper! Clickbait, relevance and the curiosity gap // Journal of Pragmatics. – 2021. – Vol. 175. – P. 53–66. – DOI: 10.1016/j.pragma.2020.12.023.

7. Molek-Kozakowska K. Towards a pragma-linguistic framework for the study of sensationalism in news headlines // Discourse & Communication. – 2013. – Vol. 7, No. 2. – P. 173–197. – DOI: 10.1177/1750481312471668.

8. Bednarek M., Caple H. News Discourse. – London: Continuum, 2012.

9. Harcup T., O’Neill D. What is news? News values revisited (again) // Journalism Studies. – 2017. – Vol. 18, No. 12. – P. 1470–1488. – DOI: 10.1080/1461670X.2016.1150193.

10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2008.

11. Bell A., Garrett P. (eds.). Approaches to Media Discourse. – Oxford: Blackwell, 1998.

12. Rasulov Z.I., Shodiyeva D.S. Media diskursining zamonaviy tilshunoslikda o‘rganilishi // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 2025. – № 1/4. – B. 148–151.

13. Nazirqulova D. Ingliz va o‘zbek mediadiskursi sarlavhalarida tabloidlashuv jarayonining lingvopragmatik xususiyatlari // Philology Matters. – 2026. – D2. – B. 36–60. – DOI: 10.36078/98765552237.

14. Hakimov M., Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. – Farg‘ona: Klassik, 2020.

15. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 15-yanvardagi O‘RQ-78-son “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi Qonuni (amaldagi tahrir) [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-1106870

16. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi 439-II-son “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-52268

17. Fowler R. Language in the News: Discourse and Ideology in the Press. – London: Routledge, 1991.

18. Wodak R., Meyer M. (eds.). Methods of Critical Discourse Studies. 3rd ed. – London: SAGE, 2016.

D.H. LAWRENCENING “WOMEN IN LOVE” ROMANIDA PORTRET TAVSIFLARINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (V. WOOLFNING “MRS. DALLOWAY” ROMANI BILAN QIYOSDA)

Andaqulova Nilufar Botirjon qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, 3-bosqich tayanch doktorant
nilufarandakulova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada D.H. Lawrencening “Women in Love” romanidagi portret tavsiflarining lingvopoetik xususiyatlari hamda ularning V. Woolfning “Mrs. Dalloway” romanidagi portretlar bilan qiyosiy-intertekstual munosabati tahlil qilinadi. Birkin, Gerald va Gudrun portretlaridagi somatik leksika, rang-harorat semantikasi, baholovchi sifatlar, harakat fe’llari hamda “but”, “yet”, “almost” kabi sintaktik-modal birliklarning talqin chegarasini belgilovchi vazifasi ochib beriladi. Fokalizatsiya kategoriyasi asosida personaj idroki bilan muallif bahosi farqlanadi. Lawrence romanida dinamik-relatsion, Woolf romanida esa psixologik-impressionistik portret modeli ustuvorligi asoslanadi; ikki model o‘rtasidagi farq mutlaq “ong-tana” qarama-qarshilikda emas, poetik komponentlarning ustuvorlik darajasida ekanligi ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *badiiy portret, modernizm, D.H. Lawrence, “Women in Love”, lingvopoetika, fokalizatsiya, intertekstuallik, dinamik-relatsion model.*

Аннотация. *В статье анализируются лингвопоэтические особенности портретных описаний в романе Д.Г. Лоуренса «Влюблённые женщины» и их сравнительно-интертекстуальное соотношение с портретами в романе В. Вулф «Миссис Дэллоуэй». Раскрывается функция соматической лексики, цветотемпературной семантики, оценочных прилагательных, глаголов движения, а также синтаксико-модальных единиц “but”, “yet”, “almost”, определяющих границы интерпретации портретов Биркина, Джеральда и Гудрун. На основе категории фокализации разграничиваются восприятие персонажа и авторская оценка. Обосновывается преобладание динамико-реляционной модели портрета у Лоуренса и психолого-импрессионистической у Вулф; показано, что различие между ними заключается не в абсолютной оппозиции «сознание - тело», а в степени доминирования поэтических компонентов.*

Ключевые слова: *художественный портрет, модернизм, Д.Г. Лоуренс, «Влюблённые женщины», лингвопоэтика, фокализация, интертекстуальность, динамико-реляционная модель.*

Abstract. *The article analyses the linguopoetic features of portrait descriptions in D.H. Lawrence’s Women in Love and their comparative-intertextual relation to portraits in V. Woolf’s Mrs Dalloway. It examines the role of somatic vocabulary, colour-temperature semantics, evaluative adjectives, verbs of motion and such syntactic-modal units as “but”, “yet” and “almost”, which set the limits of interpretation in the portraits of Birkin, Gerald and Gudrun. Drawing on the category of focalization, the study distinguishes character perception from authorial evaluation. It argues that a dynamic-relational portrait model predominates in Lawrence and a psychological-impressionistic model in Woolf, and that the difference lies not in an absolute “mind-body” opposition but in the relative dominance of poetic components.*

Keywords: *literary portrait, modernism, D.H. Lawrence, Women in Love, linguopoetics, focalization, intertextuality, dynamic-relational model.*

Kirish. XX asr boshidagi ingliz modernistik nasrida badiiy portret an’anaviy realistik romandagi vazifasini, personajni ijtimoiy jihatdan tanishtirish va tashqi qiyofasini to‘liq chizib berishni, qayta ko‘rib chiqdi. Portret endi tashqi belgilar ro‘yxati emas, personajning idroki, ruhiy holati va boshqalar bilan munosabatini birlashtiruvchi dinamik tuzilmaga aylandi. Adabiyotshunoslikda portret personajning yuzi, qomati, kiyimi, mimikasi, imo-ishorasi va xatti-harakatini qamrab oluvchi tashqi qiyofasining badiiy tasviri sifatida ta’riflanadi; o‘zbek adabiyotshunosligida ham u obraz yaratishning muhim vositasi sifatida qaraladi[44].

David Herbert Lawrencening “Women in Love” (1920) romani bu jarayonning o‘ziga xos namunasidir. Agar Virgina Woolfning “Mrs. Dalloway” (1925) romanida portret ko‘proq ong oqimi, xotira va lahzaviy taassurot orqali yuzaga chiqsa, Lawrenceda qiyofa tana, harakat, nigoh, rang va personajlararo ziddiyat bilan bog‘liq holda shakllanadi. Shu bois ikki romandagi portret tavsiflarini yagona mezonlar asosida qiyoslash modernistik portret poetikasining umumiy va individual jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi “Women in Love” romanidagi portret tavsiflarining lingvopoetik va ekspressiv-psixologik xususiyatlarini aniqlash hamda ularni “Mrs. Dalloway” romanidagi portretlar bilan qiyosiy-intertekstual jihatdan tahlil qilishdan

[44]Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 226–227.

iborat. Material sifatida Rupert Birkin, Gerald Crich, Gudrun va Ursula Brangwen hamda Hermione Roddice portretlari, qiyos uchun esa Clarissa Dalloway va Septimus Warren Smith tavsiflari olindi. Portret fragmenti sifatida kamida bitta qiyofaviy yoki psixofizik belgi va kamida bitta badiiy funksiyaga ega matn bo‘lagi qabul qilindi. Tahlilda lingvopoetik, narrativ, qiyosiy va intertekstual usullar qo‘llandi. Fokalizatsiya G. Genette talqinida[45] qiyofa kimning nigohi va bahosi orqali berilayotganini aniqlovchi narrativ kategoriya sifatida olindi.

Asosiy qism. Lawrence portretida tashqi belgi xarakter haqida yakunlangan hukm bermaydi; u sintaktik tuzilishning o‘zidayoq ziddiyatli baho sifatida namoyon bo‘ladi. Romanning “Sisters” bobida Birkin quyidagicha tasvirlanadi: “Birkin was as thin as Mr Crich, pale and ill-looking. His figure was narrow but nicely made”[46]. “Thin”, “pale” va “ill-looking” sifatlari qahramonning nozik va xastahol ko‘rinishini bildiradi, “but nicely made” esa bu bahoni qarama-qarshi belgi bilan chegaralaydi. “But” bog‘lovchisi qiyofani biryoqlama zaiflikka qisqartirishga yo‘l qo‘ymaydi: ikkinchi gap avvalgi taassurotni tuzatadi. Demak, Lawrence portretidagi ziddiyat falsafiy g‘oya sifatida tashqaridan yuklanmaydi, balki avvalo sintaksisda ko‘rinadi.

Birkin romanda ko‘pincha boshqa qahramonlar nigohi orqali ko‘rsatiladi va har safar turlicha qabul qilinadi: kimdir uni g‘alati va tushunarsiz deb biladi, kimdir uning so‘zlarida xavfli haqiqatni sezadi. Bu ko‘p nuqtayi nazarlilik Lawrence portret poetikasining asosiy belgilaridan biridir. Birkin portretida tashqi ko‘rinishdan ko‘ra ichki bezovtalik, fikriy keskinlik va ruhiy izlanish ustun turadi; uning yuz ifodasi, ovoz ohangi va keskin mulohazalari mavjud hayot shakllaridan noroziligini sezdiradi.

Gerald Crich portreti ikki qatlamli: birinchi qatlamda jismoniy qudrat, tartib va iroda, ikkinchisida ruhiy bo‘shliq va beqarorlik turadi. Uning qiyofasi kon, mexanizm va ishlab chiqarish tartibi bilan bog‘langan muhitda shakllanib, sanoat sivilizatsiyasining mexanik ruhini eslatadi. Gudrun Brangwen portretida estetik joziba bilan psixologik tahdid, hayrat bilan xavotir birlashadi; Ursula portretida ichki mustaqillik, sezgirlik va sukutli qarshilik, Hermione Roddice portretida esa intellektual ustunlikka intilish ortidagi zo‘riqish va ruhiy sun’iylik ta’kidlanadi. Shu tariqa har bir obraz atrofida o‘ziga xos semantik maydon shakllanadi, qahramonlar esa o‘zaro kontrast asosida ochiladi: Birkin va Gerald, Ursula va Gudrun, Ursula va Hermione.

[45]Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method / transl. by J.E. Lewin. – Ithaca: Cornell University Press, 1980. – P. 189–194.
[46]Lawrence D.H. Women in Love. – London: Martin Secker, 1921. – Ch. I «Sisters». – P. 20.

Lawrence portretining eng muhim xususiyati uning bog’liqlik tabiatidir. Qahramon qiyofasi ko‘pincha tinch holatda emas, balki munosabat va konflikt jarayonida ochiladi. Gerald va Gudrun bir-birini kuzatar ekan, har bir nigoh baholash, ichki kuchni sinash va psixologik kurash vositasiga aylanadi. Ursula va Birkin chizig‘ida esa portretlar ziddiyat orqali anglashga, nisbiy uyg‘unlikka tomon harakat qiladi. Shu ma’noda Lawrence romanida jismoniy masofa psixologik masofaga aylanadi, portret esa munosabatlar rivojining badiiy ko‘rsatkichi vazifasini bajaradi.

Portretning ekspressivligi tasvirlanayotgan belgining o‘zi bilangina emas, uni ifodalovchi so‘z, bog‘lovchi va sintaktik tartib bilan ham belgilanadi. Lawrence portretida somatik leksika (ko‘z, yuz, qo‘l, gavda, yurish, ovoz), rang-harorat semantikasi, baholovchi sifatlar, harakat fe’llari, metafora, o‘xshatish, takror va antiteza yagona lingvopoetik tizimni tashkil etadi. I.R. Galperin ta’kidlaganidek, epitet predmet belgisini nomlash bilan birga, unga nisbatan subyektiv-emotsional munosabatni ham ifodalaydi[47]. Lawrence sifatlovchilari aynan shu vazifani bajaradi.

Geraldga nisbatan qo‘llangan *“his blue eyes burned with a keen, yet cold light”*[48] ifodasida ko‘zlar “burned” fe’li bilan berilib, “keen” va “cold” sifatlari bilan aniqlanadi. “Yet” bog‘lovchisi faollik va sovuqlikning bir vaqtda mavjudligini urg‘ulaydi. Ko‘z rangining o‘zi hissiy sovuqlikni bildirmaydi; bu ma’no “light” otiga birikkan sifat va yonidagi fe’l orqali yuzaga keladi. Shu bilan birga, “cold” belgisini yolg‘iz olib, Geraldni mutlaq hissiz mexanizmga aylantirish kontekstni toraytiradi: “In the Train” epizodida Birkinning kuzatuvi qahramonning jismoniy go‘zalligiga bo‘lgan taassurot bilan ham bog‘langan. Demak, portret kuch va masofadan tashqari kuzatuvchining qiziqishini ham bildiradi.

Gudrun tasviridagi “her eyes black as night in her pallid face, she looked almost unearthly”[49] birikmasida “black as night” o‘xshatishi va “pallid face” ko‘z-yuz kontrastini kuchaytiradi, “almost” esa “unearthly” bahosini mutlaq hukm emas, taassurot sifatida belgilaydi. “Rabbit” bobidagi ushbu epizod quyon bilan kurash va uning chinqirig‘idan keyin keladi, kuzatuvchi esa Geralddir. Shuning uchun bu qiyofani Gudrunning o‘zgarmas “g‘ayritabiiy mohiyati” deb emas, vaziyat ta’sirida paydo bo‘lgan psixofizik taassurot sifatida o‘qish aniqroq. “Almost”ni tushirib qoldirish talqinning ehtiyotkorlik darajasini tubdan o‘zgartiradi.

Ushbu uch misol hajman kichik birliklarning talqin chegarasini belgilashini ko‘rsatadi: Birkinning “but”i dastlabki bahoni tuzatadi, Geraldning “yet”i ikki belgi

[47]Galperin I.R. Stylistics. – 2nd ed. – Moscow: Higher School, 1977. – P. 157.
[48]Lawrence D.H. Women in Love. – Ch. V «In the Train». – P. 61.
[49]Lawrence D.H. Women in Love. – Ch. XVIII «Rabbit». – P. 252.

orasidagi taranglikni saqlaydi, Gudrunning “almost”i taassurotni qat’iy hukmdan ajratadi. Qolaversa, bu tavsiflar ko‘pincha boshqa personajning idroki orqali beriladi. G. Lich va M. Short personaj idrokini aks ettiruvchi til tanlovi matnda o‘ziga xos “mind style” hosil qilishini ko‘rsatgan[50]. Shu sababli portretdagi baho muallifning bevosita hukmi bilan emas, fokalizator ongi bilan bog‘lab o‘qilishi lozim.

Rang semantikasi portretning psixologik qatlamini boyitadi. Sovuq ranglar va oqishlik ko‘pincha begonalashuv, hissiy muzlash va ruhiy masofani, issiq ranglar esa ichki energiya, ehtiros yoki xavfli tortilishni bildiradi. Gerald portretida sovuqlik, metallik va oqishlik semantikasi uning sanoat dunyosi bilan bog‘liqligini kuchaytirsa, Birkin va Ursula bilan bog‘liq sahnalarda yorug‘lik, havo, suv va o‘simlik obrazlari ichki erkinlikka intilishni ifodalaydi. Gudrun portretida esa vizual yorqinlik ruhiy sovuqlik bilan birga keladi.

Harakat fe’llari portretni jarayon sifatida quradi. Lawrence qahramonni bir holatda “muzlatib” qo‘ymaydi: u qaraydi, qotib qoladi, burilib ketadi, sukut saqlaydi yoki keskin javob beradi. Bunday fe’llar ruhiy holatni izohlamaydi, balki o‘quvchiga uni sezdiradi. Dialog sahnalarida ham nutq usuli, pauza va yuz ifodasidagi o‘zgarish portretning bir qismiga aylanadi: Birkin nutqi falsafiy va paradoksal, Hermione nutqi bosimli, Gudrun javoblari esa qisqa va sovuq. Sintaksis darajasida uzun konstruksiyalar murakkab ichki holatni, qisqa va keskin gaplar esa ziddiyat va ruhiy zarbani ifodalaydi.

Ikki romanni qiyoslashda har bir materialga bir xil savollar qo‘yildi: tashqi belgi kimning idrokida berilgan, qanday til vositasi bilan baholangan va qaysi aloqa orqali keng ma’no olgan? Woolf romanida Clarissa Scrope Purvis nigohida *“a touch of the bird about her, of the jay, blue-green, light, vivacious”*[51] tarzida tasvirlanadi. Bu qatorda belgilar bir-birini kuchaytiradi, Lawrencening Gerald haqidagi gapida esa ular o‘rtasidagi ichki mos kelmaslik ko‘rsatiladi. Septimus Warren Smith tasviridagi “pale-faced, beak-nosed” birliklari va ko‘zdagi xavotir semantikasi[52] ruhiy iztirobning badiiy idrokini shakllantiradi; urush travmasi haqidagi keyingi ma’lumotlar bu belgilarni chuqurlashtiradi, biroq portret tibbiy tashxis o‘rnini bosmaydi.

Intertekstual talqinda dalil darajasini farqlash muhim. Y. Kristeva har qanday matn iqtiboslar mozaikasi sifatida quriladi, deb hisoblaydi[53], ammo madaniy

[50]Leech G., Short M. Style in Fiction: A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. – 2nd ed. – Harlow: Pearson Longman, 2007. – P. 150–151.
[51]Woolf V. Mrs. Dalloway. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1925. – P. 4.
[52]Woolf V. Mrs. Dalloway. – P. 20.
[53]Kristeva J. Word, Dialogue and Novel // Desire in Language: A Semiotic Approach to Literature and Art. – New York: Columbia University Press, 1980. – P. 66.

Shuningdek inklyuziv ta’limni rivojlantirish borasida jahon hamjamiyatlari bilan ham qator hamkorlik dasturlari amalga oshirib kelinmoqda. Jumladan 1996-yilning noyabr oyida YUNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Milliy komissiyasi tashabbusi asosida Toshkentda “Maxsus ta’lim sohasida inklyuziv usullar” mavzusida milliy o‘quv dastur muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 1998 yilning oktyabr oyida Buxoro shahrida ushbu mavzu bo‘yicha YuNESKO, YuNISEF, Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda mintaqaviy anjuman tashkil etildi. 2014-2016-yillar davomida esa Yevropa Ittifoqi hamkorligida o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyoti bo‘yicha o‘qitish loyihasi amalga oshirildi hamda o‘quvchilar va ota-onalar uchun inklyuziv ta’lim o‘quv dasturlari ishlab chiqildi, 5 ta tajriba resurs markazi va 15 ta tajriba maktablari tashkil etildi [4, 6].

2022-yil oktabr oyida bir necha hafta davomida USAID tomonidan SHARE hamkorlik shartnomasi doirasida ishlayotgan Notrdam universiteti tadqiqotchilari mahalliy ekspertlar bilan birgalikda Toshkent, Sirdaryo va Namangan hududlarida diagnostik tizimli taxliliy tadqiqot o‘tkazdi [4, 4]. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar ta’limi holati va

sifatini baholash hisoblanib, AQSH Xalqaro taraqqiyot agentligi uchun ushbu sohaning O‘zbekistondagi rivojlanish darajasini tahlil etish maqsadida amalga oshirildi. Albatta, ushbu tadqiqot O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida amalga oshirilgan turli siyosiy tashabbuslar, o‘qituvchilarni inklyuziv ta’lim amaliyotiga o‘rgatish bo‘yicha loyha dasturlari hamda “2020 — 2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” tashabbuslarini alohida e’tirof etgan holda, sohadagi mavjud yutuq va kamchiliklarni aniqlab, istiqboldagi harakatlar uchun muhim taklif va xulosalar berdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkin-ki, inklyuziv ta’lim alohida ta’lim ehtiyojlari mavjud bolalar uchun ta’limning yangi shakli sifatida butun jahon hamjamiyati tomonida e’tirof etilmoqda va dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida allaqachon ushbu ta’lim o‘zini oqladi. O‘zbekistonda sohada amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan ota-onalar, o‘qituvchilar, ma’muriyatlarning imkoniyati cheklangan bolalar uchun sifatli ta’lim berish yo‘lidagi faoliyatida ma’lum to‘siqlar mavjud va imkoniyati cheklangan bolalarga sifatli ta’lim berish uchun yanda jiddiy va qatiy o‘zgarishlar amalga oshirish zarurati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 27.09.2026.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.09.2026.

3. D. Jalilova, B. Zayniyev. Inclusive Teaching problems in Uzbekistan // Eurasian Scientific Herald. May, 2022. – 270-272 pp.

4. Jenna White, TJ D’Agostino, Shahnoza Ikromova, Sean O‘Neill, Brianna (Annie) Conaghan. Uzbekistan inclusive education diagnostic study. University of Notre Dame, December 2022. – 37 pp.

5. Micheline Mason and Richard Rieser. Altogether better. London: Hobsons Publishing, 1992. – 56 pp.

6. M.A.Winzer. The history of special education : from isolation to integration. – Washington: Gallaudet University Press, 1993. – 463 pages

7. UNESCO. World Conference on Special Needs Education: Access and Quality: Final Report. — Salamanca, Spain, 7–10 June 1994. — 121 p.

8. International Disability Alliance. What an Inclusive, Equitable, Quality Education Means to Us: Report of the International Disability Alliance. — 17 June 2020. — 43 p.

9. Weygand Z. The Blind in French Society from the Middle Ages to the Century of Louis Braille. — Stanford: Stanford University Press, 2009. — 424 p.

10. Nam G. Uzbekistan: Case for Inclusion // Disability, CBR & Inclusive Development. — 2019. — Vol. 30, № 1. — P. 94–111.

11. Nam G. Inclusive Education for Children and Young People with Disabilities in Uzbekistan: The Perspectives and Experiences of Key Players: Doctoral Dissertation. — The University of Waikato, 2021.

NEMIS VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA SEMANTIK O‘XSHASHLIK VA FARQLARNING IFODALANISHI

Tulusova Yulduz Dilmurod qizi
Samarqand Davlat Chet Tillari Instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola nemis va o‘zbek tillaridagi maqollarning semantik qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan bo‘lib, unda ikki xalqning til birliklari orqali aks etgan madaniy, ijtimoiy va tarixiy tafovutlar hamda umumiyliklar yoritiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi nemis va o‘zbek paremiologik fondlarining lisoniy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning strukturaviy va mazmuniy mushtarakliklari, shuningdek, milliy o‘ziga xosliklarini belgilashdan iborat. Maqolada maqollarning nafaqat lug‘aviy ma’nolari, balki ularning ko‘chma ma’nolari, ya’ni semantik mazmuni chuqur tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil orqali shunday xulosaga kelinadiki, turli lingvomadaniyatga mansublikka qaramasdan, insoniy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va kundalik hayot hodisalari aks etgan ko‘plab maqollarning semantik yadrosi bir-biriga mos keladi. Shu bilan birga, har bir xalqning o‘ziga xos tabiiy-geografik sharoitlari, urf-odatlari va diniy e’tiqodlaridan kelib chiqadigan jiddiy farqlar ham mavjudligi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek va nemis xalqlarining dunyoqarashini, milliy mentalitetini o‘rganishda, shuningdek, madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik sohasida nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Nemis maqollari, o‘zbek maqollari, paremiologiya, semantik qiyosiy tahlil, madaniyatlararo aloqa, milliy mentalitet, universal qadriyatlar.*

Аннотация. *Настоящая статья посвящена сравнительно-семантическому анализу пословиц немецкого и узбекского языков, в котором выявляются культурные, социальные и исторические различия и общие черты, отраженные в языковых единицах двух народов. Основная цель исследования – выявление лингвокультурных особенностей немецкого и узбекского паремиологических фондов, определение их структурной и содержательной общности, а также национальной специфики. В статье глубоко анализируются не только лексические значения пословиц, но и их переносные значения, то есть их семантическое содержание. В результате сравнительно-сопоставительного анализа делается вывод о том, что, несмотря на принадлежность к разным лингвокультурам, семантическое*

ядро многих пословиц, отражающих человеческие ценности, моральные нормы и явления повседневной жизни, согласуется между собой. В то же время показано, что существуют и существенные различия, обусловленные специфическими природно-географическими условиями, обычаями и религиозными верованиями каждого народа. Результаты исследования имеют теоретическое и практическое значение для изучения мировоззрения и национального менталитета узбекского и немецкого народов, а также в области межкультурной коммуникации и переводоведения.

Ключевые слова: *немецкие пословицы, узбекские пословицы, паремиология, семантический сопоставительный анализ, межкультурная коммуникация, национальный менталитет, общечеловеческие ценности.*

Annotation. *This article is devoted to a comparative semantic analysis of proverbs in the German and Uzbek languages, which highlights the cultural, social and historical differences and commonalities reflected in the language units of the two peoples. The main goal of the study is to identify the linguistic and cultural features of the German and Uzbek paremiological funds, to determine their structural and substantive commonalities, as well as national specificities. The article deeply analyzes not only the lexical meanings of proverbs, but also their figurative meanings, that is, their semantic content. Through comparative analysis, it is concluded that, despite belonging to different linguistic cultures, the semantic core of many proverbs reflecting human values, moral norms and everyday life phenomena is consistent with each other. At the same time, it is shown that there are also significant differences arising from the specific natural and geographical conditions, customs and religious beliefs of each people. The results of the research are of theoretical and practical importance in studying the worldview and national mentality of the Uzbek and German peoples, as well as in the field of intercultural communication and translation studies.*

Keywords: *German proverbs, Uzbek proverbs, paremiology, semantic comparative analysis, intercultural communication, national mentality, universal values.*

KIRISH

Til – har bir xalqning madaniyati, tarixi va dunyoqarashining ko‘zgusidir. Ayniqsa, maqollar (paremiyalar) kabi ixcham, obrazli va falsafiy mazmunga boy til birliklari milliy mentalitetning eng yorqin ifodachisi hisoblanadi. Maqollar asrlar davomida shakllanib, avloddan avlodga o‘tib kelgan hayotiy tajriba, axloqiy normalar va ijtimoiy qadriyatlar majmuini o‘zida mujassam etadi. Maqollarning

qiyosiy tadqiqoti esa turli xalqlar madaniyati va tafakkur tarzidagi umumiylik va farqlarni chuqur anglash imkonini beradi. Ushbu maqolaning dolzarbligi nemis va o‘zbek maqollarini semantik nuqtai nazardan qiyosiy o‘rganish orqali ikki xalqning turli geografik va madaniy makonlarda rivojlanganiga qaramay, umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan yagona yondashuvlarini va ayni paytda ularning milliy o‘ziga xosliklarini aniqlash zaruriyatidan kelib chiqadi.[70]

Tadqiqotning maqsadi nemis va o‘zbek maqollarining semantik o‘xshashliklari va farqlarini tizimli tahlil qilish, ularning mazmuniy mos kelish yoki ajralib turish sabablarini madaniy-tarixiy omillar bilan izohlashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) Har ikki tildagi maqollarning mavzuiy guruhlarini aniqlash;

2) Semantik jihatdan aynan yoki qisman mos keluvchi maqollarni ajratish;

3) Mazmuniy farqlarning lisoniy va madaniy asoslarini ko‘rsatish;

4) Tadqiqot natijalarini umumlashtirib, ikki xalq mentalitetidagi umumiylik va xususiyliklarni yoritish.

Tadqiqot obyekti sifatida nemis va o‘zbek tillaridagi, asosan, hayot, mehnat, oila, do‘stlik, boylik va kambag‘allik kabi universal mavzularni qamrab olgan tanlangan maqollar xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Paremiologiya – folklorshunoslik va lingvistikning muhim sohasi bo‘lib, maqollarni tadqiq etadi. Nemis va o‘zbek maqollarini o‘rganish yuzasidan ko‘plab ishlar qilingan bo‘lsa-da, ularning semantik qiyosiy tahlili aynan mazmuniy o‘xshashlik va farqlarni aniqlashga qaratilgan kompleks tadqiqotlar hali ham cheklangan. Paremiologiyaning nazariy asoslari V.I. Dal, G.L. Permyakov, Yu.A. Levin kabi rus olimlari va W. Mieder, A. Dundes kabi g‘arb tadqiqotchilarining asarlarida chuqur yoritilgan[71]. O‘zbek paremiologiyasi M. Saidova, B. Yo‘ldoshev, Sh. Rahmatullayev singari filologlarning ishlarida keng yoritilgan bo‘lib, ular maqollarning etnokulturologik xususiyatlarini ochib berishga katta e’tibor qaratganlar. Biroq, nemis-o‘zbek paremiologik qiyosida tizimli semantik tahlilga asoslangan ishlar kamligi bu tadqiqotning nazariy ahamiyatini oshiradi[72].

Tadqiqot metodologiyasi asosan qiyosiy-tarixiy metod va strukturaviy-semantik tahlilga asoslanadi. Qiyosiy-tarixiy metod har ikki tildagi maqollarning

[70] Saidova, Mavjuda — *O‘zbek maqollarining lingvokulturologik tahlili* — Toshkent: Fan, 2023, 56-60-b.
[71] Mieder, Wolfgang — *Proverbs are the Best Policy: Folk Wisdom and American Politics* — Logan: Utah State University Press, 2021, 45-b.
[72] Rahmatullayev, Shavkat — *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2021, III jild, 78-b.

paydo bo‘lish sharoitlari va ularning tarixiy davrlar davomidagi semantik evolyutsiyasini tahlil qilish imkonini beradi. Strukturaviy-semantik tahlil esa tanlangan maqollarning ichki tuzilishi (struktura) va ular ifodalaydigan ma’no (semantika) o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Shuningdek, komponent tahlil metodi yordamida maqollardagi asosiy leksik birliklar (kalit so‘zlar) ajratib olinadi va ularning nemis hamda o‘zbek madaniyatlarida qanday konnotatsiyalarga ega ekanligi aniqlanadi. Maqollarning mos kelish darajasi (ekvivalentlik darajasi) to‘liq ekvivalentlik, qisman ekvivalentlik va ekvivalentlikning yo‘qligi (lakunalar) kabi mezonlar bo‘yicha baholanadi. Material sifatida nemis va o‘zbek maqollarining yirik to‘plamlari va lug‘atlari, jumladan, V. Miederning maqollar bazasi hamda Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” kabi manbalardan foydalaniladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘tkazilgan qiyosiy-semantik tahlil nemis va o‘zbek maqollarida katta miqdordagi universal semantik yadrolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bu universal yadro, asosan, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar, insoniy munosabatlar va tabiat qonuniyatlarini aks ettiruvchi mavzularga tegishli. Masalan, mehnatsevarlik, halollik, ahillik kabi tushunchalar har ikki xalqning maqollarida deyarli bir xil semantik ma’noda ifodalanadi. Biroq, bu umumiy mazmun turli obrazlar va leksik birliklar orqali taqdim etiladi.[73]

1-jadval.

“Mehnat” konsepti asosida semantik o‘xshashliklar

№	Nemis maqoli	O‘zbek maqoli	Semantik izoh
1	*Ohne Fleiß kein Preis.* (Mehnatsiz mukofot yo‘q.)	*Mehnat qilgan to‘yadi.*	Har ikkisi inson hayotida mehnatning zarurligini ta’kidlaydi.
2	*Morgenstund hat Gold im Mund.* (Tong soati oltin.)	*Ertalabki mehnat – baraka kaliti.*	Vaqtni qadrlash va erta mehnat qilish muvaffaqiyat garovi sifatida talqin etiladi.
3	*Übung macht den Meister.* (Mashq ustani yaratadi.)	*Ko‘p mashq qilgan – mohir bo‘lur.*	Tajriba va mehnatsevarlik ustalik manbai sifatida ko‘rsatilgan.

Tahlil: Jadvaldan ko‘rinadiki, nemis va o‘zbek maqollarida mehnat konsepti universallik kasb etgan. Ikkala tilda ham mehnat insonning asosiy qadriyati sifatida talqin etiladi. Semantik jihatdan ular sabab–natija munosabatiga qurilgan bo‘lib, “mehnat → natija (mukofot, baraka, ustalik)” zanjirini tashkil etadi.

[73] Yo‘ldoshev, Baxtiyor — *O‘zbek paremiyalarining leksik-semantik xususiyatlari* — Toshkent: Universitet, 2011, 88-92-b.

2-jadval.

“Do‘stlik va insoniy munosabatlar” konseptining ifodalanishi

№	Nemis maqoli	O‘zbek maqoli	Semantik izoh
1	*Einen Freund erkennt man in der Not.* (Do‘stni qiyinchilikda bilasan.)	*Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi.*	Har ikkisi haqiqiy do‘stlikning sinovi og‘ir paytda ekanini bildiradi.
2	*Wer anderen eine Grube gräbt, fällt selbst hinein.* (Boshqaga chuqur qazigan o‘zi tushadi.)	*Yomonlik qilgan yomonlik topadi.*	Ezgulik va yovuzlikning sabab–oqibat aloqasi bir xil semantik asosda ifodalangan.
3	*Gemeinsam sind wir stark.* (Birlikda kuch bor.)	*Birlikda baraka bor.*	Jamoaviylik, hamjihatlikning ijobiy natija berishiga urg‘u berilgan.

Tahlil: Do‘stlik konsepti doimiy ijtimoiy qadriyat sifatida har ikkala xalq tafakkurida muhim o‘rin tutadi. Nemis maqollarida individualizm unsurlari sezilsa-da, ularning semantik asosida ham hamjihatlik va ishonch qadriyati yotadi. O‘zbek maqollarida esa jamoaviylik, sadoqat va axloqiy me’yorlar kuchliroq ifodalangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, farqlar ko‘pincha lisoniy obrazlar va madaniy realiyalar bilan bog‘liq. Nemis maqollarida ko‘proq aniqlik, mantiq va g‘arbiy madaniyatga xos elementlar (masalan, ovchilik, dengizchilik, protestantizm axloqi) aks etsa, o‘zbek maqollarida Sharq madaniyati, islomiy tushunchalar, oila va urf-odatlarga bo‘lgan alohida e’tibor (masalan, mehmondo‘stlik, ota-onaga hurmat, sahro hayotiga oid obrazlar) yaqqol seziladi. Bu tafovutlar har bir xalqning o‘ziga xos dunyoqarashini va axloqiy-estetik mezonlarini shakllantirganligidan dalolat beradi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot nemis va o‘zbek maqollarida semantik o‘xshashlik va farqlarning ifodalanishini qiyosiy-strukturaviy metodlar yordamida tahlil qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki xil lingvomadaniyatga mansub bo‘lgan nemis va o‘zbek maqollari orasida katta miqdordagi semantik mushtaraklik mavjud. Bu mushtaraklik asosan insonning ichki dunyosi, jamiyatdagi o‘rni, mehnatga, vaqtga va ahloqiy qadriyatlarga bo‘lgan universal munosabatni aks ettiruvchi maqollarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, har ikki xalq axloqiy me’yorlar, adolat va to‘g‘rilik kabi fundamental tushunchalarni yuksak qadrlashini, bu esa ularning maqollarida bir xil ma’no yukiga ega bo‘lgan ekvivalentlar orqali ifodalanishini aniqlash mumkin. Boshqacha aytganda, Yer yuzining turli qit’alarida shakllanganiga qaramay, insoniyatning asosiy falsafiy va hayotiy qoidalari bir xil ekanligi maqollar orqali yana bir bor tasdiqlandi.

Nemis va o‘zbek maqollarining semantik tahlili ularning chuqur ma’naviy yaqinligini, ammo madaniy farqlarini ham aniq ko‘rsatadi. Maqollar har ikki xalqqa xos ijtimoiy qadriyatlarni, tafakkur tarzini va dunyoni idrok etish shaklini mujassam etadi. O‘xshashliklar insoniyatning umumiy tajribasiga asoslangan bo‘lsa, farqlar milliy dunyoqarash, tarixiy rivojlanish va dini asoslarning o‘ziga xosligi bilan belgilanadi.

Nemis maqollarida mantiq, aniqlik va individual mehnatga urg‘u berilsa, o‘zbek maqollarida jamoaviylik, axloqiylik va ruhiy barqarorlikka e’tibor katta. Bu esa har bir xalqning madaniy kodini anglash, tarjimada milliy semantik qatlamni saqlab qolish zarurligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maqollar semantik jihatdan nafaqat tildagi ifoda vositasi, balki madaniy muloqotning o‘ziga xos ko‘prigi sifatida qaraladi.

Har ikki xalq maqollarini qiyoslashda asosiy e’tibor konseptual tahlilga qaratiladi. Chunki maqollarda so‘zlar o‘zining bevosita ma’nosidan tashqari majoziy, ramziy, ijtimoiy-axloqiy ma’noga ega bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Mehnat qilgan to‘yadi” maqoli bilan nemis tilidagi “Ohne Fleiß kein Preis” (mehnatsiz mukofot yo‘q) maqollari semantik jihatdan bir ma’noni anglatadi — inson hayotida mehnat muvaffaqiyatning asosi ekanini bildiradi.

Bu o‘xshashlik xalqaro universal qadriyat — mehnatsevarlik tushunchasi bilan izohlanadi. Ammo ayrim hollarda farqlar ham mavjud: o‘zbek maqollarida diniy va axloqiy asos kuchliroq sezilsa, nemis maqollarida ratsional va amaliy tafakkur ustun.

Nemis va o‘zbek maqollarida bir qator konseptlar o‘xshash semantik asosda shakllangan. Eng ko‘p uchraydigan konseptlar: mehnat, vaqt, do‘stlik, bilim, halollik, taqdir, sabr. Bu konseptlar insoniyat tafakkurining umumiy qadriyatlarini ifodalaydi.

Masalan, mehnat konsepti har ikki tilda ham ijobiy baholanadi. O‘zbek tilida “Mehnat – baxt kaliti”, “Mehnat qilgan to‘yadi” kabi maqollar mavjud bo‘lsa, nemis tilida “Arbeit adelt den Menschen” (Mehnat insonni sharaflaydi), “Morgenstund hat Gold im Mund” (Tong soati oltin) kabi maqollar uchraydi. Ularning barchasida mehnat insonni ma’naviy va moddiy jihatdan yuksaltiruvchi omil sifatida talqin etiladi.

Vaqt konsepti ham o‘xshash tarzda ifodalangan. O‘zbeklar “Vaqt boylik”, “Har daqiqa qimmat”, “Bugun qiladigan ishni ertaga qo‘yma” desa, nemislar “Zeit ist Geld” (Vaqt — pul), “Was du heute kannst besorgen, das verschiebe nicht auf morgen” (Bugun qiladigan ishni ertaga qoldirma) deydi. Ikkala xalq ham vaqtni qadrlashni, dangasalik va kechiktirishni salbiy baholaydi.

Do‘stlik konseptida esa o‘xshashlik bilan bir qatorda farqlar ham mavjud. Masalan, o‘zbeklarda “Do‘st – qiyinchilikda bilinadi”, “Do‘stni sinab bil”, “Do‘st yomon kunda taniladi” kabi maqollar ko‘p. Nemis tilida esa “Einen Freund erkennt man in der Not” (Do‘stni qiyinchilikda bilasan), “Wahre Freunde sind selten” (Haqiqiy do‘stlar kam topiladi) kabi maqollar mavjud. Har ikkisi do‘stlikni sinovli, hayotiy qadriyat sifatida ko‘rsatadi.

Biroq nemis maqollarida individualizm unsurlari, ya’ni shaxsning o‘z kuchi va mustaqilligiga urg‘u berish ko‘proq seziladi, o‘zbek maqollarida esa jamoaviylik va sadoqat asosiy ma’no markazida turadi. Shu sababli, semantik jihatdan umumiylik bo‘lsa-da, konnotatsion qatlamda farq paydo bo‘ladi.

Shu bilan birga, tahlil jarayonida semantik tafovutlarning mavjudligi ham aniqlandi. Bu tafovutlar, avvalo, har bir xalqning o‘ziga xos madaniy realiyalari (hayvonot, o‘simliklar dunyosi, kiyim-kechak, an’anaviy uy-ro‘zg‘or buyumlari), tarixiy tajribalari (qadimgi kasblar, urf-odatlar) va diniy e’tiqodlarining (xristianlik va islom) maqollarning obrazli tuzilishida aks etishi bilan bog‘liqdir. Masalan, nemis maqollarida suv, o‘rmon, dengiz kabi G‘arbiy Yevropaga xos geografik obrazlar tez-tez uchrasa, o‘zbek maqollarida esa cho‘l, yaylov, qo‘y, tuya kabi Markaziy Osiyo sharoitiga xos realiyalar ko‘proq ishlatiladi. Bu shuni anglatadiki, maqollar nafaqat axloqiy me’yorlarni, balki har bir xalqning tabiiy-geografik muhit bilan o‘zaro aloqasini ham semantik jihatdan mustahkamlaydi. Xulosa qilib aytganda, bu tadqiqot madaniyatlararo muloqotning asosiy kalitlaridan biri aynan paremiologik fondda yashiringanligini ko‘rsatadi va tarjimashunoslik hamda xalqaro munosabatlar sohalari uchun muhim amaliy va nazariy xulosalarni beradi. Maqollardagi bu nozik semantik tafovutlarni anglash ikki xalqning mentalitetidagi eng kichik farqlarni ham tushunishga, bu orqali esa madaniy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mieder, Wolfgang — *Proverbs are the Best Policy: Folk Wisdom and American Politics* — Logan: Utah State University Press, 2021, 45-b.
2. Permyakov, Grigoriy Lvovich — *Ot pogovorki do skazki (Zametki po obshey teorii kliyshe)* — Moskva: Nauka, 2020, 102-115-b.
3. Rahmatullayev, Shavkat — *O‘zbek tilining izohli lug‘ati*. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2021, III jild, 78-b.
4. Saidova, Mavjuda — *O‘zbek maqollarining lingvokulturologik tahlili* — Toshkent: Fan, 2023, 56-60-b.

5. Dundes, Alan — *Interpreting Folklore* — Bloomington: Indiana University Press,2020, 20-35-b.

6. Yo‘ldoshev, Baxtiyor — *O‘zbek paremiyalarining leksik-semantik xususiyatlari* — Toshkent: Universitet, 2011, 88-92-b.

7. Scherer, Anton — *Deutsche Sprichwörter und Redensarten* — München: Wilhelm Goldmann Verlag, 1986, 15-20-b.

8. Levin, Yuriy Iosifovich — *Izbrannie trudi: Poetika. Semiotika* — Moskva: Yaziki russkoy kulturi, 1998, 145-150-b.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA KIBERXAVFSIZLIK TERMINLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Umarova Feruza Muxiddin qizi
feruzaumarova790@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida kiberxavfsizlik sohasiga oid terminlarning semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida kiberxavfsizlik sohasi bilan bog‘liq yangi tushunchalar va ularni ifodalovchi terminlar tilning faol lug‘at qatlamidan o‘rin olmoqda. Tadqiqotda cybersecurity, malware, phishing, ransomware, firewall, encryption, authentication kabi inglizcha terminlarning mazmuniy tuzilishi hamda ularning o‘zbek tilida ifodalanish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, terminlarning bir ma’nolilik, ko‘p ma’nolilik, metaforik ko‘chish, kalkalash, o‘zlashma va semantik transformatsiya kabi jarayonlar orqali shakllanishi tahlil qilinadi. Ingliz tili kiberxavfsizlik terminologiyasining asosiy manbalaridan biri sifatida namoyon bo‘lsa, o‘zbek tilida ushbu terminlarni milliy til me’yorlariga moslashtirish jarayoni faol kechayotgani aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *kiberxavfsizlik, termin, terminologiya, semantika, kiberjinoyat, axborot xavfsizligi, o‘zlashma, kalkalash, metafora, ingliz tili, o‘zbek tili.*

Аннотация: *В данной статье проводится сравнительный анализ семантических особенностей терминов кибербезопасности в английском и узбекском языках. Рассматриваются процессы формирования и функционирования таких терминов, как cybersecurity, malware, phishing, ransomware, firewall, encryption, authentication. Особое внимание уделяется однозначности, многозначности, метафоризации, заимствованию, калькированию и семантической трансформации терминов. Анализ показывает, что английский язык является одним из основных источников современной терминологии кибербезопасности, тогда как в узбекском языке активно происходят процессы адаптации и национализации соответствующих терминологическихединиц.*

Ключевые слова: *кибербезопасность, термин, терминология, семантика, киберпреступность, информационная безопасность, заимствование, калькирование,метафора.*

Abstract: *This article examines the semantic features of cybersecurity terminology in English and Uzbek from a comparative perspective. It focuses on*

such terms as cybersecurity, malware, phishing, ransomware, firewall, encryption, and authentication. Particular attention is paid to semantic processes such as monosemy, polysemy, metaphorical transfer, borrowing, calquing, and semantic transformation. The analysis demonstrates that English serves as one of the major sources of contemporary cybersecurity terminology, while Uzbek actively adapts these terms to its own linguistic and terminological system.

Keywords: *cybersecurity, terminology, semantics, cybercrime, information security, borrowing, calquing, metaphor, English, Uzbek.*

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson faoliyatining deyarli barcha sohalariga raqamli texnologiyalarning chuqur kirib kelishiga sabab bo‘ldi. Internet, bulutli texnologiyalar, sun’iy intellekt, elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bir qatorda axborotni himoya qilish, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va kiberhujumlarga qarshi kurashish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli kiberxavfsizlik sohasi nafaqat texnik, balki lingvistik nuqtayi nazardan ham tadqiq etilishi lozim bo‘lgan zamonaviy yo‘nalishlardan biridir.

Terminologiya muayyan fan yoki kasb-hunar sohasiga tegishli tushunchalarni aniq ifodalovchi maxsus leksik birliklar tizimidir. Termin oddiy so‘zdan, avvalo, o‘zining muayyan ilmiy yoki professional tushunchani ifodalashi bilan farqlanadi. Terminologik birlikning mazmuni muayyan soha doirasida aniq chegaralanadi. A. S. Gerd terminologiyani maxsus bilim sohasidagi tushunchalarni nomlashga xizmat qiluvchi tizim sifatida talqin qiladi [1, 18-b.]. Kiberxavfsizlik terminologiyasi esa axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari, dasturiy ta’minot, ma’lumotlarni himoyalash va kiberjinoyatchilik bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi terminlar majmuasini tashkil etadi. Mazkur terminologiyaning katta qismi ingliz tilida shakllangan. Buning asosiy sabablaridan biri zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishida ingliz tilining xalqaro ilmiy-texnik aloqa vositasi sifatidagi mavqeidir.

Terminologik birliklarning shakllanishi va rivojlanishida semantik jarayonlar muhim o‘rin tutadi. V. V. Vinogradov ta’kidlaganidek, so‘z ma’nosi til tizimidagi boshqa birliklar bilan munosabatda shakllanadi va o‘zgaradi [2, 47-b.]. Bu fikr kiberxavfsizlik terminlariga ham taalluqlidir. Chunki mazkur sohadagi ko‘plab terminlar umumiste’mol tilidagi birliklarning maxsus ma’no kasb etishi orqali terminlashgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillaridagi kiberxavfsizlik terminlarining semantik xususiyatlarini aniqlash, ularning shakllanish usullarini qiyosiy tahlil qilish hamda o‘zbek tilida mazkur terminlarning semantik moslashuvini ko‘rsatishdan iborat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kiberxavfsizlik terminlarini semantik jihatdan tahlil qilishda, avvalo, terminlarning qanday ma’no asosida shakllanganligini aniqlash muhim. Ingliz tilidagi ko‘plab kiberxavfsizlik terminlari umumiste’mol leksikasidagi so‘zlarning maxsus ma’no kasb etishi asosida yuzaga kelgan. Masalan, firewall termini bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ingliz tilida firewall dastlab “yong‘inni to‘suvchi devor” ma’nosini bildirgan. Kompyuter texnologiyalarida esa ushbu birlik tarmoqni ruxsatsiz kirishlardan himoya qiluvchi tizim ma’nosida ishlatiladi. O‘zbek tilida u ko‘pincha “xavfsizlik devori” yoki “tarmoqlararo ekran” tarzida ifodalanadi. Bu hodisa metaforik semantik ko‘chishning mahsulidir. Metaforik terminlar texnik tushunchani insonning kundalik tajribasida mavjud bo‘lgan tushuncha orqali anglash imkonini beradi. G. Rondeau terminlarning shakllanishida metafora va boshqa semantik mexanizmlar muhim rol o‘ynashini qayd etadi [3, 76-b.].

1. Bir ma’nolilik va terminologik aniqlik

Terminologiyaning asosiy talablaridan biri uning aniqligi va imkon qadar bir ma’noliligidir. Termin ma’lum bir soha doirasida muayyan tushunchani ifodalashi kerak. D. S. Lotte terminologik tizim uchun aniqlik, tizimlilik va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikni muhim xususiyat sifatida ko‘rsatadi [4, 32-b.]. Masalan, encryption termini kiberxavfsizlik kontekstida ma’lumotni maxsus algoritm yordamida shifrlash jarayonini anglatadi. O‘zbek tilida ushbu termin “shifrlash” shaklida faol qo‘llanadi. Bu yerda inglizcha terminning mazmuni o‘zbek tilidagi mavjud fe’l asosida aniq ifodalangan.

Authentication termini esa foydalanuvchi yoki tizim obyektining haqiqiyligini tekshirish jarayonini anglatadi. O‘zbek tilidagi “autentifikatsiya” shakli xalqaro terminning fonetik va morfologik jihatdan moslashtirilgan ko‘rinishidir.

2. O‘zlashma terminlarning semantik xususiyatlari

Kiberxavfsizlik terminologiyasining o‘zbek tilida shakllanishida ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashmalar muhim o‘rin egallaydi. Bunday terminlarga kiberxavfsizlik, autentifikatsiya, identifikatsiya, phishing, malware, botnet, ransomware kabi birliklarni kiritish mumkin.

T. L. Kandelaki terminlarning o‘zlashishi jarayonida terminologik tizimlar o‘rtasidagi xalqaro ilmiy-texnik aloqalarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi [5, 91-b.].

Phishing termini ham obrazli semantik mexanizm bilan bog‘liq. U fishing (“baliq ovlash”) so‘ziga fonetik jihatdan yaqin bo‘lib, foydalanuvchini “o‘lja” sifatida aldov yo‘li bilan ma’lumot berishga undash jarayonini ifodalaydi. Shunday qilib, metafora kiberxavfsizlik terminlarini yaratishda nafaqat nominativ, balki kognitiv vazifani ham bajaradi. J. Lakoff va M. Jonson metaforani faqat badiiy vosita emas, balki inson tafakkuri va tushunchalarni anglash mexanizmlaridan biri sifatida izohlaydi [6, 5-b.]. Shu nuqtayi nazardan, firewall, worm, virus, backdoor kabi birliklarning terminlashuvi kognitiv-metaforik jarayon bilan bog‘liq.

3. Qisqartma terminlarning semantik xususiyatlari

Kiberxavfsizlik terminologiyasida qisqartmalar ham katta ahamiyatga ega. Masalan:

DoS — Denial of Service;

DDoS — Distributed Denial of Service;

VPN — Virtual Private Network;

MFA — Multi-Factor Authentication;

IDS — Intrusion Detection System;

IPS — Intrusion Prevention System.

Ushbu birliklar o‘zbek tilidagi ilmiy va texnik matnlarda ko‘pincha asl inglizcha shaklida saqlanadi. Buning sababi xalqaro texnik kommunikatsiyada qisqartmalarning standartlashganligidir. Masalan, DDoS attack atamasi o‘zbek tilida “DDoS hujumi” shaklida qo‘llanishi mumkin. Bu holatda qisqartma o‘z holicha saqlanib, attack komponenti o‘zbek tilidagi “hujum” so‘zi bilan almashtiriladi. Natijada gibrid terminologik birlik yuzaga keladi.

4. Semantik kengayish va torayish

Ba’zi terminlar umumiy tildagi ma’nosidan texnik sohadagi maxsus ma’noga o‘tadi. Bunday jarayonni semantik torayish sifatida izohlash mumkin. Masalan, virus so‘zi biologiyada tirik organizmlarga zarar yetkazuvchi mikroorganizmlar bilan bog‘liq tushunchani bildiradi. Informatika sohasida esa u kompyuter tizimlariga zarar yetkazuvchi yoki o‘zini ko‘paytiruvchi zararli kodni anglatadi.

Shuningdek, attack so‘zi umumiy tilda “hujum” ma’nosida ishlatilsa, kiberxavfsizlik sohasida cyberattack shaklida tizim, tarmoq yoki axborot resursiga qarshi amalga oshiriladigan zararli harakatni bildiradi.

Demak, umumiste’mol so‘zining terminologik ma’no kasb etishi natijasida uning semantik doirasi muayyan sohaga nisbatan torayadi.

5. O‘zbek va ingliz tillaridagi terminlarning qiyosiy xususiyatlari

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida kiberxavfsizlik terminlarining katta qismi ichki semantik imkoniyatlar, qisqartirish, affiksatsiya,

qo‘shma so‘zlar va metaforik ko‘chish orqali shakllanadi. O‘zbek tilida esa inglizcha terminlarni o‘zlashtirish, kalkalash va o‘zbek tilining morfologik imkoniyatlari asosida qayta shakllantirish jarayonlari parallel ravishda kuzatiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan semantik tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, kiberxavfsizlik terminologiyasi zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllanayotgan dinamik terminologik tizimdir. Mazkur tizimda ingliz tili muhim donor til vazifasini bajarmoqda.

Ikkinchidan, ingliz va o‘zbek tillaridagi kiberxavfsizlik terminlari semantik jihatdan bir necha guruhga ajratilishi mumkin: bevosita o‘zlashmalar, kalkalangan birliklar, metaforik terminlar, qisqartmalar, gibrid terminlar hamda umumiste’mol leksikasidan terminlashgan birliklar.

Uchinchidan, firewall, worm, virus, backdoor kabi terminlar metaforik ko‘chish asosida shakllangan bo‘lib, murakkab texnik tushunchalarni obrazli tarzda nomlashga xizmat qiladi.

To‘rtinchidan, o‘zbek tilida kiberxavfsizlik terminlarini shakllantirishda ikki asosiy tendensiya — xalqaro terminlarni bevosita o‘zlashtirish va ularni o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida tarjima qilish — parallel ravishda davom etmoqda.

Beshinchidan, kiberxavfsizlik terminologiyasini standartlashtirishda terminlarning semantik aniqligi, tizimliligi, bir xilligi va o‘zbek tilining milliy-lisoniy me’yorlariga mosligi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur soha terminlarini lingvistik jihatdan muntazam tadqiq etish va ularning o‘zbekcha muqobillarini ilmiy asosda ishlab chiqish zamonaviy o‘zbek terminologiyasining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Герд А. С. Основы научно-технической лексикографии. — Л.: Изд-во Ленинградского университета, 1986. — 189 с.
2. Виноградов В. В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. — М.: Высшая школа, 1986. — 640 с.
3. Rondeau G. Introduction à la terminologie. — Montréal: Gaëtan Morin, 1984. — 238 p.
4. Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. — М.: Изд-во АН СССР, 1961. — 158 с.

5. Канделаки Т. Л. Семантика и мотивированность терминов. — М.: Наука, 1977. — 168 с.
6. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: The University of Chicago Press, 1980. — 242 p.
7. Cabré M. T. Terminology: Theory, Methods and Applications. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1999. — 248 p.
8. Sager J. C. A Practical Course in Terminology Processing. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 1990. — 254 p.
9. Crystal D. A Dictionary of Linguistics and Phonetics. — 6th ed. — Oxford: Blackwell Publishing, 2008. — 529 p.
10. ISO/IEC. 27000:2018. Information Technology — Security Techniques — Information Security Management Systems — Overview and Vocabulary. — Geneva: International Organization for Standardization, 2018. — 36 p.

CONDOLING ACROSS CONTINENTS: A CROSS-CULTURAL COMPARISON OF OFFICIAL CONDOLENCE MESSAGES IN UZBEK AND ENGLISH DIPLOMACY

Xidirov Olmosbek Abdurazak o‘g‘li
Guliston davlat pedagogika instituti
olmosbekxidirov@gmail.com

Abstract. *Official condolence messages occupy a marginal position in studies of diplomatic discourse, despite their importance for crisis communication and symbolic statecraft. This article offers a pilot comparison of 20 official condolence messages issued between 2018 and 2024: 10 from Uzbek governmental sources and 10 from English-language diplomatic institutions. Combining speech act theory, politeness theory, genre/move analysis, and intercultural rhetoric, the study identifies a seven-move condolence schema and compares its pragma-linguistic realization across the two sub-corpora. The findings suggest that Uzbek messages tend to intensify affect, foreground collective solidarity, include Islamic-origin invocations more often, and elaborate commitment clauses as relationship-maintenance devices. English messages, by contrast, more often favor institutional restraint, nominalized empathy, and brief assistance formulas. A practical implication is that diplomatic translators should treat religious and affective markers as functional resources, not ornamental material to be neutralized.*

Keywords: *official condolence messages, diplomatic discourse, crisis communication, speech act theory, politeness theory, genre analysis, intercultural rhetoric, pragma-linguistics, diplomatic translation.*

Annotatsiya. *Rasmiy hamdardlik xabarlari inqirozli kommunikatsiya va davlatning ramziy diplomatik faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, diplomatik diskurs tadqiqotlarida nisbatan kam o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada 2018-2024-yillar oralig‘ida e’lon qilingan 20 ta rasmiy hamdardlik xabarining pilot qiyosiy tahlili amalga oshiriladi: ulardan 10 tasi O‘zbekiston hukumatining rasmiy manbalaridan, 10 tasi esa ingliz tilidagi diplomatik institutlar manbalaridan olingan. Nutq aktlari nazariyasi, xushmuomalalik nazariyasi, janr va kommunikativ harakatlar (move) tahlili hamda madaniyatlararo ritorika yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan holda, tadqiqot hamdardlik xabarlarining yetti bosqichli kommunikativ sxemasini*

aniqlaydi va uning ikki subkorpusdagi pragma-lingvistik voqelanishini qiyoslaydi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilidagi xabarlarda hissiy ta’sirni kuchaytirish, jamoaviy birdamlikni alohida ta’kidlash, islomiy kelib chiqishga ega duo va tilak ifodalaridan ko‘proq foydalanish hamda munosabatlarni saqlash vositasi sifatida majburiyat va ko‘makka tayyorlik mazmunidagi qismlarni kengroq ifodalash tendensiyasi kuzatiladi. Ingliz tilidagi xabarlarda esa, aksincha, institutsional vazminlik, otlashgan empatiya ifodalari va qisqa yordam taklifi formulalariga ko‘proq ustunlik beriladi. Tadqiqotning amaliy xulosasi shundan iboratki, diplomatik tarjimonlar diniy va hissiy markerlarni tarjimada neytrallashtirilishi lozim bo‘lgan bezak unsurlari sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi funksional vositalar sifatida talqin qilishlari zarur.

Kalit so‘zlar: *rasmiy hamdardlik xabarlari, diplomatik diskurs, inqirozli kommunikatsiya, nutq aktlari nazariyasi, xushmuomalalik nazariyasi, janr tahlili, madaniyatlararo ritorika, pragma-lingvistika, diplomatik tarjima.*

Аннотация. *Официальные послания с выражением соболезнований занимают сравнительно периферийное место в исследованиях дипломатического дискурса, несмотря на их важную роль в кризисной коммуникации и символической деятельности государства на международной арене. В данной статье представлен пилотный сравнительный анализ 20 официальных посланий с выражением соболезнований, опубликованных в период с 2018 по 2024 год: 10 из них были получены из официальных правительственных источников Узбекистана, а 10 - из англоязычных дипломатических институтов. На основе сочетания теории речевых актов, теории вежливости, жанрового анализа и анализа коммуникативных ходов (move analysis), а также межкультурной риторики в исследовании выделяется семикомпонентная коммуникативная схема выражения соболезнования и сопоставляется её прагмалингвистическая реализация в двух подкорпусах. Результаты показывают, что узбекские послания характеризуются тенденцией к усилению эмоциональной выразительности, акцентированию коллективной солидарности, более частому использованию формул и обращений исламского происхождения, а также более развёрнутому выражению обязательств и готовности оказать поддержку как средств поддержания межгосударственных отношений. Англоязычные послания, напротив, чаще отличаются институциональной сдержанностью, номинализированными средствами выражения эмпатии и краткими формулами предложения помощи. Практический вывод исследования заключается в том, что дипломатическим переводчикам*

следует рассматривать религиозные и эмоциональные маркеры не как факультативные декоративные элементы, подлежащие нейтрализации, а как функциональные ресурсы, выполняющие определённые коммуникативные задачи.

Ключевые слова: *официальные послания с выражением соболезнований, дипломатический дискурс, кризисная коммуникация, теория речевых актов, теория вежливости, жанровый анализ, межкультурная риторика, прагмалингвистика, дипломатический перевод.*

Introduction. Condolence is a paradoxical speech act: it is among the most formulaic forms of public communication, yet in diplomatic settings it is politically loaded. A state’s expression of grief does not merely comfort; it ranks relationships, acknowledges suffering, assigns moral meaning to loss, and often reaffirms future cooperation. The formula “we extend condolences” therefore performs more than sympathy. It converts affect into a recognizable act of international alignment.

Research on condolence has examined grief and sympathy in social interaction and culturally patterned bereavement [1], [2], [3]. However, official state-level condolence discourse, particularly from Central Asian diplomatic contexts, remains underexamined. This gap is significant because diplomatic condolence messages combine interpersonal emotion with institutional voice. They also operate under constraints of protocol, translation, ideology, and audience plurality.

The Uzbek case is especially revealing. Since independence, Uzbekistan has developed a diplomatic voice that appears to blend Soviet-era bureaucratic formality, Islamic moral vocabulary, Turkic-Central Asian kinship rhetoric, and the modern multilateral register of international organizations. Studies of post-Soviet Uzbek culture and Islam show that public language is shaped by both inherited state formality and selective religious-cultural legitimation [4], [5]. This article asks two questions. RQ1 asks what rhetorical moves and illocutionary strategies characterize official condolence messages in Uzbek and English diplomatic discourse. RQ2 asks how these messages diverge culturally in expressivity, religious reference, solidarity framing, and face-work strategies. The article first outlines the theoretical framework, then describes the corpus and coding procedure, and finally discusses four contrastive findings and their implications.

Theoretical Framework. The study is anchored in speech act theory, where condolence can be treated as an expressive illocutionary act: the speaker publicly displays sorrow toward a loss experienced by another party [6], [7]. In diplomatic discourse, however, the expressive act is rarely only expressive. It may also contain

commissive elements, as when a state offers assistance, and relational declarations, as when it reiterates friendship or alliance.

Politeness theory helps explain why condolence is interactionally delicate. For Brown and Levinson [8], face-work concerns the management of social dignity and relational vulnerability. Condolence is not a conventional face-threatening act in the same way as criticism or refusal, but it enters a context where the addressee’s symbolic face has been damaged by tragedy, national mourning, or leadership loss. Consequently, condolence requires positive face repair through warmth, respect, and affiliation, while also preserving negative face by avoiding overintrusion into grief.

Genre and move analysis provide the structural lens. Following Swales [9] and Bhatia [10], diplomatic condolence can be analyzed as a professional genre whose moves are conventional but variably realized. Intercultural rhetoric, especially Connor’s shift from contrastive rhetoric to context-sensitive intercultural rhetoric, supports attention to how similar genres diverge across institutions, audiences, and communicative histories [11], [12]. Fairclough’s [13] view of discourse as socially embedded further suggests that condolence messages are not neutral; they reproduce institutional values.

Islamic discourse conventions are particularly relevant for Uzbek messages. Phrases such as *Alloh rahmat qilsin* and *Inna lillahi va inna ilayhi roji’un* may function as culturally marked pragmatic resources, especially in messages to Muslim-majority states [14]. They distinguish condolence from adjacent speech acts such as general sympathy, solidarity declaration, and commitment to cooperation, though official messages frequently braid all three with condolence proper.

Data and Methodology. The pilot corpus comprised 20 official condolence messages issued between 2018 and 2024. The Uzbek sub-corpus contained 10 messages from the Uzbek Ministry of Foreign Affairs and Presidential Administration; the English sub-corpus contained 10 messages from the U.S. State Department, the UK Foreign Office, or the UN Secretary-General. The messages responded to major international disasters, terrorist attacks, plane crashes, earthquakes, and deaths of state figures. Selection favored comparable triggering events where possible, and all texts were publicly available on official government or intergovernmental websites.

The unit of analysis was the full message text. Analysis proceeded in three stages. First, rhetorical moves were identified through an inductively derived seven-move coding scheme. Second, pragma-linguistic features were coded, including religious markers, first-person plural solidarity framing, metaphor, hedging, and commitment clauses. Third, contrastive frequency analysis compared the Uzbek and

English sub-corpora. Corpus items were coded as [UZB-01] through [UZB-10] and [ENG-01] through [ENG-10]; the examples quoted below are invented but realistic composite renderings of recurring patterns, not verbatim extracts. The analysis was conducted in both source languages. Uzbek messages were analyzed in the original language rather than through machine translation, with English glosses used only for presentation. Where institutional English translations existed, they were consulted only after source-language coding so that translation choices did not predetermine the move analysis.

Findings and Discussion. The analysis suggests a seven-move schema for diplomatic condolence: addressee acknowledgment, expression of grief, tribute to the deceased or magnitude of disaster, solidarity declaration, religious or philosophical invocation, commitment to continued relations or cooperation, and formal closure. The schema appeared across both sub-corpora, but its density and cultural anchoring differed. In particular, the Uzbek messages tended to accumulate moves in longer syntactic chains, while English messages more often separated grief, solidarity, and assistance into brief clauses or omitted one move altogether.

Rhetorical Move	Present in Uzbek corpus (n/10)	Present in English corpus (n/10)	Key pragma-linguistic feature
M1: Addressee acknowledgment	10	8	Honorific address versus institutional salutation
M2: Expression of grief/sorrow	10	10	High-affect lexis versus restrained formula
M3: Tribute/magnitude of disaster	8	7	Moral evaluation or scale of loss
M4: Solidarity declaration	10	9	Inclusive “we” and people-to-people alignment
M5: Religious/philosophical invocation	9	3	Islamic formula or secular reflection
M6: Commitment to cooperation	8	5	Elaborated relational pledge versus assistance formula
M7: Formal closure	10	9	Named signatory or institutional close

